


M.B.IBRAGIMOV, R.M. AKBAROVA, X.F. MAXSUDOVA

BOLALARDA  
SIYDIK YO'LLARI A'ZOLARINING  
ANATOMO-FIZIOLOGIK  
XUSUSIYATLARI VA  
KASALLIKLARI

O'quv qo'llanma



ANDIJON - 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

M.B.Ibragimov, R.M. Akbarova, X.F. Maxsudova

BOLALARDA SIYDIK YO'LLARI A'ZOLARINING  
ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA  
KASALLIKLARI

*O'quv qo'llanma*



ANDIJON - 2022



ANDIJON DAVLAT  
TIBBIYOT INSTITUTI

# GUVOHNOMA

ANDIJON – 2022

## O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
Andijon davlat tibbiyot instituti rektorining 2022 yil "I" dekabrdagi  
"760-Sh"–sonli buyrug'iiga asosan

*M.B.Ibragimov, R.M.Akbarova, X.F.Maxsudova*

(maʼmuriy faniyari, umi-shaxsi)

*Pediatriya ishl - 5510200*

(o'stim ya'nalishi qo'metozasligi)

ning

talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan.

*Bolalarda siydik yo'llari a'zolarining anatomo-fiziologik  
xususuyatlari va kasalliklari nomli o'quv qo'llanmasi*

(o'quv adabiyotining nomi va tarzi: darslik, o'qiga yetillama)

ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan  
litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Rektor  M.M. Madazimov

(shaxsi)

Ro'yxatga olish raqami:



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

M.B.Ibragimov, R.M. Akbarova, X.F. Maxsudova,

Bilim sohasi – Ijtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash – 500000  
Ta'lif sohasi – Sog'liqni saqlash 510000  
Pediatriya ishi – 5510200  
“Pediatriya” fani

**BOLALARDA SIYDIK YO'LLARI A'ZOLARINING  
ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA  
KASALLIKLARI**

Umumiy amaliyot shifokorlari, tibbiyot instituti bakalavriyat yo'nalishi va  
magistrlar uchun o'quv qo'llanma

ANDIJON – 2022

**Mualliflar:**

**M.B.Ibragimov** ADTI, pediatriya kafedrasi dotsenti,  
tibbiyot fanlari nomzodi.


**R.M.Akbarova** ADTI, pediatriya kafedrasi assistenti.

**X.F.Maxsudova** ADTI, pediatriya kafedrasi katta  
o'qituvchisi

**TAQRIZCHIAR:**

**XAKIMOV SH.K.** - Andijon Davlat tibbiyot instituti "Fakultativ Pediatriya va  
Neonatologiya" kafedrasi professori

**SHERMATOV R.M.** - Farg'onha Davlat tibbiyot instituti, "Pediatriya"  
kafedrasi mudiri:



Qo'llanmada bolalarning siyidik yo'llari a'zolari kasalliklari haqidagi zamonaviy ma'lumotlar keltirilgan. Kasalliklar klassifikatsiyasi, klinikasi, tashxislash masalalari yoritilgan va davolashdagi asosiy dori vositalari ko'rsatilib o'tilgan.

#### **ANNOTATSIYA**

Ushbu o'quv qo'llanmada bolalarda siyidik ajratish tizimi organlari AFX, tekshirish usullari, kasalliklari semiotikasi yoritilgan. Shuningdek, siyidik y o'llari infektsiyalari, pielonefritlar, glomerulonefritlar etiologiyasi, patogenezi, sinflanishi, klinikasi, diagnostikasi va differential diagnostikasi, davolash va profilaktikasi yozilgan, xar bir mavzu uchun nazorat va test savollari, vaziyatli masalalar va amaliy k o'nikmalar keltirilgan.

#### **АННОТАЦИЯ**

В данном учебном пособие описаны о АФО органов мочевыделения, методы исследования, семиотика. Также, приведены часто встречающиеся заболевания, как гломерулонефриты, инфекции мочевых путей и пиелонефриты, описаны их этиология, патогенез, классификация, клиника, методы диагностики, дифференциальная диагностика, лечение и профилактические меры.

#### **ANNOTATION**

This tutorial describes the AFO of the urinary system, the method of studies of semiotics are also given frequently occurring diseases such as glomerulonephritis, urinary tract infections pyelonephritis describes their etiology, pathogenesis, classification, clinic diagnostic methods differential diagnosis, treatment and preventive measures.

**BOLALARDA SIYDIK YO'LLARI A'ZOLARINING  
ANATOMO-FIZIOLOGIK  
XUSUSIYATLARI VA KASALLIKLARI**

<b>Kirish .....</b>	<b>13</b>
I bob. Siydiq hosil qilish va chiqarish tizimi .....	14
Anatomik va fiziologik xususiyatlari.....	14
Siydiq tizimi kasalliklari semiotikasi .....	28
II bob. Siydiq chiqarish yo'llari infektsiyalari.....	36
III bob. Glomerulonefritlar.....	43
O'tkir streptokokkli glomerulonefrit.....	43
Surunkali glomerulonefrit.....	62
IV bob. Pielonefritlar.....	72
O'tkir pielonefrit.....	72
Surunkali pielonefrit.....	92
V bob. Mavzular bo'yicha nazorat savollari, testlar va vaziyatli masalalar.....	99
VI bob. Mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalar .....	125
VII bob. Qo'llanilgan adabiyotlar .....	139

## **АНАТОМО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И БОЛЕЗНИ ОРГАНОВ МОЧЕВЫДЕЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ**

<b>Введение .....</b>	<b>13</b>
Глава I. Анатомо-физиологические особенности органов мочеобразования и мочевыделения.....	14
Глава II. Инфекции мочевых путей .....	36
Глава III. Гломерулонефриты.....	43
Острый стрептококковый гломерулонефрит.....	43
Хронический гломерулонефрит.....	62
Глава IV. Пиелонефриты.....	72
Острый пиелонефрит.....	72
Хронический пиелонефрит.....	92
Глава V. Контрольные вопросы, тесты и ситуационные задачи.....	99
Глава VI. Практические навыки по теме.....	125
Глава VII. Использованная литература.....	139

## UROGENITAL SYSTEM IN CHILDREN DISEASES OF ORGANS

### CONTENTS

Introduction.....	13
Charter I Anatomical and physiological features organs of urination.....	14
Charter II Urinary tract infection .....	36
Charter III Glomerulonephritis	
Acute streptococcal glomerulonephritis.....	43
Chronic glomerulonephritis.....	62
Charter IV Pyelonephritis.....	72
Acute pyelonephritis.....	92
Charter V Control questions, tests and situational tasks.....	99
Charter VI Practical skills on the topic.....	125
Charter VII References.....	139

## **BOLALARDA SIYDIK YO'LLARI A'ZOLARINING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA KASALLIKLARI**

### **QISQARTIRISHLAR**

**GN** (Glomerulonefrit)

**STI** (Siydik tizimi infektsiyalari)

**SCHYI** (Siydik chiqarish yo'llari infektsiyasi)

**SYI** (Siydik yo'llari infektsiyalari)

**O'SGN** (O'tkir streptokokkli glomerulonefrit)

**O'SBGN** (O'tkir streptokokkli bo'lmagan glomerulonefrit)

**UTT** (Ultratovushli tekshirish)

**SGN** (Surunkali glomerulonefrit)

**SBE** (Surunkali buyrak etishmovchiligi)

**O'BE** (O'tkir buyrak etishmovchiligi)

**NS** (Nefrotik sindrom)

**MPGN** (Mezangio-proleferativ GN)

**IN** (Infektsion nefrit)

**VUR** (Vezikoureteral refluyuks)

**NSP** (Neyrogen siydik pufagi)

**O'PEN** (O'tkir pielonefrit)

## BOLALARDA SIYDIK YO'LLARI A'ZOLARING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA KASALLIKLARI

### ATAMALAR

**Siydik chiqarish yo'llari infektsiyasi (SCHYI)** – siydik yo'llari, siydik nayi, siydik pufagi, uretradagi yallig'lanishli jarayon.

**O'tkir streptokokkli glomerulonefrit (O'SGN)** – davriy, 3 xil ko'rinishdagi immunologik reaksiyalar (immun kompleks) bilan kechuvchi buyrakning infektsion-allergik kasalligi  
**Surunkali glomerulonefrit (SGN)** - tabiatan turli birlamchi glomerulopatiyalar guruxi, persistirlanuvchi, progressivlanuvchi, yallig'lanishli, sklerozli va destruktivli jarayonlar bo'lib, keyinchalik nefronning boshqa qismlari, xususan, tubulo-interstitsial skleroz rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

**O'tkir pielonefrit (O'PEN)**-buyrakning mikroblı yallig'lanish kasalligi bo'lib, buyrak kosacha-jomchalari tizimi, interstitsial to'qima, parenxima va kanalchalarining zararlanishi bilan kechadi.

**Surunkali pielonefrit(SPEN)** – bu buyrak kosacha-jomchalari tizimi va tubulointerstitsial to'qimasining surunkali mikroblı-yallig'lanish jarayoni bo'lib, uzoq muddat (6 oydan uzoq) kechadigan yallig'lanish jarayon,

**Leykotsituriya** – bu siydikda ko'p miqdorda leykotsitlarning topilishi.

**Bakteriuriya-siydikda bakteriyalar bo'lishi.**

**Gematuriya** – siydikda eritrotsitlarni k/m 3tadan ortiq yoki Nechiporenko sinalmasida 1000 tadan ortiq bo'lishi.

**Proteinuriya** – siydikda oqsilni aniqlanishi (sutkada 100 mg dan ortiq).

**Tsilindruriya** – siydikda tsilindrlar (kanalchaldagi oqsil va hujayrali hosilalar) bo'lishi

**Kristalluriya** – siydikda tuz kristallari (uratlar, oksalatlar, fosfatlar)ning paydo bo'lishi.

**Glyukozouriya** – siydikda qand moddasini topilishi

**Ketonuriya** – siydikda keton tanachalari (atseton, atsetosirkva beta-oksimolyar kislota)ning paydo bo'lishi.

**Oliguriya** (diurezni me'yordan 20-30% gacha kamayishi) yoki anuriya (me'yordan 6-7% atrofida) buyraklarda siydik hosil bo'lishini kamayishi yoki butunlay ajralmay qolishi

**Poliuriya** sutkalik siydik miqdorining me'yordidan 1,5 marta va undan ham ortib ketishi.

**Nikturiya** – tungi diurezni kunduzgidan ko'p bo'lishi, buyrak faoliyatining susayishi

**Gipostenuriya** – siydikning maksimal zichligi 1008 va undan past bo'lishi.

**Izostenuriya** – siydikning nisbiy zichligi 1010-1012 chegarasida, ya'ni, u qon zardobining oqsilsiz filtrati zichligiga teng bo'lishi.

**Enurez** (tunda siyib qo'yish)

## BOLALARDA SIYDIK YO'LLARI A'ZOLARINING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA KASALLIKLARI

### KIRISH

Buyrak va siyidik chiqarish a'zolari kasalliklari bolalar orasida ko'p tarqalgan, jiddiy oqibatlarga olib kelishi bilan yanada ko'proq diqqatni tortadi. Siyidik tizimi kasalliklarini 2ta katta guruhga bo'lish mumkin: birinchisi irsiy va tug'ma kasalliklar, ikkinchisi – orttirilgan. Birinchi guruh kasalliklarining pediatriyadagi ahamiyati katta bo'lib, kattalarga nisbatan bolalarda ko'p uchraydi. Bu kontengent bemorlarda kasallik erta aniqlanishi juda mushkul, shuning uchun ular erta yoshdayoq nobud bo'ladi. Buyrakdagi patologik jarayonning haqiqiy mohiyati doimo ham aniqlanmaydi va u orttirilgan kasallik niqobi ostida kechadi. Irsiy va tug'ma nefropatiyalar buyrak va siyidik yo'llarining rivojlanishidagi anatomiq tuzilish nuqsonlariga bog'liq bo'lsa, orttirilgan buyrak kasalliklari tashqi muxitning ta'sirlariga bog'liq holda rivojlanadi, birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Birlamchi kasalliklarga glomerulonefrit va pielonefritning turli formalari, buyrak o'smalari (bundan Vilmsning embrional adenosarkomasi mustasno) va siyidik tizimida mustaqil rivojlanuvchi boshqa patologik jarayonlar kiradi. Ikkilamchi orttirilgan nefropatiyalarga boshqa organlar va tizimlarning orttirilgan yoki tug'ma patologik sindromlar yoki asoratlarini va buyrak kasalliklarini kiritish mumkin.

Kasallikni o'z vaqtida aniqlamaslik, davolash muolajalarini kech boshlash patologik jarayonni progressivlanishi, bolani rivojlanishdan va o'sishdan orqada qolishiga olib keluvchi surunkali buyrak etishmovchiligiga sabab bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakkim, siyidik tizimi kasalligi bor ko'pchilik katta kishilarda patologik jarayon bolalik davridayoq boshlangan bo'lishi mumkin. Shuning uchun siyidik tizimi kasalliklarini oldini olish, erta aniqlash va davolashda yangi usullarni ishlab chiqish va qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mazkur o'quv qo'llanma yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari bilan pediatr-shifokor va tibbiyot oliygohlari talabalari uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**I BOB**  
**SIYDIK AJRATISH TIZIMI**  
**MAZMUNI**

Anatomo-fiziologik xususiyatlari

Tekshirish usullari

Siydik ajratish tizimi jarohatlanishi semiotikasi

Siydik hosil qilish va chiqarish tizimiga buyraklar, siydik naylari, siydik pufagi va siydik chiqarish kanali kiradi.(rasm 1). Buyraklar siydik hosil qiluvchi organ hisoblanadi, qolgan barcha bo'laklari esa buyrak jomchalari bilan birqalikda siydik chiqaruv yo'llarini tashkil qiladi.

Buyraklar gomeostazni ta'minlash vazifasini bajaradi, bu o'ta ma'suliyatlari vazifani moddalar almashinushi jarayoni qoldiqlarini organizmdan chiqarib yuborish, zardobning murakkab tarkibini saqlash, organizmdagi suyuqlik miqdori, elektrolit va kislota-ishqor muhitini va osmotik bosimni me'yorida saqlab turish bilan amalga oshiradi. Buyraklar shuningdek, endokrin vazifani ham bajaradilar. Ular tomirlar tonusi va buyrakda qon aylanishiga ta'sir ko'rsatuvchi renin va maxalliy to'qima gormonlari (kininlar, prostaglandinlar) sekretlari, eritropoetinlar, eritropoez ingibitorlarini ishlab chiqaradi va vitamin D ni faollashtiradi.

**ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Buyraklar embrional davrning 3-haftaligidan hosil bo'la boshlaydi va o'zining rivojlanishida 3ta davrni o'tadi: dastlabki va birlamchi buyrakning hosil bo'lishi va yo'qolishi; 5 haftaligidan boshlab oxirgi, doimiy buyrak hosil bo'lishi. Buyraklar qorin orti bo'shilig'i sohasining yuqori qismida joylashgan. Buyraklar qo'shuvchi to'qimali kapsula bilan, old tomonidan yana seroz qavat bilan o'ralgan. Buyrak ikkita: po'stloq(tashqi) va bo'lakchali piramidalar deb nomlanuvchi miya (ichki) qavatdan tashkil topgan. Piramidalarning uchi (so'rgichlari) buyrak jomchalariiga chiqib turadi. Buyrak to'qimasining struktura va funksional birligi nefron hisoblanadi (rasm 1), u tomirlar to'pchasi (glo-merula),

Shumlyanskiy Boumen kapsulasi, buyrak kanalchalari tizimi (proksimal, Genle halqasi, distal), yig'uvchi naychalar (ammo oxirgisi morfologik jihatdan nefroniga ta'luqli emas), qon va limfa tomirlari va neyrogumoral elementlardan tashkil topgan. Yig'uvchi naychalar ko'p marotaba qo'shilishib so'rg'ichli kanalni hosil qiladi va buyrak jomehalariga ochiladi. Lokalizatsiyasi bo'yicha nefronlar: kortikal (asosiy), o'rta kortikal va miya oldi (yukstamedullyar) bo'ladi. Nefronlarning ikkala buyrakdagi umumiy soni 2 mln. atrofida bo'ladi. Ularda siyidik hosil bo'lishining murakkab jarayonlari sodir bo'ladi: glomerulyar filtratsiya, kanalchalar reabsorbsiyasi (moddalarni kanalchalardan qonga aktiv va passiv transporti), kanalcha sekretsiyasi (moddalarni to'qimalar suyuqligidan kanalchalarga transporti).

Bola tug'ilishi davriga kelib buyraklar rivojlanishi morfologik va funksional jihatdan hali tugallanmagan bo'ladi.

Chaqaloqlarda buyrak massasi tana massasiga nisbatan 1:100, kattalarda esa 1:200 ni tashkil qiladi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda buyrak o'chamlarining kattaligi va umurtqa po g'onasining nisbatan kaltaligi tufayli buyraklar topografik jihatdan past joylashadi. Ularda yuqori chegarasi XI-XII ko'krak umurtqalar sohasiga, pastki chegarasi esa IV bel umurtqalarining yuqori qirg'oqlariga to'g'ri keladi, ya'ni u tos suyagining toji qirg'og'idan past joylashgan. Bu xususiyat 2 yoshdan keyin o'zgaradi.

I yoshgacha bo'lgan bolalar buyraklarining yuqori va pastki kengliklari bir-biriga juda yaqin joylashgan bo'lib yumaloq organ shaklini eslatса, so'ng esa loviya shaklini oladi.

Kichik yoshdagи bolalar buyraklari kattalarniga nisbatan harakatchanroq bo'ladi. Bu ulardagi buyrak oldi kletchatkasi, buyrak oldi va orqa fastsiyalarining sust rivojlanganligi bilan bog'liq. Fiksatsiyalovchi mexanizmlarning shakllanishi 5-8 yoshlarda tugallanadi. Bu yoshdan boshlab buyraklarning nafas olishdagi tebranib turishi me'yorda bola tana uzunligining 1,8% dan ortmaydi.

Buyrak birinchi yoshlargacha bo'lakchali tuzilishga ega bo'lib (2-5 yoshgacha), mag'z qismi po'stloq qismidan ko'proq (1:4) ni tashkil qiladi.

Muddatida tug'ilgan chaqaloqlarda nefronlar soni etarli bo'lib, muddatiga etmay tug'ilgan chaqaloqlarda esa ularning yangidan hosil bo'lishi jarayoni tug'ilganidan so'ng bir muncha vaqt davom etadi. Buyrak to'pchalarini miqdori buyrak hajm birligiga nisbatan olganda katta yoshdag'i bolalarnikidan ko'proq bo'ladi. Ammo chaqaloqlarda to'pehalar diametri kichik, ularning ko'pehilik qismi hali yaxshi differentsiyallashmagan va funktsiyasini bajara olmaydi, kapillyarlar to'ri qonga to'imaganligi tufayli puchchayib turadi. Glomerulalar kapillyarlarini yopib turuvchi Shumlyanskiy-Boumen kapsulasining vistseral varog'i kubsimon va tsilindrsimon epiteliyalardan tashkil topgan bo'lib, yoshi kattalashgan sayin yassi epiteliyalarga aylanadi va kapillyarlar halqalari orasiga chuquroq botib joylashib boradi. Kanalchalar va Genle halqachasi (oxirgining nefronlari sonini 1/5 qismi kortikal qavatda joylashadi) va ularning bo'shliqlari kattalarnikiga nisbatan 2 marotaba torroq. Renin hosil qilish va natriyni chiqarib yuborishni nazorat qilishda muhim rol o'ynovchi yukstaglomerulyar apparat 2 yoshda shakllanadi. Bola yoshi kattalashib balog'atga etguniga qadar nefronlar uzunligi ortib boradi. Kanalchalar massasining ortib borishi bilan to'pchalarning soni buyrak xajmi birligiga nisbatan kamayib boradi. Po'stloq moddasining to'liq yetilishi 3-5 yoshga etganida, buyraklarniki esa maktab yoshiga etganida tugallanadi.

Nefronlarning morfologik jihatidan etilmaganligi – bu chaqaloqlar va go'daklik yoshidagi bolalar buyraklari faoliyatining o'ziga xosligidir.

Ularda koptokchalar filtratsiyasi past bo'lib (ayniqsa hayotining birinchi yilida), bu filtratsiyalovchi yuzaning kamligi, filtrlovchi membranalarning qalinligi (ular kubsimon va tsilnidrik epiteliy bilan qoplangan) va filtratsion bosimning pastligi bilan bog'liq. Bola bir yoshlik bo'lganida bu ko'rsatkich kattalarnikiga yaqinlashadi, ammo etarli o'zgarib turuvchi amplitudaga ega emas.

3-6 yoshgacha bo'lgan bolalarda buyrak kanalchalarining fermentativ (enzim) tizimi etarlicha takomillashmaganligi tufayli buyrakning reabsorbsion va sekretor funktsiyasi etarli bo'lmaydi. Bu buyrakning eritish xususiyati yah shi

bo'lishiga qaramay siydikni nordonlashtirishni (vodorod ionlari va ammiak ekskretsiyasi) va kontsentratsiyalash imkoniyatini pasaytiradi.

Kontsentratsion faoliyatning pastligi osmoreceptorlarning etilmaganligi, distal kanalchalar va yig'uvchi naychalarining antidiuretik gormonga sezgirlingining pastligi, interstitsiya bilan birga siydikni osmotik kontsentratsiyalash vazifasini bajaruvchi Genle halqasining kaltaligi, glomerulyar filtratsiyaning pastligi (bunga mos ravishda kanalchalardagi to'lish jarayonini pastligi) va buyrak usti bezlarining regulyatsiya qiluvchi ta'sirining hali etarli darajada emasligi bilan izohlanadi.

Buyraklari hali funksional jihatdan etuk bo'lmasligiga qaramay fiziologik muhitda tabiiy ovqatlantirishda bo'lgan bir yoshgacha bo'lgan bola gomeostazini etarli darajada ushlab tura oladi. Ammo, bola sun'iy ovqatlantirishga o'tkazilganda, ayniqsa hayotining birinchi kunlari, kislota va ishqor muvozanati osonlik bilan kislotali tomonga o'zgaradi, ya'ni fiziologik atsidoz paydo bo'ladi. Bu fiziologik jihatdan koptokchalar filtratsiyasi va kanalchalarni vodorod ionlarini chiqarish faoliyati pastligi sharoitida oqsilli yuklamaning ortishi va organizmdan chiqarilishi zarur b'o'lgan moddalarni ko'payib ketishi natijasida sodir bo'ladi.

Erta yoshdagagi bolalarning ko'p kasalliklarida buyrakning kislota-ishqor muvozanatini nazorat qilish mexanizmi, shu jumladan kislotalarni ekskretsiya qilish va asosni saqlab qolishi xususiyatlari hali yahshi rivojlamaganligi atsidozni juda tez paydo bo'lishiga olib keladi.

Bola buyraklarida osmo- va volymregulyatsiya to'liq takomillashmaganligi tufayli suv va elektrolitlar buzilishlarini tez va effektiv me'yoriga keltira olmaydilar. Ular suv ortiqcha bo'lganida chiqarib yuborib, aksincha kamligida suvni tejab qola olmaydi, biroq organizm to'qimalarida saqlanuvchi natriyni reabsorbsiya qilish xususiyati esa kattalarnikidan bir mucha faolroqdir.

Shuning uchun bolalarda ham shish, ham degidrotatsiya osongina yuzaga kelishi mumkin. Buni infuzion terapiya o'tkazilayotganda yoddan chiqarmaslik kerak.

ADIT  
AXB-RESURS MARKAZI

INV № 1043

Bolalar buyraklarida moddalar ekskretsiyasi sekin kichadi, shu jumladan antibiotiklar ham. Buni dori moddalari, tuzli eritmalar va boshqalarni belgilashda hisobga olish kerak. Buyrakning funksional xususiyatlarini bolalikning har xil davrlaridagi siydik tarkibining ham sifat, ham miqdor jihatdan farq qilishi bilan tushintirish mumkin.

Sog'lom chaqaloqlarda hayotining birinchi 3 kunligida siydik juda kam ajraladi (tranzitor oliguriya) yoki umuman siymaydi (birinchi 12 soat ichida). Bu organizmga suyuqlikning kam kirishi, ekstrorenal yo'qotishlar, gemodinamika xususiyatlari bilan bog'lik. Keyinchalik moddalar almashinuvining jadallahsuvi va bolalar ratsionining o'ziga xosligi tufayli siydik kattalarnikiga nisbatan ko'proq ajrala boshlaydi. 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda sutkalik siydik miqdori quyidagi formula yordamida hisoblashimiz mumkin:

**600+100(n-1);**

**600-bir yoshlik bolaning sutkalik siydik miqdori, n-yillar hisobidagi yoshi;**

**Masalan, 6 yoshli bolaning sutkalik siydik miqdori 1100 (600 +100(6-1)) ml.**

Bolalar siydigida xlоридлар, калий kontsentratsiyasi kam bo'ladi. Ko'p chaqaloqlarda hayotining birinchi haftasi (3-5 kunligi) da fiziologik holat – siydik kislotasi kristallarini to'plovchi naychalar va so'rg'ichli kanallarga o'tirib qolishi natijasida buyrakning **nordon siydik infarkti** kuzatiladi. Bu davrda siydik kislotasi ko'p miqdorda ajraladi. Bunga sabab, moddalar almashinuvining katabolik kechishi va ko'p miqdorda hujayralarning nobud bo'lishi, asosan leykotsitlar, hisoblanadi. Hujayralar yadrolaridan ko'p miqdorda purinli va pirimidin (ulardagi metabolizmning oxirgi moddasi – siydik kislotasi) asoslari hosil bo'ladi. Bu davrda siydik loyqalanadi, qizg'ish tusga kirib, choyshabda dog'lar qoldiradi.

Kichik yoshli guruh bolalarida siydik chiqarish yo'llari devorlaridagi mushak va elastik to'qimalar etarli rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Buyrak jomchalari kattalarnikiga nisbatan kengroq, 5 yoshgacha buyrak sinuslari etarli darajada shakllanmaganligi tufayli ko'proq buyrak ichida joylashgan bo'ladi. Siydik nayi ulardan to'g'ri burchak ostida chiqadi.

**Siydik / nayida** egri-bugriliklar mavjud, tonusi past, nisbatan katta diametrga ega. Jomcha va siydik nayining bu anatomik xususiyatlari siydik passajini buzilishiga, dimlanishiga va keyinchalik esa yuqoridagi bo'laklarga mikrob-yallig'lanishli jarayonlar qo'shilishiga moyillik keltirib chiqaradi.

**Siydik pufagi** go'dak bolalarda kattalarnikiga nisbatan yuqoriroqda (simfiz ustida) joylashgan bo'lib, deyarli qorin bo'shlig'iga kirib turadi. Shuning uchun uni to'lib turganida kindik sohasi yoki undan yuqoriroqda osongina paypaslash mumkin. Yosh kattalashgani sayin siydik pufagi kichik tos bo'shlig'iga tushib boradi va kichik tosga joylashadi. Uning oldingi devori qorin pardasi bilan qoplanmagan, qorin bo'shligining oldingi devoriga tegib turadi. Siydik pufagi oval shaklga va yaxshi rivojlangan shilliq qavatga ega. Uning fiziologik hajmi chaqaloqlarda 50 ml atrofida, 1 yoshgacha – 100ml, 5-9 yoshda – 150-200 ml, 12-14 yoshda - 300-400 ml.

**Siydik chiqaruvchi kanal(uretra)** o'g'il bolalarda egri joylashgan. Ulardagi egrilik ayniqsa go'dak bolalarda kattalarnikiga qaraganda yaqqolroq. Bu xususiyatni siydik pufagini kateterizatsiya qilganda va tsistoskopiyada hisobga olish kerak. Uning uzunligi chaqaloqlarda 5-6 sm, yoshi kattalashgan sari uzunlashadi (12 sm gacha). Uning uzunligi qiz bola chaqaloqlarda 0,8-1 sm, 16 yoshda-3,3 sm. ni tashkil qiladi. Qiz bolalarda barcha yosh davrlarida ham o'g'il bolalarga qaraganda kalta va keng bo'ladi. Uretraning kaltaligi, orqa peshov(anus)ga yaqin joylashuvi infektsiya kirishiga qulay sharoit yaratadi. Shuning uchun ularni yuvish va artish old tomondan orqaga qaratib bajariladi. Hayotining birinchi kunlarida siyish akti siydik pufagi qitiqlanishiga javoban shartsiz refleks sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun kichik yoshdag'i bolalar tagiga siyadilar. Sharqli refleks hosil qilish uchun ma'lum shartlarga amal qilgan xolda ko'nikmani 3-4 oylikdan boshlab shakkantirish kerak. Buni albatta uxlab turganidan keyin tagi quruq uyg'ongan xollarda, ovqatlantirilganidan so'ng 15-20 daqiqa o'tkazib bajarish kerak. Bolani tuvakka o'tqazish mustaqil o'tira oladigan bo'lgach kuniga 6-7 marta bajarilishi kerak. Tuvakdan foydalanishga uyqudan oldin va uxlab turgandan so'ng odatlanishga o'rgatish muhim. Bunda tuvak

o'lchamlari tug'ri kelishi, sovuq bo'lmasligi kerak. Tuvakka o'tirishga doimiy odat 3 yoshidan boshlab mustaxkamlanadi. Ammo, bolani o'yinga berilib ketishi, kuchli his-hayajon, qo'rquv hattoki katta yoshdagi bolalarda ham beixtiyor siyib yuborishiga sabab b o'lishi mumkin.

**Go'dak bolalarda siydik yig'ish texnikasi quyidagicha:** o'g'il bolalarda tashqi jinsiy organ probirkaga kiritiladi, idish chetlari chov sohasi terisiga yopishqoq plastir yordamida maxkamlanadi. Probirkani bola oyog'i bilan ezilmasligi, shisha siniqlari bilan zararlanmasligi uchun oyoglari choyshab bilan o'raladi yoki krovat chetlariga bog'lab qo'yiladi. Siydik yig'ish uchun rezina prozervativlaridan ham foydalanish mumkin. Qiz bolalarda siydik yig'ishdan avval chotlarini yahshilab yuvish lozim. So'ng uni choyshab bilan o'ralgan rezinali aylanaga yotqiziladi, o'rta qismiga idish qo'yiladi. Bola aylanadan tushib ketmasligiga ahamiyat berish kerak. To'plangan siydikni toza idishga bo'shatiladi va laboratoriyyaga jo'natiladi.



Rasm 1. O'g'il bolada siydik toplash.

Siyish jarayoni hayotining birinchi oylarida tug'ma shartsiz spinal reflekslar hisobiga amalga oshadi. Bola o'sib rivojlangan sayin bu bosh miyaning po'stloq va po'stloq osti markazlari tomonidan boshqariluvchi erkin jarayonga aylanadi.

Sutka davomida siyishlar soni chaqaloqlarda (hayotining birinchi kunlaridan tashqari) – 20-25marta;

6 oydan 1 yoshgacha -15-16 marta;

3 yosha - 7-8 marta.

#### TEKSHIRISH USULLARI

Siyidik sistemasini tekshirish bola va uning ota-onasidan so'rov, ko'ruvdan o'tkazish, palpatsiya, perkussiya, tekshirishning laborator va instrumental usullarini o'z ichiga oladi.

**So'rov.** Bola va ota-onalarni so'rov qilishda quyidagi shikoyat va yomon hissiyotlarni aniqlash mumkin:

- qorin va bel sohasida og'riqlar;
- dizurik buzilishlar (tez-tez yoki kam, og'riqli siyish, siyidik turmasligi va siyidikni tutib qola olmaslik, enurez);
- shishlar, ba'zan ota-onalari bola massasi tez ortib borayapti, deb o'ylashadi;
- ba'zan bosh og'rig'i, bosh aylanishi, yurak sohasidagi og'riqlar bilan kechuvchi arterial bosimning ortishi;
- siyidik ko'rinishidagi (loyqalanish, cho'kmalar paydo bo'lishi, rangini o'zgarishi) va o'tkazilgan analizlaridagi o'zgarishlar;
- tana xaroratining «sababsiz» febril va uzoq subfebrilitetgacha ko'tarilishi;
- ko'rish va eshitish qobiliyatini buzilishi;
- dispeptik buzilishlar (ko'ngil aynishi, qayt qilish, ishtaxaning pasayishi, ich ketishi), ko'p chanqash, teridagi qichishishlar;
- kuchsizlik, bushashishlik, tez charchash, hordiq chiqmasligi, adinamiya, ozib ketish;

Shuningdek, kasallik anamnezini, oilaviy va allergik anamnez ma'lumotlarini aniqlash kerak.

Ko'ruv quyidagi patologik belgilarni aniqlashga imkoniyat beradi.

**Teri qoplanilarining rangparligi** (arteriolalarning spazmi yoki anemiyaning qo'shilishi natijasida); mum tusidagi rangparlik buyraklar amilaidozi uchun xarakterli bo'lishi; uremiyada terining sarg'imtirligi bilan kechuvchi rangparlik kuzatilishi (bunda terida qichishish va ekximozlar, tilni quruq bo'lishi va karash bilan qoplanishi, og'zidan yoki terisidan keluvchi ammiak hidini sezilishi).

**Yuz va qo'l-oyoqlardagi shishlar (yoki pastozlik).** Shishlar tarqoq(umumiyl), butun tana bo'y lab tarqalgan (anasarka) yoki suyuqlik ko'rinishida bo'shliqlarga: qoringa (astsit), plevra orasiga (gidrotoraks) va perikard bo'shliqlariga to'planishi mumkin. Bunda yuz va qovoqlardagi shishlar, ko'z kesimining torayib qolishi (fades nephritica), bo'g'im konturlarining

siyqalanishi, bel umurtqalarining lordozi, terida kiyimning botgan izlarini qolishini. Yashirin shishlarga guman bo'lganda Mak-Klyur-Oldrichning qavariqli sinamasi o'tkaziladi va bolani har kuni tarozida tortib boriladi.

**Qorinning hajmi va shaklini, chov va bel sohalari konturlarini o'zgarishlari.** Astsitsda qorin kattalashadi. Bolaning vertikal turganida osilib (suyuqlik pastga qarab oqadi) turgandek, kindigi esa do'mpayib chiqib (qorin ichi bosimini ortishi tufayli) turadi, gorizontal holatda esa yalpayib yonbosh tomonlar chiqib turadi («baqa qorni»). Chov sohasining do'ppayib turishi parafimoz, uretrada tosh turib qolishi natijasida kelib chiqqan o'tkir siyidik tutilishi sababli siyidik pufagining to'lib ketishi oqibatida bo'lishi mumkin. Belning zararlangan tomonda shish paydo bo'lishi paranefritda kuzatiladi.



Rasm 2. Buyrak palpatsiyasi.

Disembriogenez stigmalari bolalarda ko'pincha genetik nefropatiyalar, buyrak va siyidik yo'llari rivojlanishidagi nuqsonlarida uchraydi.

Siyish vaqtida bola hulqining o'zgarishi: ko'krak yoshidagi bolalar siyidik chiqarish paytidagi yoki siyganidan keyingi og'riqni chinqirish orqali bildiradilar. Siyidik pufagining giperreflektor shakldagi neyrogen disfunktsiyasida siyish vaqt uzoqqa cho'ziladi, siyidik chiqishi qiyinlashadi, bolalar siyishga ko'p marta

urinadilar, ko‘pincha qo‘llari bilan qorinning oldi devorlariga bosishga harakat qiladilar.

**Palpatsiya.** Bu usuldan shishlar, to‘qimalar postozligini aniqlashda foydalaniadi.


Buyraklar (ko‘proq o‘ng buyrak) 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarda (ayniqsa ozg‘in bolalar) o‘lchamlarining kattaligi va past joylashganligi uchun palpatsiyalanadi. Katta yoshdagi bolalarda esa buyraklar palpatsiyalanmaydi.

**Palpatsiya usuli:** bola chalqancha, oyoqlari biroz bukilgan holda yotqiziladi: tekshiruvchi chap qo‘lini patsientning beli ostiga barmoqlari bilan XII qovurg‘a va orqaning uzun muskullari orasidagi burchakka tayangan holatda o‘tkazadi; o‘ng qo‘lini o‘ng qovurg‘a osti sohasiga qorinning to‘g‘ri muskulining oldi va tashqarisiga qarab botiradi va qo‘llarni tutashtirishga harakat qilinadi (rasm 2 ).

Katta yoshdagi bolada buyraklarining palpatsiyalanishi ularni kattalashganligi yoki siljib qolganligidan dalolat beradi. Kattalashgan buyraklar yallig‘langanda, gidro-, pionefroz, polikistoz, o‘sma, yagona buyrakning vikar gipertrofiyasida palpatsiyalanadi. Ba’zan esa buyrak tushib turishi (nefroptoz), distopatsiyalangan yoki sayyor buyrak topiladi. Palpatsiyada og‘riqni sezish pielonefritda, paranefritda kuzatiladi. Buyrakda patologiya aniqlanmagan xollarda esa ularni palpatsiyalanishi qorin devori mushaklarini rivojlanishi anomaliyalarida kuzatilishi mumkin.

**Qorin palpatsiyasi** siydik yo‘llarida og‘riqni yoki o‘ta sezuvchanlikni bor yoki yo‘qligini aniqlash uchun qorinning oldingi devoridagi uning proektsiyasi bo‘lgan yuqori va pastki nuqtalari bo‘ylab bajariladi (rasm 3). Yuqori siydik oqimi nuqtasi kindik ustidan va qorinning to‘g‘ri muskuli tashqi chetlari bo‘ylab o‘tkazilgan chiziqlar kesishgan joyda; pastkisi - bispinal chiziqn ni qorinning to‘g‘ri muskulining tashqi qirg‘oqlari bo‘ylab o‘tkazilgan chiziqlar kesishgan joyda.

**Siydik pufagi palpatsiyasi** chov sohasida ikki qo'llab bir vaqtning o'zida bajariladi. Tekshirishdan avval siydik pufagi siydikdan bo'shatilgan bo'lishi kerak.



**Rasm 3. Siydik oqimlari nuqtalarining joylashish sxemasi.**

- 1-yuqori siydik oqimi nuqtalari;  
2-pastki siydik oqimi nuqtalari.

Bimanual palpatsiya bo'shagan siydik pufagida yumshoq konsistensiyali, o'rta chiziqdan lateral joylashgan divertikulni, shuningdek tosh, o'smalarni aniqlashga yordam beradi. O'tkir va surunkali siydik tutilishida siydik pufagi ba'zan yuqori chegarasi kindikkacha etuvchi elastik va flyutuatsiyalanuvchi hosila sifatida palpatsiyalanadi. Ko'krak yoshidagi bolalarda to'lib turgan siydik pufagi normada palpatsiyalanadi.

**Perkussiya.** Bel sohasiga urib ko'rish (Pasternatskiyning modifikatsiyalangan simptom) ni og'riq yoki noxush sezgilarni aniqlash uchun qo'llaniladi, bu sezgilar ba'zan oyoq yoki qorinning pastki yarmiga berilishi mumkin (bunda simptom musbat hisoblanadi).

**Bajarish usuli:** bel sohasiga chap qo'l kaftlari avval bir tomoniga, so'ng ikkinchi tomoniga qo'yiladi, ikkinchi qo'lning qirra tomoni bilan qisqa va uncha kuchli bo'limgan zARBalar bilan urib ko'riliadi (rasm 4). Urib ko'rish simptomini buyrak va buyrak oldi to'qimalarda yalliglanishli jarayonlari (pielonefrit, paranefrit va b.), siydik-tosh kasalliklarida musbat bo'ladi.

Perkussiya bilan chov ustida to'slib turgan siydik pufagining yuqori chegarasini aniqlash mumkin. Bu maqsadda chap qo'lning plessimetr-barmog'ini chovga paralell qo'yib qorinning o'rta chizig'i bo'ylab kindikdan boshlab pastga qarab tovush to'mtoqlashgunicha perkussiya qilib boriladi. Ushbu usul o'tkir siydik tutilishiga guman bo'lgan xollarda qo'llaniladi. Shuningdek, perkucciya yordamida qorin bo'shlig'idagi erkin suyuqlikni ham aniqlash mumkin.



**Rasm 4. Urib ko'rish simptomini aniqlash usuli**

**Tekshirishning laborator va instrumental usullari.**

Siydik analizi siydik sistemasi kasalliklarini diagnostika qilishda eng informativ test hisoblanadi. U siydikning fizikaviy xossalari, ximiyaviy tarkibini va cho'kma mikroskopiyasini o'z ichiga oladi. Tekshiriladigan siydik ertalab

yangi to'plangan (o'rta oqimidan olingan), analiz olishda tartib qoidalar (tashki jinsiy organlar tualeti sifatli bajarilgan) ga to'liq amal qilingan bo'lishi kerak. Chaqaloqlarda va ko'krak yoshidagi bolalarda bir martalik siydik yig'ishda yassi idishlardan yoki siydik yig'uvchi moslamalar (probirkalar, keng kolbalar) dan foydalaniadi (ayniqsa o'g'il bolalarda), ular chov sohaga mahkamlanadi.

Sog'lom bola siydiqi tiniq, tarkibida uroxromlar, uroblinoidlar, uroeritrin va boshqa moddalar borligi sababli samon-sariq rangda bo'ladi. Reaksiyasi kuchsiz kislotali (ammo, me'yordagi PH o'zgaruvchanligi 5,0-7,0), tarkibidagi uchuvchan yog' kislotalari hisobiga engil hidga ega. Nisbiy solishtirma og'irligi 1005-1028 ga teng bo'lib, bu bolaning yoshi va fiziologik sharoitlarda o'zgaruvchi suv yuklamalariga bog'liq. Me'yorda siydik cho'kmasida leykotsitlar soni o'g'il bolalarda 3-4 tadan, qizlarda 5-6 tadan ortmaydi, ba'zan eritrotsitlar (ko'rvu maydonida 0-1ta), gialinli tsilindrlar (me'yorda ko'rvu maydonida 1-2 ta). Sog'lom bola siydigida oqsil (yoki juda oz miqdorda- izlari), qand moddasi, tuzlar, o't kislotalari va bakteriyalar bo'lmaydi. Chaqaloqlar hayotining birinchi kunlarida bu davrdagi gemodinamikasining o'ziga xosligi sharoitida to'pchalar va kanalchalar epiteliyalarida o'tkazuvchanlikning yuqori bo'lishi hisobiga oqsil aniqlanishi mumkin (fiziologik albuminuriya). Bu holat 1-chi hafta oxiriga borib o'tib ketadi, 2-chi haftadan siydikdagi oqsil patologiya belgisi hisoblanadi.

Siydikning umumiyligi analizi siydik cho'kmasida o'zgarishlar to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni beradi, shuning uchun ularni aniqlash uchun miqdoriy test (Nechiporenko, Addis -Kakovskiy, bakteriuriyaning miqdoriy analizi)lari qo'llaniladi.

**Nechiporenko usuli:** 1 ml yangi (o'rta oqimdan) olingan 1 ml siydikda hujayra elementlarini sanash. Me'yorda leykotsitlar 0-2000, eritrotsitlar 0-1000 tani tashkil qiladi.

**Addis - Kakovskiy usuli:** 1 sutkalik siydik miqdorida hujayra elementlarini sanash (go'dak bolalarda siydik maxsus to'plagichlarga olinadi). Me'yorda leykotsitlar 0-2 mln, eritrotsitlar - 0-1 mln.

**Siydikni bakteriologik tekshirish.** Steril idishga to'plangan ertalabki siydik ekiladi. 24 soatdan so'ng natijalar sifat va miqdor jihatdan baholanadi. Qo'zg'atuvchining turi, uning antibiotik preparatlarga nisbatan sezgirligi aniqlanadi. Katta yoshdagi bolalar 1 ml siydigida  $10^5$  dan ortiq, chaqaloqlar va go'dak yoshidagi bolalarda esa  $10^3$ - $10^4$  dan ortiq mikrob tanachalari aniqlansa patologik bakteriuriya hisoblanadi.

**Buyrakning funktional sinamalari.** Tekshirish buyrak parenximasi strukturasidagi jarohatlar lokalizatsiyasi va ko'lamiga baho berishga imkon beradi.

Koptokchalar funktsiyasini qon zardobidagi kreatinin, mochevina miqdoriga qarab baholanadi, ya'ni azotni chiqarib yuborish, koptokchalar filtratsiyasi ko'lami, endogen kreatininni klirensi (Robergning modifitsirlangan sinamasi) ga qarab, ya'ni ushbu moddadan 1 min.da to'liq hosil bo'luvchi qon zardobining millilitrlardagi miqdoriga qarab aniqlanadi. I yoshdan katta bolalar uchun shu usul bilan ishlab chiqilgan koptokchalar filtratsiya me'yori: 80-120 ml/min x 1,73 m<sup>2</sup>, chaqaloqlarda esa 30-50 ml/min x 1,73 m<sup>2</sup>

Siydikning tug'ilgandan keyingi nisbiy zichligi nisbatan katta (1006-1018) bo'lib, go'daklik davrida 1003-1005, ya'ni pasayadi; yoshi katta bo'lgani sari yana ham kattalashadi va 3-5 yosha 1009-1016 ga teng bo'ldi.

Genle halqasi, distal kanalchalar va to'plovchi naychalar faoliyatini aks ettiruvchi buyrak kontsentratsion xususiyatini tekshirish - siydikning solishtirma og'irligini aniqlovchi bir martalik tekshirish va bir sutka davomida har 3 soatda (jami 8 portsiya) siydikning miqdori va solishtirma og'irligini aniqlashdan iborat bo'lib, bunda birinchi 4 tasi kunduzgi diurez va qolganlari – tungi hisoblanadi.

Kichik yoshdagи bolalarda Zimnitskiy sinamasi majbur qilmagan xolda, har siyganida siydik to'plash bilan o'tkaziladi. Sutkaning birinchi yarmi (9-00 dan 21-00 gacha) da to'plangan portsiyalar kunduzgi, ikkinchi yarmi (21-00 dan keyingi kunning 9-00 gacha) dagisi tungi hisoblanadi. Sutka davomida siydik nisbiy zichligini o'zgarishi me'yori: 1 yoshgacha – 1005-1016; kichik yoshdagи bolalarda 1010-1025; katta yoshdagи bolalarda – 1011-1028.

Sog'lom bolalarda kunduzgi va tungi diurez nisbati 3:1 – 4:1.

Maxsus testlar yordamida nefronning ayrim qismlarining partsial funksiyalarini tekshirish mumkin.

Zarurat bo'lganda bolada chuqurlashtirilgan, ultratovushli, endoskopiya (masalan, tsistoskopiya), rentgenologik (renografiya, ekskretor urografiya, angiografiya va boshqalar), radiologik (renografiya, nefrostsintografiya va b.) tekshiruvlar o'tkaziladi, shuningdek, siyidik organlarining anatomik va funksional holatlарини, томирлар архитектоникаси ва микроскопик структурасини aniqlashga imkon beruvchi nefrobiopsiya olinadi.

### **SIYDIK TIZIMI KASALLIKLARI SEMIOTIKASI**

Bolalarda ko'pincha siyidikdagi o'zgarishlar, og'riq, shish sindromlari, dizurik belgilari va arterial gipertensiya siyidik tizimi patologiyasidan dalolat beradi.

**Siyidik sindromi.**

**Siyidik rangi:**

- jigarrang-qizil («go'sht seli» rangi) - gematuriyada;
- o'ta tiniq (suvga uxhash) - har xil genezli poliuriyada, shu jumladan surunkali buyrak etishmovechiligida, chunki uroxromlar chiqarib turilmaydi;
- to'q, sariq-jigarrang («qo'yiq damlangan choy» ga o'xhash) - oliguriyada;
- ko'pikli («sariq ko'pikli pivo») jigar kasalliklarida yoki eritrotsitlar gemolizida o't pigmentlari miqdori ko'payib ketganida;
- to'q-jigarrang, oqsillarni tez parchalanib ketishiga sabab bo'luvchi kasalliklar (isitmalash, og'ir infektsiyalar, gipotireoz) da;

Siyidikdagi ba'zi dori moddalari ham uning rangini o'zgartirishi mumkin: atsetilsalitsil kislota, amidopirin siyidikni pushti-qizil ranga; furadonin, furagin, rifampitsin - olov rangiga; trixopol – to'q jigarrangga; xloroxin - och sariq rangiga; siyidikning sariq rangda bo'lishi ovqat mahsulotlari bilan karotin iste'mol qilinganda, pushti bo'lishi esa qizilcha istemol qilinganda kuzatiladi.

Siyidikning loyqaligi uning tarkibida katta miqdorda qonning shaklli elementlari, bujmaygan epiteliylar, tuzlar, shilimshiq, yog' tomchilarining borligi

tufayli bo'ladi. Siydikda yangi qon iviqlari siydik pufagining o'tkir yalliglanishli jarayonlarda paydo bo'lsa, mayda qon iviqlari esa buyrakning o'sma kasalliklarida paydo bo'ladi.

Siydikdan ammiak hidi kelishi obstruktiv uropatiyalardagi bakterial- ammiakli achishi natijasida, meva hidi (achigan olma hidi) ni kelib turishi esa uning tarkibidagi keton tanachalarining bo'lishi, masalan qandli diabetning og'ir shakllarida kuzatiladi.

**Siydik reaksiyasi** siydik yo'llari infektsiyalari (ayniqsa, siydik passajining buzilishi va infektsiyalangan siydikni to'planib uzoq turib qolishi), qayt qilish, buyrak kanalchali atsidozi, shuningdek meva va sabzavotlarga boy, ammo oqsillar kam bo'lgan ovqat ratsionlari iste'mol qilganda ishqoriy bo'lishi mumkin. Siydikning kislotalik (nordon) muhitini ortib ketishi qandli diabet, buyrak etishmovchiligi, buyrak tuberkulyozi va boshqalarda kuzatiladi. Nordon siydik uratli tuzlar hosil qilsa, ishqoriy siydik esa – kaltsiyli tuzlarni hosil qiladi.

Ko'pincha leykotsituriya, gematuriya va proteinuriya sifatida namoyon bo'lувчи siydik sindromi odatda nefro- yoki uropatiyaning ilk belgisi hisoblanadi.

**Leykotsituriya** – bu siydikda ko'p miqdorda ieykotsitlarning topilishi.

U siydik yo'llarida mikrob-yallig'lanishli jarayon (pielonefrit, tsistit, uretrit) lari va buyrak tubulointerstsial to'qimasi jarohatining asosiy simptomi bo'lib hisoblanadi. Birinchi holatda leykotsituriya neytrofilli xarakterga ega bo'ladi. Uning buyrakdan ekanligini shakli o'zgargan leykotsitlar (Shterngeymer – Malbin hujayralari) ning topilishi, faol leykotsitlar (tsitoplazmasida Broun harakati belgilari bor hujayralar) va leykotsitar tsilindrlar tasdiqlaydi. Ikkinci holatda (glomerulonefrita, irsiy va interstsial nefritlarda) leykotsituriya mononuklear xarakterda, ya'ni siydik cho'kmasida limfotsit va monotsitlar ko'p bo'ladi. Leykotsituriyani soxta deb atasa ham bo'ladi, chunki ularning manbaasi tashqi jinsiy a'zolarning mikrob - yallig'lanishli jarayonlari (vulvovaginitlar, balanopositlar va b.) hisoblanadi.

Siydikda eozinofillar allergik kasalliklarda paydo bo'ladi.

**Bakteriuriya** (siyidikda bakteriyalar bo'lishi) leykotsituriya bilan birgalikda siyidik yo'llari infektsiyasidan dalolat beradi. Ko'pineha siyidik ekmasida ichak tayoqchasi, proteyning turli shtamplari, ko'k yiring tayoqchasi va boshqa grammansiy mikroorganizmlarni, ba'zan gramm musbat florani topish mumkin.

**Epitelial hujayralar** siyidikka siyidik va jinsiy organlar sistemasining har xil bo'limlaridan tushishi mumkin. Oraliq epiteliylarning bo'lishi jomchalar va siyidik pufagidagi yallig'lanish jarayoniga, buyrak kanalchalaridagi prizmali epiteliylarning bo'lishi esa buyrakning o'tkir va surunkali patologik jarayonlari (glomerulonefrit, qizil yugurikdagi nefrit va b.), isitmalash holatlari, intoksikatsiyalar, infektionsion kasalliliklarga hos. Chaqaloqlar va pubertat yoshidagi qizlar siyidigida ba'zan muguzlangan epithelial hujayralari topiladi, bular estrogenlar ta'sirida paydo bo'ladi.

**Gematuriya** – siyidikning ertalabki portsiyasida eritrotsitlarni k/m 3 tadan ortiq, yoki Nechiporenko sinamasida 1000 tadan ortiq bo'lishi .

Bu buyrak to'pehalari, tomirlar va kamroq hollarda tubulointerstisial to'qima shikastlanganidan dalolat beradi va glomerulonefrit, IgA-nefropatiysi, irlsiy va interstisial va ikkilamchi nefritlar, dizmetabolik nefropatiya, buyrak tomirlari anomaliyalarida, gemorragik tsistiylar, pielonefritlar, siyidik-tosh kasalligida, gemolitiko-uremik sindromda, tuberkulyoz, buyrak o'smalarida uchraydi.

Gematuriyaning namoyon bo'lishi turli bo'ladi. Agar uni faqat siyidik cho'kmasida mikroskopiya yordamida aniqlansa, bu mikrogematuriya, makroskopik, ya'ni ko'z bilan sezilarli bo'lsa (siyidik rangi gemoglobinni nordon-shirali gematinga aylanishi hisobiga qo'ng'ir, «go'sht seli» yoki «qora kofe» ko'rinishi, ) – bu makrogematuriya hisoblanadi . Oxirgisi ko'proq o'tkir glomerulonefrit, gemorragik vaskulit, gemorragik tsistitda kuzatiladi.

**Proteinuriya** – siyidikda oqsilni aniqlanishi (sutkada 100 mg dan ortiq). Bu proksimal kanalchalarni zardob oqsillarini reabsorbsiyalovchi funksional xususiyatini buzilishi, koptokchalar kapillyarlarining bazal membranasida o'tkazuvchanligini ortishi natijasida bo'ladi.

U to'pcha kapillyarlari basal membranasini shikastlanishi natijasida o'tkazuvchanligi ortishi, proksimal kanalchalarining zardob oqsillarini reabsorbsiyalash funksional xususiyatining buzilishi natijasida paydo bo'ladi.

**Nefrotik sindrom** - simptomokompleks bo'lib, yuqori proteinuriya (sutkada 3g dan ortiq), gipoproteinemiya va sezilarli darajadagi shishlarni o'z ichiga oladi. Turli genezli, orttirilgan (glomerulonefritlar, tizimli qizil yugurik, dermatomiozit, gemorragik vaskulit, ikkilamchi amiloidoz, limfogranulematoz, tuberkulyoz), tug'ma (buyraklar mikrokistozi, yurakning tug'ma nuqsonlari va b.) va irsiy (oilaviy nefrotik sindrom va b.) kasalliklardan so'ng rivojlanadi.

Proteinuriyanı siydik cho'kmasidegi boshqa o'zgarishlar bilan birga uchrashi ko'proq birlamchi va ikkilamchi nefritlarga xos. Uning selektiv bo'lmagan xususiyati, siydikda faqat albuminlar emas, balki, yirik dispersli oqsil fraktsiyalari aniqlangan hollarda buyrakning og'ir zararlanganligidan dalolat beradi.

Faqat proteinuriya bilan, ya'ni siydik cho'kmasidegi boshqa o'zgarishlarsiz, koptokchalarda esa juda kam o'zgarishlar bilan kechish glomerulonefrit (idiopatik nefrotik sindrom) ga, hamda buyrak amiloidoziga xos.

Sog'lom bolalarda, ayniqsa o'smirlik davrida ortostatik proteinuriya kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar uzoq vaqt yurganda yoki tikka turib qolganida paydo bo'lib, gorizontal holatda yo'qoladi; Bundan tashqari idiopatik(vaqtinchalik) proteinuriya va ortiqcha kuchanish, yoki keskin jismoniy yuklamalardan so'ng paydo bo'lувчи proteinuriya (odatda bunday hollarda sutkasida 1 g.dan ortmaydi) lar uchrashi mumkin. Buyrak bilan bog'liq bo'lmagan proteinuriyalar ham uchraydi.

**Tsilindruriya** – siydikda tsilindrler (kanalchaldagi oqsil va hujayrali hosilalar) bo'lishi. Tsilindrlerning gialinli, donador va mumsimon xillari farqlanadi. Oxirgi ikki xilining topilishi buyrakning og'ir zararlanganligidan dalolat beradi.

**Kristalluriya** – siydikda tuz kristallari (uratlar, oksalatlar, fosfatlar)ning p aydo bo'lishi. Kristaluriya sog'lom bolalarda ham kuzatilishi mumkin. Bu

ovqatlanish xususiyatiga, suyuqlikni kam iste'mol qilish yoki jismoniy yuklamalarda ekstrorenal yo'qotishlar, issiq iqlim sharoitlariga bog'liq holda sodir bo'ladi. Kristaluriya siydik cho'kmasidagi o'zgarishlar, yoki gematuriya bilan birga kuzatilsa, bu dizmetabolik nefropatiya va siydik tosh kasalligiga xos.

**Glyukozouriya** – siydikda qand moddasini töpilishi – bolalarda qandli diabet, kanalchalarining genetik va orttirilgan patologiyasida kuzatiladi.

**Ketonuriya** – siydikda keton tanachalari (atseton, atsetosirka va beta-oksimolyar kislota) isitmalash yoki och qolish, tez-tez quish oqibatida almashinuv jarayonlarining buzilishi natijasida paydo bo'ladi. Shuningdek, u qandli diabetning simptomni ham bo'lishi mumkin.

**Oliguriya** (diurezni me'yordan 20-30% gacha kamayishi) yoki anuriya (me'yordan 6-7% atrofida) buyraklarda siydik hosil bo'lishini kamayishi yoki butunlay ajralmay qolishi bo'lib, u koptokchalar filtratsiyasini keskin kamayishi, nerv-reflektor spazm yoki siydik yo'llarida uning oqimiga to'siqlar natijasida kelib chiqishi mumkin. Ko'pincha bu simptomlar o'tkir buyrak etishmovchiligi (O'BE) rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Shuningdek oliguriya kam suyuqlik iste'mol qilinganda, isitmalash bilan kechuvchi kasallikkarda nafas orqali suyuqlik yo'qotilishi natijasida, quish, ich ketishi, ko'p terlashda ham kuzatiladi.

Chaqaloqlarda 48 soatdan ko'p vaqt davomida anuriya kuzatilsa siydik yo'llari anomaliyalari: ikki tomonlama agneziya, buyrak polikistozi, obstruktiv nefropatiya va boshqalarga tekshirish kerak.

**Poliuriya** sutkalik siydik miqdorining me'yorida 1,5 marta va undan ham ortib ketishi. Fiziologik hollarda poliuriya ko'p miqdorda suyuqlik iste'mol qilish (polidepsiya), sovuqqotishning oqibati bo'lishi mumkin. Bundan tashqari qandli diabetti, surunkali buyrak etishmovchiligi (SBE) va O'BE (diuriya fazasida, rekonvalistentlarda) gi bor, hamda isitmali jarayonlardan so'ng, shishlari qaytayotgan bemorlarda kuzatiladi.

**Nikturiya** – tungi diurezni kunduzidan ko'p bo'lishi buyrak faoliyatining susayishi natijasida ishlab chiqarish jarayonini cho'zilishi oqibatida kelib chiqadi.

**Buyrak etishmovchiligi (BE)** - azotemiya ko'rinishida namoyon bo'lib, qonda azot metabolizmi modda(unsur)lari – kreatinin, mochevinaning to'planishi, shuningdek kislota-ishqor muhiti, suv-elektrolitlar balansining o'zgarishlari, ya'ni gomecostazni me'yorashtiruvchi faoliyatining buzilishi bilan kechadi.

**O'tkir buyrak etishmovchiligi (O'BE)** sabablari bevosita **buyrak faktorlari** (o'tkir glomerulonefrit, tizimli vaskulitlardagi nefritlar, gemolitiko-uremik sindrom, buyrak tomirlari trombozi; nefrotoksiq moddalar ta'siri: rentgenokontrast moddalar, dori vositalari, masalan, sulfamilamid, antibiotiklar ta'siri), **prerenal** (mos kelmagan qonni quyish natijasida gemoliz va mioliz, keng ko'lardagi kuyishlar, shok holatlarda va o'tkir qon yo'qotishlarda arterial bosimni pasayib ketishi, og'ir oshqozon ichak tizimining og'ir kasalliklarida suv yo'qotilishi, diuretik va qabziyatni yumshatuvchi dori-darmonlar noto'g'ri qo'llanilganda) bo'lishi mumkin.

**Surunkali buyrak etishmovchili (SBE)** - buyrakning surunkali kasalliklari: glomerulonefrit, pielonefrit, displaziya, polikistoz va boshqalar natijasi bo'lishi.

**Siydik nisbiy zichligining o'zgarishi** buyrakning kontsentratsiyalash va siydikni eritish xususiyatini buzilganligini bildiradi.

**Gipostenuriya** – siydikning maksimal zichligi 1008 va undan pastni tashkil qiladi. Ko'pincha holatlarda u poliuriyaga hamroh bo'ladi va fiziologik va patologik holatlarda kuzatiladi. Gipostenuriyani poliuriya va nikturiya bilan birga kechishi buyrakning funktsional etishmovchiligiga hos.

**Izostenuriya** – siydikning nisbiy zichligi 1010-1012 chegarasida, ya'ni, u qon zardobining oqsilsiz filtrati zichligiga teng. Izostenuriya buyrakning ko'pgina surunkali kasalliklarining so'ngi bosqichi bo'lgan og'ir nefrosklerozda kuzatiladi.

**Siydik nisbiy zichligining katta** (1030 va undan yuqori) bo'lishi suyuqlikni kam iste'mol qilish, tashqi atmosfera havosining issiq bo'lishi, qandli diabetda uchraydi.

**Og'riq sindromi** tez-tez uchrab turadi. Bu buyrakni qon bilan ta'minlanishdag'i o'ziga xoslik, buyrak to'qimasida haddan ziyod shoxlanib joylashgan vegetetiv tarmoq turining mavjudligi, buyrak kapsulasining nerv

tolalariga boyligi bilan bog'liq. Og'riq sindromi buyrak kapsulasining ezilishi yoki taranglashishi va jomchalaryning qitiqlanishi bilan bog'liq. Patologik jarayon buyrakdan tashqariga o'tganida esa (peri - va paranefritlar, o'smani o'sib ketishi va b.) og'riq buyrak oldi to'qima retseptorlarining ezilishi yoki qitiqlanishi bilan chiqariladi.

**Qorinda og'riq**, kamroq xollarda beldagi og'riq, ba'zan siyidik oqimi bo'ylab tarqaluvchi, sust yoki hurusimon og'riqlar pielonefritga xos. Ular ko'pincha glomerulonefritda, siyidik tosh kasalligida makrogematuriya bilan birga uchraydi. Qorinda o'tkir og'riqlar esa buyrak tomirlari trombozida kuzatiladi.

**Beldagi og'riqlar**, qorinning biqin sohasidagi og'riqlar, chov sohasiga va jinsiy a'zolar sohasiga tarqaluvchi og'riqlar, to'satdan, kuchli, sanchiqli og'riqlar buyrak kolikasiga xos. Sust og'riqlar, bel sohasi yoki qovurg'a ostining og'irlashuvi gidro- va pionefroz, buyrak o'smasi uchun xos.

**Chov usti sohasidagi og'riqlar** siyidik pufagi kasalliklari bilan bog'liq. O'tkir og'riqlar tsistitga, siyidik pufagi tosh kasalligiga xos bo'lib, siyish paytida kuchayadi. Sanchiqli og'riqlar siyidik chiqarish kanalining strikturasi yoki tosh bilan to'silib qolishi natijasida siyidikni o'tkir tutilib qolishi natijasida kuzatiladi.

**Dizurik buzilishlar** - siyish jarayonining buzilishlari (tez-tez, og'riqli siyish, siyidikni tutib yura olmaslik yoki to'xtatib qola olmaslik, siyidik tutilishi). Ularning paydo bo'lishi siyidik pufagi va quyi siyidik yo'llari shilliq qavatidagi yallig'lanishli o'zgarishlar, siyidik chiqarish va jinsiy tizim rivojlanishi nuqsonlari bilan bog'liq siyidik pufagining periferik markazlaridan tortib bosh miyaning markazlarigacha bo'lgan nerv yo'llarining turli kesimlaridagi jarohatlar bilan bog'liq.

**Tez-tez**, kam miqdorda – «**tomchilab**» siyish (pollakiuriya) quiyi siyidik yo'llari infektsiyalariga, siyidik pufagining neyrogen disfunktsiyasiga xos. Birinchi holatda siyish og'riqli bo'lib, ba'zan oxirida kuchli achishish kuzatiladi (masalan o'tkir tsistitda).

Siyish vaqtida bel sohasi va qorinning biror yarmida o'tkir yoki sust, tarqaluvchi og'riqni bo'lishi – pufak-siyidik oqimi reflyuksi belgisidir.

**Siydikni tutib tura olmaslik** (siyishga xohish kelmasa ham siydik ajrab turadi) va **siydikni tutib tura olmaslik** ( siyishga hohish kelishi, ammo uni to'xtatib qola olmaslik) surunkali tus olgan tsistitlarda, siydik pufagining neyrogen disfunktsiyasining giperreflektor shaklida, orqa miya jarohatida, siydik ravog'ining uretra va bachadon qiniga ektopiyasida, siydik pufagi ekstrofiyasida, pufak-rektal va uretra-rektal svishlarda kuzatiladi.

**Enurez** (tunda siyb qo'yish) nerv tizimining organik jarohatida, shuningdek, siydik tizimini nuqsonli rivojanishi va yallig'lanishli kasalliklarida kuzatiladi.

**Siydik tutilishi (ishuriya).** O'tkir ishuriya parafimozda, uretrada tosh bo'lganida, uretrani travma natijasida uzilib ketganida kelib chiqadi.

Surunkali ishuriya, siydikni ancha vaqtidan so'ng kechikib bir necha urinishlardan so'ng, uzilib-uzilib chiqishi siydik pufagi neyrogen disfunktsiyasining giporeflektor shakliga, uretrogidronefrozga, pufak-siydik oqimi refluyksiga xos.

Siydik tizimi kasalliklarining eng ko'p uchraydigan **ekstrorenal belgilariga** shish va arterial gipertenziya kiradi. Shishlar gipoproteinemiya, gipernatriemiya, kapillyarlar devorida o'tkazuvchanlikni diffuzli ortib ketishi, ba'zan siydik ajralishimi to'xtab qolishi (masalan, shokda, qon yo'qotilishida ; chunki gipovolemiyada buyraklarda qon aylanishi kamayadi).

Shishlar o'tkir va surunkali glomerulonefritlarga, buyrak amiloidoziga, boshqa genezli nefrotik sindromga xos.

Buyrak sababli kelib chiqqan arterial gipertenziya natriy va suv ushlanib qolishi tufayli kelib chiqqan gipervolemiya, pressor tizim (renin-angiotenzin-aldesteron va simpatiko-adrenal) faoliyatining kuchayishi va depressor tizim faoliyatini pasayishi natijasi hisoblanadi. Bu tug'ma gipoplaziyada, ikkilamchi buyrak bujmayishida, glomerulonefritlarda, buyrak katta arteriyalarining torayib qolishida kuzatiladi.

O'tkir glomerulonefrit va surunkali glomerulonefritning hurujlari ko'pincha buyrak eklampsiyasi bilan kechadi. Bu miya tomirlari spazmi va uning

shishib ketishi natijasida kelib chiqib, klonik-tonik talvasalar, ulardan oldingi qisqa muddatli darakchi belgilar va deyarli doimiy arterial gipertensiya bilan kechadi.

Dispeptik belgilar o'tkir pielonefritda, ayniqsa go'dak bolalarda, buyrak etishmovchiligidagi kuzatiladi

## II BOB

### SIYDIK YO'LLARI INFEKTSIYALARI

**Siydik tizimi infektsiyalari (STI)** – siydik tizimi organlarining yallig'lanish jarayoni bo'lib, aniq lokalizatsiyasi va o'ziga xos belgilariga ega emas.

**Siydik chiqarish yo'llari infektsiyasi (SCHYI)** – siydik yo'llari (siydik nayi, siydik pufagi, uretra) dagi yalliglanishli jarayon bo'lib, buyrak parenximasini jarayonga tortilmaydi. Bemorlarning 10-20% ida jarohatlanish og'irligi va uning joylanishini aniqlash imkoniyati bo'lmaydi.

SCHYI birlamchi kasallik bo'lishi yoki boshqa bir organda kechayotgan infektsiyali yallig'lanish kasalligi natijasida rivojlanishi mumkin. Masalan, ORVI yoki pnevmoniya, bakterial diareya avj olganda bemorda leykotsituriya, bakteriuriya va kam miqdordagi proteinuriya topiladi, ratsional davolash davomida bu belgilar yo'qoladi.

Diagnostik jihatdan bakteriuriya bo'lib hisoblanadi: siydikda bir xil mikroorganizmlar koloniysi: 1ml siydikda 100 000 koloniylar;

- kateter yordamida olingen 1 ml siydikda 1000 koloniylar;
- chov usti sohasidan punktsiya yo'li bilan olingen 1 ml siydikdagidagi mikroorganizmlarning har qanday miqdordagi koloniylari;

**Ta'kidlanishicha, piuriya (neytrophillik leykotsituriya) SCHYI ning nospetsifik belgisi bo'lib, ba'zan kuzatilmasligi ham mumkin. Bunday hollarda asimptomatik bakteriuriya to'g'risida so'z yuriladi.**

SCHYI uchun xos bo'lgan klinik simptomokompleks bo'lib, intoksikatsiya sindromilari (biror bir sababsiz tana haroratining ko'tarilishi, teri qoplamlaridagi rangparlik, xatti-harakatlardagi o'zgarishlar, ishtahaning

pasayishi, dispeptik buzilishlar va b.), dizuriya (tez-tez og'riqli siyish va b.) va qorinda og'riq sindromlari hisoblanadi.

SCHYI bemorning yoshiga qarab turlicha bo'ladi (tabl.).

**Siydik yo'llari infektsiyasi belgilarining yoshiga mos ravishda uchrashi  
(Sheldon S.A. va Vaksman DJ.,1997)**

Simptom	0-loy	1-24oy	2-5yosh	5-12yosh
O'sishdan ortda qolish, ozg'inlik	535	365	75	0
Sariqlik	44%	0	0	0
Bezovtalik, injiq	0	13%	7%	0
Loyqa va hidli siydik	0	9%	13%	0
Diareya	18%	16%	0	0
Qayt qilish	24%	29%	16%	3%
Isitmalash	11%	38%	57%	50%
Talvasalar	2%	7%	9%	5%
Gematuriya	0	7%	16%	8%
Tez-tez siyish, dizuriya	0	4%	34%	41%
Enurez	0	0	27%	29%
Qorinda og'riq	0	0	23%	30%
Belda og'riq	0	0	0	0
O'g'il va qiz bolalar nisbati:	3:1	1:1	1:10	1:10

#### **Tarqalishi**

SCHYI maksimal ko'p uchrashi chaqaloqlik davrida kuzatiladi. A.V.Papayan va hammuall. (1997) 1762 chaqaloqni tekshirganda 2,4% bolada SCHYI diagnostika

(1,9% — simptomatik va 0,5% — asimptomatik) qilindi, o'g'il bola chaqaloqlarda ko'proq aniqlandi. Ularning ma'lumotlariga ko'ra , hayotining birinchi oyida SCHYI o'g'il bolalarda kamayadi, 1-2% go'daklik davrida, 0,5% - maktabgacha yoshda - 0,5% va prepubertat yoshda - 0,1% ga etadi. Hayotining birinchi yili oxiriga kelib SCHYI qiz bolalarda o'g'il bolalardagidan ko'proq uchraydi, 2 yoshdan boshlab - taxminan 9-10 marta ko'proq. Avtorlar fikricha, SCHYIsini qiz bolalarda uchrashi shu yoshdagagi qizlar soniga nisbatan olganda: hayotining 1-chi yili – 2,7%, maktabgacha yoshda – 4,7%, maktab yoshida – 1,2%ga teng.

Ta'kidlanishicha, chaqaloqlik va go'daklik davrida SCHYIning eng ko'p chaqiruvchi E. coli hisoblansa, maktab yoshidagi 30% qiz bolalar siydigidan turli stafilokokklar ekip olinadi, o'g'il bolalardan esa – protey.

SYI va SCHYI ni kelib chiqishida yoshga va jinsga bog'liq moyillik tug'diruvchi faktorlardan tashqari yana siyishni buzilishlari, xususan neyrogen siyidik pufagi, pufak-nay refluyksi, siyidik tizimining rivojlanishi nuqsonlari, surunkali qabziyat, fimoz, immun statusi (bolalarda retsidiylanuvchi SYI va SCHYIda siydkidagi IgA kamaygan, va 90% bemorlarda R-fibriya qon guruhining R-fenotipi bo'ladi) ham muhim ahamiyatga ega.

#### Tsistit

Siydik pufagiga infektsiya quyidagi yo'llar bilan kirishi mumkin:

- 1) buyrakdan pastga tushishi;
- 2) yuqoriga ko'tarilib – siyidik chiqaruv kanalidan;
- 3) gematogen;
- 4) kontakt (kamroq xollarda);

#### Etiologiya

Siydik yo'llarining qizlardagi anatomo-fiziologik xususiyatlari (keng va qisqa siyidik chiqaruv kanali) ularni tsistit bilan o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq og'rishiga moyil qiladi, bunda infektsiyani ko'tarilish yo'li ustunlik qiladi. Gigienik rejimga amal qilinmaganda yoki ichak disfunktсиyalarida, bola uzoq vaqt najas bilan ifloslangan choyshabda uzoq vaqt qolib ketganida mikrob floralarini siyidik chiqaruv kanali orqali kirish extimoli katta bo'ladi. Tsistitlarni kelib chiqishida ostritsalar ham muhim rol o'ynaydi: bola uyquda bo'lganida uretraga, yoki siyidik pufagiga o'rmalab, o'zi bilan infektsiya olib kiradi.

Allergik yoki virus etiologiyali nobakterial tsistitlar ham ma'lum. Adenovirusli infektsiyalar (11-chi va 21-chi tiplar)ni dori-darmonlar bilan davolashda (masalan, geksametilentetramin, yoki tsitostatiklar — tsiklofosfan bilan) uning asorati - gemorragik tsistitlar ham kuzatiladi. Sovuqqotganda (sovug suvda cho'milish va b.) qizlarda ko'pincha tsistit rivojlanishi ham ma'lum.

Chuvalchangsimon o'simta tosda joylashgan xollarda appenditsit bo'lsa ham tsistit rivojlanishi mumkin.

Afsuski, 90-chi yillarda katta maktab bolalarida spetsifik etiologiyali - gonoreyali, trixomonadli, xlamidiyalı tsistitlar ko'paydi.

#### Klassifikatsiya

**Kechishiga ko'ra:** o'tkir va surunkali tsistitlar ;

**etiologiyasiga ko'ra:**

infektsiyali(spetsifik va nospetsifik), ximiyaviy, termik, dori-darmonli, allergik, radiatsiyali, operatsiyadan keyingi, parazitar; **tarqalganligiga ko'ra:** diffuz va o'chog'li (bo'yinda joylashgan, trigonit); **tsistoskopiyadagi morfologik o'zgarishlar xususiyatiga ko'ra:** kataral, gemorragik, yarali, granulyatsiyali, fibrinoz, nekrozli (gangrenoz), flegmonozli, polipozli, kistozli, interstsial bo'ladi.

#### Klinik manzarasi

**O'tkir tsistit.** Kasallik bolaning bezovta xatti-harakatidan boshlanadi. Chov sohasidagi og'riq, dizurik belgilar: siyishga imperativ qistovlar, tez-tez, oz-oz, og'riqli siyish (pollakiuriya) paydo bo'ladi. Ba'zan siydikni tutib tura olmaslik paydo bo'ladi. Agar bola kichkina bo'lsa, siyish og'riqli ekanini ayta olmasa ham, dizurik belgilarni uning tez-tez siyayotganidan, yig'lab bezovtalanganidan keyingina tagi ho'llanayotganidan ham sezish mumkin. Siydik – loyqa, ko'pincha qizg'ish bo'ladi.

O'tkir tsistitning **kechishi** turli – engil, yaqqol ifodalanmagan simptomlidan intoksikatsiya, isitmalash bilan kechuvchi formalarigacha bo'lishi mumkin.

3-5 kun ichida ahvoli yahshilanadi va siydik me'yoriga qaytadi. Agar to'g'ri davolanganda 2-3 hafta davomida siydik me'yoriga qaytmasa urologik tekshiruvlar va vena ichi urografiyasini o'tkazish kerak.

**Surunkali tsistit** odatda o'tkir tsistitni noadekvat davolash, bolada siydik ajratish tizimining tug'ma va orttirilgan kasalliklari (rivojlanish nuqsonlari, siydik pufagi devori va kichik tosda qon aylanishining buzilishlari, kristalluriya va b.) natijasida kelib chiqadi. Moyillik tug'diruvchi faktorlar uzoq muddatli, og'ir somatik infektsion kasalliklar, gipovitaminozlar, gipotrofiyalar, ekssudativ-kataral va limfatiko-

gipoplastik konstitutsiya anomaliyalari, irsiy va orttirilgan immunodefitsitlar bo‘lishi mumkin. Surunkali tsistitlar ko‘pincha ikkilamchi, shuning uchun klinik manzarasida asosiy kasallik belgilari namoyon bo‘ladi. Klinik manzarasiga ko‘ra surunkali tsistitlar kam simptomli (latent) va retsidiylanuvchi bo‘ladi. Sovuqqotishlar retsidiylanishni, interkurrent infektsiyalarni va asosiy kasallikning qaytalanishini chaqiradi. Retsidiylanishning klinik manzarasida asosan o‘tkir tsistitning bitta yoki ikkita asosiy belgilari – ko‘proq siyishga imperativ qistov, pollakiuriya, siydikni tuta olmay qolishni kuzatish mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, surunkali tsistit bilan og‘rigan bolalarning aksariyatida VUR bo‘ladi, 82-92% bolalarda surunkali tsistit pielonefrit bilan birga uchraydi.

**Asoratlari :** VUR, PEN, siydik chiqaruv kanali distal qismining stenozasi, siydik pufagi bo‘yinchasining sklerozi, paratsistit, siydik pufagi devorining perforatsiyasi, peritonit.

#### **Diagnostikasi**

Diagnoz siydikni loyqa, ba’zan yallig‘lanish jarayonining og‘ir kechishidan dalolat beruvchi yangi qon laxtalari bilan chiqishiga asoslanib qo‘yiladi. Siydikda oqsil izlari, ko‘p leykotsitlar va mikroblar (ba’zan yangi eritrotsitlar) topiladi. Bundan tashqari, siydik cho‘kmasida ko‘p miqdorda yassi epiteliylar bo‘lishi mumkin. Siydik ekmasida shartli patogen mikroflora aniqlanadi.

Bolalarda tsistitni siydikka leykotsitlarning bir oz miqdori tushishi mumkin bo‘lgan vulvit, trixomonadli vulvovaginit(qizlarda) va fimoz, balanit (o‘g‘il bolalarda) bilan differentsiysi qilinadi. Bu kasallikkardan ajratish uchun bolaning jinsiy a’zolari diqqat bilan ko‘zdan kechiriladi.Vulvitda vulvaning qobig‘i qizargan bo‘ladi, choyshabda ko‘pincha ajralmaning dog‘lari qoladi. Siydik pufagidan steril kateter bilan olingan siydikning uchta portsiyasini tekshirish («uch stakanli sinalma») uzil-kesil hal qiladi. Agar leykotsitlar siydikka vulva yoki qindan tushib qolgan bo‘lsa, siydik pufagidan kateter orqali olingan siydikda ular bo‘lmaydi.

Tsistitda gematuriya -«terminal», ya’ni uchinchi stakanda bo‘ladi, chunki siyish jarayonida qisqarish natijasida yallig‘langan va xilvirab qolgan shilliq

qavatdan qon siyidikka sizib chiqadi. Total gematuriya gangrenoz va nekrotik tsistitalarda kuzatiladi. Gemorragik tsistitlarda siyidik rangi go'sht selini eslatadi. Tsistitda eritrotsitlar-«yangi», ya'ni ishqoranmagan bo'ladi.

SYI bor 5 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarda nur yordamida tekshirishlar – birinchi navbatda UTT (siyidik yullaridagi katta anomaliyalarni topish) va miktsion tsistouretrogramma (bo'lishi mumkin bo'lgan pufak-nay reflyuksini aniqlash) o'tkaziladi. Agar tekshirishlar natijasida patologiya aniqlanmasa, keyingi tekshirishlarga vaqtincha ko'rsatma yo'q. Ammo, buzilishlar aniqlansa, tekshirishlar davom ettiriladi – vena ichi urografiysi va buyrak skayneri qilinadi.

Ba'zan PEN bilan **differentsial diagnoz** o'tkazish qiyin va faqatgina bemorni dinamik kuzatish bilangina erishiladi. Quyidagi holatlar inobatga olinishi kerak: tsistitda siyidik portsiyasidagi yiring cho'kmaga tez o'tiradi va undan yuqoriga chiqqan siyidik ancha tiniqlashadi, ba'zan tiniq xolga keladi. PENDa siyidik diffuz loyqa va siyidik uzoq turganda ham cho'kma tepasi tiniqlashmaydi. Tsistitda siyidik pufagi yuvilgach olingen siyidik analizida o'zgarishlar topilmaydi yoki bulsa ham juda oz bo'ladi. PENDa esa siyidik cho'kmasi dinamikasida o'zgarish bo'lmaydi.

Dizurik buzilishlar chuvalchangsimon o'simtaning qorin bo'shlig'i orti retrosekal va tosda joylashgan xollarda o'tkir appenditsitning birinchi belgisi bo'lishi ham mumkin. Appenditsitning bu shakllarida differentsial diagnoz o'tkazishda qiyinchilik shundan iboratki, tos va qorin bo'shlig'i orti, retrosekal appenditsitida palpatsiyada og'riq va qorin muskullari tarangligi uzoq muddat kuzatilmaydi, Shetkina— Blyumberga simptomi manfiy bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda bo'shliq orti retrosekal appenditsitda bel sohasi palpatsiya qilinganda o'ng tomonda mushaklar tarangligi va kuchli og'riq, Goldflam— Pasternatskiy simptomi musbat bo'ladi. Tos appenditsitida dizurik belgilar bilan bir vaqtda shilimshiq va qon aralash suyuq najas kelishi paydo bo'ladi. Diagnozni to'g'ri qo'yishda barmoqli rektal tekshirish katta yordam beradi, bunda o'ng tomonda og'riq yoki infiltrat topiladi.

Granulyar tsistitda tuberkulyozga chuqr tekshirish o'tkaziladi.

#### **Davolash**

Tsistitda rejim yarim yotoq bo‘lishi kerak . Bola siyganida og‘riq kuchli bo‘lganda uni 0,02% furatsilin eritmasi yoki (10 : 1000) moychechak damlamasi quyilgan issiq vannalarga o‘tkazilsa holati yahshilanadi. Vannalar vulvovaginitlarda ham tавсиya qилинади. Fizioterapiya muolajalaridan siydiq pufagi sohasiga UVCH, SVCH тавсиya qилинади. Diurezni kuchaytirish va siydiq yo‘llarini yuvilishini yahshilash maqsadida bolaga ko‘p miqdorda suyuqlik ichirish тавсиya qилинади (shakarli choy va vitaminli sharbatlar). Parhez odatiy, ammo ekstraktiv vaachehiq mahsulotlar chegaralanadi. Mineral suvlarni buyurish maqsadga muvofiq. Agar kasallik og‘ir, anoreksiya, qayt qilish va suvsizlanish bilan kechsa, suyuqlik (2 qism 5% li glyukoza va 1 qism Ringer eritması) vena ichiga tomchilatib yuboriladi. Antibiotiklar (ampioks, amoksatsillin, zinnat, amoksiklav va b.), kuchli og‘riqda – baralgin, no-shpa, papaverinli svechalar beriladi. Antibiotiklarni berish muddathari 7-10 kun. Asimptomatik bakteriuriya va buyrakni kontsentratsion faoliyatı me'yorda bo‘lganda antibiotik va uroseptiklar extiyotkorlik bilan beriladi. Engil formalarida biseptol, negram, furadoninni qo‘llash mumkin. Agar bolada ostritsa bo‘lsa o‘tkir davr belgilarini qaytargach ularga qarshi davolashga kirishiladi.

Tsistitni uzoq muddat cho‘zilib yoki surunkali kechganda bemor albatta urolog bilan konsultatsiya qilinishi kerak. Bunda davolash uchta yo‘nalishda amalga oshiriladi: siydiq pufagi rezerv funktsiyasidagi buzilishlarni bartaraf qilish; uning devoridagi bioenergetik jarayonlarni intensifikasiyalash; yallig‘lanish o‘choqlarida antibakterial preparatlarning maksimal kontsentratsiyasini ta‘minlash va antiseptik eritmalarни maxalliy jo‘natish. Terapiya usulini bemor xususiyatlari va tsistit morfoloyiyasi, urolog imkoniyatlari va ko‘nikmalariga asosan tanlanadi.

#### **Oqibati**

O‘tkir tsistitda, agar davolash choralarini to‘g‘ri olib borilayotgan bo‘lsa xayrli hisoblanadi. 1-2 hafta ichida barcha patologik belgilari yo‘qoladi.

### **III BOB** **GLOMERULONEFRITLAR**

#### **O'tkir streptokokkli glomerulonefrit**

O'SGN – davriy, 3 xil ko'rinishdagi immunologik reaktsiyalar (immun kompleks) bilan kechuvchi buyrakning infektions-allergik kasalligi bo'lib, birdan boshlanishi, gematuriya va shishlar (taxminan  $\frac{2}{3}$  bemorlarda), gipertenziya (taxminan bemorlarning yarmida) va har xil darajadagi buyrak etishmovchiligi ( ko'proq I-II darajadagi ) bilan xarakterlanadi. O'g'il bolalar qizlarga qaraganda 2 marotaba ko'proq og'riydarlar (ko'proq maktabgacha va kichik maktab yoshida). 3 yoshgacha O'SGN juda kam uchraydi.

#### **Etiologiya**

Kasallik boshlanishiga odatda bundan 1-3 hafta avval o'tkazilgan faringit, tonzillit, skarlatina, teri jarohatlanishlari — impetigo-piodermiya ko'rinishida o'tkazilgan streptokokkli infektsiya sabab bo'ladi. Shu narsa aniqlanganki, O'GNni odatda A guruhiga mansub b-gemolitik streptokokklarning o'zida M 12, 18, 25, 49, 55, 57, 60 antigenlarini tutuvchi «nefritogen» shtammlari chaqiradi (kamroq xollarda boshqa turlari). A guruhdagi streptokokkning piogen teri shtammlari orasida T<sub>14</sub> antigen nefritogen hisoblanadi. Agar bolalar jamoasida A streptokokkli infektsiya nefritogen shtammlari bilan chaqirilgan bo'lsa, infektsiyalangan bolalarning 3-15% nefritga chalinadilar, ammo uni (O'GN bilan og'rigan bemorni) o'rabi turgan boshqa bolalar va kattalarning taxminan 50% ining siydigida o'zgarishlar kuzatiladi, ular torpid (kam simptomli, simptomsiz) nefritni kechirgan bo'lishlari mumkin. Skarlatinaga chalingan, statsionarda davolangan bolalarda 1%, uyda davolangan bolalar orasida O'GN 3-5% xollarda rivojlanishi mumkin.

Surunkali tonzilliti bor yoki nefritogen teri A streptokokk infektsiyasini tashuvchi bolaga sovuq ta'sir etsa yoki respirator virusli infektsiyaga chalinsa infektsiyani aktivlashtiradi va O'SGN rivojlanishiga olib keladi.

### **Patogenez**

Hozirgi davrga kelib, O'SGNning asosiy immunopatogenetik mexanizmi qonda yoki buyrakda immun komplekslarni hosil bo'lishi, antigen esa nefritogen A streptokokklarning endostreptolizini hisoblanadi. Kasallikning erta etaplarida qon zardobida immun komplekslarning ko'payishini va C3 komplementning kamayib ketishi (C1, C2, C4 me'yorda) ni aniqlash mumkin. Shuningdek, qonda streptolizin-O (O-antistreptolizinlar), nikotinamid adenine nukleotidaza (anti-NADasa) ga yoki B streptokokklarning dezoksiribonukleaza (anti-BNza B) sigma nisbatan antitelolar titrining ortib ketishi xos. Yuqoridagi immun komplekslarning qalin zahiralari koptokchalar kapillyarları endoteliyalari ostida topiladi (biopsiya va materialni elektron mikroskop ostida ko'rilganda).

Immun komplekslar bilan faollashgan, xemotaksik faollikka ega komplement jarohat o'chog'iga neytrofilarni jalb qiladi. Polinukleolyar lizosomalardan ajragan enzimlar koptokchalar bazal membranasining endotelial qavatini shikastlaydi, bu uning yirtilishiga olib keladi, Bauman kapsulasi orasida zardob oqsillari, eritrotsitlar, membrana bo'laklari paydo bo'ladi. Shuningdek, aktiv komplement Hageman faktorini faollashishiga, trombotsitlar agregatsiyasiga sabab bo'ladi. Vanihoyat, koptokchalar kapillyarlarida qon ivib qoladi, fibrin cho'kadi. Fibrinolitik faolligiga ega polinukleolyarlar fibrinni eritadi, ammo O'GN og'ir kechganida fibrin depozitlarini buyrak tomirlarida topilishi qonuniyat hisoblanadi.

O'SGN bilan og'rigan bemonlar buyragini punktsionn biopsiya qilinganda koptokchalar zararlanishi 80-100% holatlarda kuzatiladi: ularning o'chamlari kattalashadi, mezengial hujayralar proliferatsiyasi hisobiga tirkishlari torayib ketadi, mezengial matriks qalinligi ortadi, neytrofil leykotsitlar ko'payib ketadi va unchalik ko'p bo'limgan miqdorda T-limfotsitlar topiladi, koptokchalar kapillyarlar tirkishlarining torayishi bilan kechadi. To'peha kapillyarlarining bazal membranalari va mezangiyalari bo'ylab C3-komplement va immunoglobulin G dan iborat to'p-to'p granulyar depozitlar topiladi. O'GN uchun endokapillyar proliferativ GN manzarasi xarakterli. Bemonlarning 1/3 qismida tubulo-interstitzial komponent topiladi.

Yuqoridagi depozitlar birinchi 4-6 hafta davomida topiladi, so'ng ular kamayadi, kasallik bir tekisda kechganda 1-1,5 oydan so'ng ular topilmay qoladi, ammo mezengial hujayralar sonining ko'pligi va mezengial matriks qalinlashganligi bir necha yil saqlanib qoladi. Albatta, tipik xollarda O'GN dan keyin barcha morfologik o'zgarishlar to'liq asliga qaytadi.

O'SGNda patogeneznning ko'p immunopatologik protsesslari to'liq aniq emas. Bu eng avvalo, nefritogen streptokokklar xususiyatlariiga tegishli.

Ular quyidagilarni belgilaydi: buyrakka nisbatan immun komplekslar tropizmi; mikroblarda buyrak to'qimasiga o'xshash antitetolar mavjudligini va ular ta'sirida buyrak tomirlari yoki buyrakning boshqa qandaydir strukturalarining jarohatlanishi ko'lami va boshqalarni. Immun komplekslarning O'SGNda buyrakka nisbatan tropizmi hali aniqlanmagan, O'SGN patogenezida autoantigenlar ham, shuningdek sekin kechuvchi gipersezgirlik buzilishlar ham muhim rol o'ynamaydi. Shu bilan bir vaqtida, hujayra immunitetining pasayishi, T-limfold hujayralar subpopulyatsiyalaridagi disbalans O'SGNni surunkali nefritga aylanishi ehtimolligida muhim rol o'ynaydi. O'SGNda katta maktab yoshidagi bolalarda yuqorida yozilgan hujayra immunitetidagi o'zgarishlar ko'proq uchraydi, boshqa tomondan O'SGN ko'pincha surunkali nefritga o'tadi (maktabgacha yosha bo'lgan bolalarga nisbatan 3 marta ko'proq).

O'SGNi bor bolalarda V12, DRw6, DRw4 HLA antigenlar ancha ko'p uchraydi.

#### Klinik manzarasi

O'SGN klinik jihatdan tipik holatlarda kechirilgan angina, skarlatina yoki boshqa o'tkir streptokokkli infektsiyalardan, sovuqqotishdan so'ng 10-14 kunlardan o'tib rivojlanadi va ikki gurux simptomlar – ekstrarenal va renal simptomlardan iborat.

Odatda klinikasida **ekstrarenal simptomlar** ustun bo'ladi: doimiy charchoq hissiyoti, ishtahasining pastligi, lanjlik, ko'ngil aynishi kuzatiladi, bolaning rangi oqaradi unda shish sindromining uncha kuchli bo'limagan belgilari (postozlik, ertalab uncha kuchli bo'limagan ko'proq yuzillardagi va kechqurun esa boldirlarida, to'piqlaridagi shishlar) paydo bo'ladi. O'SGN boshida kuchli shishlar kamdan kam bo'ladi. Ba'zan tana

haroratini subfebril ko'rsatkichlargacha ko'tarilishi va jigaming biroz kattalashishi kuzatiladi. Ko'pchilik bemorlar uchun gipertenzion sindrom: bosh og'rishi, taxikardiya, cho'qqi sohasidagi sistolik shovqin bilan namoyon bo'luvchi yurak qon-tomir tizimidagi o'zgarishlar, ko'ngil aynishi, ba'zan qayt qilish, tekshirib ko'rilganda har xil darajada namoyon bo'luvchi arterial bosimning ortishi, ko'z tubi tomirlaridagi o'zgarishlar xarakterli. Shu bilan bir qatorda bemor bolalarning bir qismida kasallik boshida bradikardiya, yurak tonlarining bo'g'iqlashishi kuzatiladi. Gipertensiya darajasi odatda uncha yuqori emas, ko'pincha turg'un emas. Shish, bo'yin tomirlarining to'lib turishi va rangparlik yuzga spetsifik ko'rinish - facies nephriticani berib turadi.

Rasmida diffuz nefritdagagi immunologik fazadan keyingi buyrak jarohatlanishining patogenezini kuzatish mumkin. O'SGN boshlanishidagi **renal simptomlar** quyidagilar : oliguriya, siydiq rangining o'zgarishi (qizarishi) yoki gematuriya faqat siydiq tahlilidagina kuzatilishi, beldagi og'riqlar (buyrak kapsulasining cho'zilishi hisobiga) yoki differentsiallashmagan, aniq lokalizatsiyaga ega bo'limgan qorindagi og'riqlar, azotemiya.

Bemorda doim ham sanalgan simptomkomplekslar bo'lavermaydi, bundan tashqari, oxirgi vaqtarda kasallikning barcha klinik belgilari manzarasi keng namoyon bo'lishi kam uchramoqda. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda gipertensiya kam uchraydi, azotemiya esa katta yoshli maktab bolalariga qaraganda ko'proq. Katta bolalarda gipertensiya uzoqroq kuzatiladi. Ba'zan siydikdiragi o'zgarishlar shish va gipertenzion sindromga nisbatan kechroq paydo bo'ladi. Kattalardan farqli o'laroq, O'SGNda eklampsiya, o'tkir yurak etishmovchiligi, O'BE kam uchraydi.

O'SGN bilan og'igan bemorlardagi asosiy simptom va sindromlarning patogenezi quyidagicha ( rasmga qarang).

**Siydiq sindromi** (oliguriya, proteinuriya, gematuriya, tsilindruriya). Oliguriya (diurezni 50-80% gacha kamayib ketishi yoki sutkasiga  $300 \text{ ml/m}^2$  dan kam bo'lishi) glomerulonefritda funksiya qiluvchi nefronlar massasining kamayishi hisobiga kelib chiqadi. Bundan tashqari, tomir ichi tromblari, tomirlar endoteliyasini va podotsitlarning shishib qolishi, endoteliy va mezangiumning kuchli

prolifiratsiyasi funktsiya qilayotgan to‘pchalardagi filtratsiyani pasaytiradi. Buning natijasida qon tomirlarda suyuqlik ko‘payadi (gipervolemiya) va keyinchalik giperaldosteronizm, natriyuriya kamayadi. Oliguriya patogenezida suvni qayta distal reabsorbsiyasi, ya’ni ADG sekretsiyasini kuchayishi natijasida «antidiurez» rivojlanishi ham muhim rol o‘ynaydi. Siydikning nisbiy zichligi yuqori (1,030 dan yuqori) bo‘ladi.

**Proteinuriya** – O‘SGNning doimiy simptomi. Ko‘philik bemorlarda siydkdagи oqsil miqdori 1 g/l dan ortmaydi, ya’ni siydkda sutka davomida ajralib chiquvchi oqsil miqdori 1 g/l dan kam. Oqsilni ko‘p miqdorda ajralishi uncha uzoq muddat kuzatilmaydi – bu bir necha kundan 2 haftagacha. O‘SPEda proteinuriya selektiv, ya’ni tanlovchi, siydkka faqat malekulyar massasi 85 000 dan kam bo‘lgan oqsillar o‘tadi, bular asosan albuminlar bo‘ladi. Proteinuriya sababi – to‘pchalar filtrida o‘tkazuvchanlikni ortib ketishi, koptokchalardagi gemodinamik buzilishlar, oqsil reabsorbsiyalanishining buzilishidir.

**Gematuriya** O‘SGNdа 100% gacha bo‘ladi. Yallig‘lanish jarayonida buyrakda koptokchalar kapillyarlar devorida o‘tkazuvchanlik ortib ketadi, ularning butunligi buziladi. Shu sababli eritrotsitlar per diapedesum yoki tomirlar yorilishi (kamroq xollarda) natijasida to‘pchalarni o‘rab turgan kapsula ichiga kiradi, keyin kanalchalar orqali ikkilamchi, etuk siydkka tushadi. Intensivligi jihatidan gematuriya turlicha bo‘ladi. 70-80% xollarda makrogematuriya (siydk quyuq choyga yoki go‘sht seliga o‘xshash), ba’zan mikrogematuriya (eritrotsitlar faqatgina siydk cho‘kmasini mikroskopik tekshirganda, uning miqdori sutkalik siydk miqdorida ularning soni  $1,5\text{--}10 \times 10^6$  aniqlanadi) kuzatiladi. Siydikni sterillab ekilishiga qaramay leykotsituriya taxminan 50% bemorlarda kuzatiladi. Aslida, leykotsituriya uzoq emas, balki 1-2 hafta saqlanadi. Bu buyrak interstitsiyasi shikastlanganligi tufayli sodir bo‘ladi. Leykotsituriya turi mononuklear, kamroq xollarda aralash bo‘ladi.

**Tsilindruriya** yalliglanish eksudati siydikning nordon muhitida buyrak kanalchalarida ularni shaklini olgan xolda ivib qoladi, shunday qilib gialinli tsilindrler hosil bo‘ladi. Ularga eritrotsitlar qoldiqlari, leykotsitlar yadrolari,

bujmayib qolgan epiteliyalar aralashib qolishi mumkin, shunda gialinli tsilindlar bilan donador tsilindrlar (eritrotsitar, leykotsitar, epitelial) shakllanadi. Agar gialinli tsilindrlar sog'lom bola siydigida ham uchrasa, eritrotsitli tsilindrlar – nefrit belgisi bo'lib, donadorlar esa buyrak jarohatining og'irlik darajasini ko'rsatadi. Gipertoniya (bir me'yorda, ham maksimal, ham minimal bosimni ortishi) O'SGN bilan og'rigan bolalarda 60-70% xollarda kuzatiladi va muddati va og'irlik darajasiga ko'ra turli bo'ladi. Gipertenziya nefritning o'tkir davrida koptokcha filtratsiyasining kamayishi hisobiga suyuqlik qon-tomirlarda to'planadi va tsirkulyatsiyalanuvchi qon hajmining ortishi sababli kelib chiqadi. Gipertenziyanı organizmda natriyni ko'p to'planishi bilan ham bog'laydilar. O'SGNning erta bosqichlarida renin-angiotenzin-aldosteron tizimi faoliyati pasayadi. Ammo, agar buyrak tomirlarida vaskulit rivojlansa to'pehalarga kelayotgan qon miqdori kamayadi, ishlab chiqarilayotgan renin ko'paya boshlaydi. U qon oqsili (angiotenzinogen) bilan birikib angiotenzin I, keyin qon zardobi fermentlari ta'sirida bevosita tomirlar devori silliq muskullarini spazmini chaqirish yoki buyrak ustı bezlari sekretsiyasini kuchaytirish yo'li bilan qon bosimini kuchaytiruvchi angiotenzin II paydo bo'ladi. Nefrida gipertoniya genezida kinin tizimi aktivatsiyasi va buyraklarda ( $E_2$ , 1) depressor prostaglandinlar sintezini kamayishining ahamiyati bor. Qarindoshlar orasida gipertenziyaga chalinganlarning borligi, bolalarda gipertenziya rivojlanish ehtimolini 3 marotabaga kuchaytiradi. Odatda O'SGNda gipertenziya kamroq xollarda uchraydi va qisqa muddatli bo'ladi, ya'ni renin-angiotenzin-aldosteron tizimining aktivatsiyasi bilan bog'liq emas.

Gipertenziyasi bor bolalarning ko'z tubi tekshirilganda bir qator o'zgarishlar kuzatiladi: venalar kesishgan joyining torayishi, arteriyalar devorining qalinlashishi, arteriya devorlarining torayib qolishi va ularning geperemiyasi, ko'ruv nervi so'rg'ichlarining shishib ketishi va mayda qon quyilishlar ko'rinadi. O'SGN uchun ko'z to'rining keng ko'lamli va turg'un o'zgarishlari xarakterli emas.

**Shishlar patogenezida 4 faktor asosiy ahamiyatga ega:**

1. Gidrodinamik bosim ortishi; sabablari:
  - a) tsirkulyatsiya qiluvchi qon hajmining ortishi;
  - b) gipertenziya;

2. Qonning kolloid-osmotik bosimining kamayishi; sabablari:
  - a) gipervolemiyada bir vaqtning o'zida gidremiya rivojlanadi;
  - b) disproteinemiya (albumin/globulinlar nisbatining globulinlar tomoniga siljishi);
  - v) diselektrolitemiya;
3. Bemorlar qonida gjaluronidazali aktivlikning anchayin ortib ketishi va «diffuzli kapillyarit» bilan bog'liq xolda kapillyarlar o'tkazuvcanligining ortishi;
4. Suv reabsorbsiyasining kuchayishi va siydk orqali natriy ekskretsiyasini kamayishi (o'tkir nefrit boshlanishida siydk orqali natriyni sutkalik ajralishi sog'lom bolalardagi natriy ekskretsiyasiga qaraganda 3-6 marta kam).

Buyrakda suv reabsorbsiyasining ortishi ADG vazopressin sintezini ortishi va o'tkir nefrit bilan og'rigan bemorlar qonida uning miqdorini ko'p bo'lishi bilan bog'liq. Buyrak kanalchalarida natriy reabsorbsiyasini ortishi, qisman, bemor buyragida renin ko'p ishlab chiqilishiga javoban aldesteron sintezini kuchayishi bilan tushintiriladi. Natriyning asosiy qismi buyrakning proksimal kanalchalarida reabsorbsiyalanadi va nefrit bilan og'rigan bemorlarda natriyning buyrakni proksimal kanalchalarida reabsorbsiyalanishi kuchayishining patogenetik mexanizmida hali bir aniqlik yo'q. Sezilarli shishlar tana massasini keskin 10% ga ortganida paydo bo'ladi. O'SGNda shishlar paydo bo'lishi ertalab kuchayadi. Demak, nefritga chalingan bemorlar og'irligini o'lchab turish kerak.

O'SGNda elektrolitlar almashinuvdag'i buzilishlar uncha chuqur bo'lmaydi va (buzilishlar klinik diagnostika qilish darajasiga etmaydi). Oligurik fazasida hujayralardan kaliyni chiqishi, kaliy, magniy, xloridlarni siydk orqali ekskretsiya qilinishini pasayishi kuzatiladi, shuning uchun bemorlar qonida *giperkaliemiya, gipermagniemiya, giperxloremik atsidoz* kuzatiladi. Shu vaqtning o'zida, nefritning poliurik fazasida bemorlarda gipokaliemiya, gipomagniemiya kuchayadi. Atsidoz giperkaliemyani kuchaytiradi.

Qonda azotli shlaklar (mochevina va b.) ning ko'p bo'lishi va kreatinin yoki mochevinadan tozalash bo'yicha funksional buyrak sinamalarining past

ko'rsatkichlari (E. M. Tareev bo'yicha) to'pchalar filtratsiyasi va kanalchalar funksiyasining buzilishi natijasidir.

Behollik, bosh og'rishi, ko'ngil aynishi, pay reflekslarining ortishi, uyqusizlikni – intoksikatsiya, shish, bosh miya tomirlari spazmi bilan; intoksikatsiyani esa – atsidoz va qonda moddalar almashinuvining toksik moddalari – indol, skatolni to'planib qolishi bilan izohlanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, MNS to'qimalari suv - tuz tarkibida, KIM (kislota-ishkor muhiti) da bo'layotgan o'zgarishlarga o'ta sezgir bo'lib, MNS simptomlari (ayniqsa oliguriya davrida) atsidoz va organizmdagi suv hajmini jiddiy o'zgarishlari natijasida kelib chiqishi mumkin. Xususan, hujayralarda tez kechuvchi gipergidrotatsiya natijasida bezovtalik va talvasalar kuzatilishi mumkin. Atsidoz – kanalchalardagi buzilishlar natijasidir.

**Yurak qon-tomir tizimidagi o'zgarishlar** (kattalarda 100%, bolalarda 20-40% klinik tashxislanadi). Bunda yurak o'lchamlari kattalashadi, sistolik shovqin paydo bo'ladi, yurak tonlari bo'g'iqlashadi, bradikardiya kuzatiladi. Yurak qon-tomirdagi o'zgarishlar organizmda natriy va suvni ushlanishi, atsidoz, gipertensiya, ba'zi bemorlarda esa bevosita yurak muskullarining jarohatlanishi, giperkaliemiya bilan bog'liq. Bradikardiya kasallikning birinchi kunlaridan aniqlanadi, uning paydo bo'lishi arterial bosim ortganida karotid sinuslar baroretseptorlarining ta'sirlanishi bilan bog'liq. Kasallikning o'tkir davrida jigar kattalashadi va og'riqli bo'ladi, bu venalardagi qonning dimlanishi va shishlar bilan bog'liq.

#### **Kechishi**

O'SGNning kechishi turli bo'ladi. Ba'zan o'tkir boshlanadi, oliguriya davri 3-7 kungacha davom etadi, so'ng siyidik miqdori ko'payadi, arterial bosim pasayadi, asta sekinlik bilan shishlar qaytadi. O'SGNning bunday tipik kechishi hammasi bo'lib 2-3 hafta davom etadi va ortga qaytishi ham deyarli shuncha davom etadi. C3-komplementi titrining past ko'rsatkichlari 2-6 hafta o'tgach me'yorga qaytadi.

Hozirga kelib kasallikning boshqa kam simptomli kechuvchi, shish, gipertensiya va siyidik sindromi bilan birgalikda yoki alohida namoyon bo'luvchi shakllari uchraydi. Bolalarining umumiy ahvoli o'zgarmagan, siydigidagi o'zgarishlar esa angina, skarlatinadan so'ng rejali tekshirilganda aniqlanadi. O'tkir glomerulonefrit

diagnozi esa interstisial nefrit, buyrakning irsiy kasalliklarini istesno qilingach bemor bolani dinamikada kuzatib, so'ng qo'yiladi. Bunday sust kechish surunkali nefritning birinchi belgilari bo'lishi ham mumkin.

Nefritning **asoratlari** anuriya (o'tkir buyrak etishmovchiligi), eklampsiya va yurak etishmovchiligi hisoblanadi.

**Anuriya** – diurez me'yordagi siydik miqdorining 10% ini tashkil qiladi.

**Eklampsiya** (angiospastik, gipertonik entsefalopatiya) da bolada shishlar bilan bir qatorda qattiq, azobli bosh og'rig'i, ko'proq ensa sohasida, ko'ngil aynishi, ba'zan qayt qilish, ko'rish qobiliyatining pasayishi (ko'z oldida oq bulut), arterial bosim ko'tarilishi kuzatiladi. Yuz muskullarining tonik qisqarishi paydo bo'ladi, keyin klonik talvasalar qo'shiladi. Ko'z qorachiqlari kengayadi, yorug'likni sezmaydi, xushi yo'qoladi. Buyrak kasalliklarida kuzatiladigan teri qoplamlaridagi rangparlik tsianoz bilan almashadi. Nafas shovqinli, talvasa tufayli to'xtalib-to'xtalib olinadi. Eklampsiya huruji birdan 10 daqiqagacha bo'lib, sutka davomida o'nlab marta qaytarilib turishi mumkin. Bunday hollarda qoldiq azot miqdori me'yorida bo'lishi mumkin. Bu asorat patogenezi bosh miya tomirlarida spazm, undagi shish va bosimni ortishi, hujayra ichi gipergidrotatsiya va gipertenziysi bilan bog'liq.

Asoratning uchinchi turi – **o'tkir yurak - tomir etishmovchiligi** – bolalarda juda kam uchraydi.

#### **Diagnoz**

Buyrak xastaligi bor bemor bolalarda quyidagi tekshirishlar o'tkaziladi:

- 1) Siydik analizi (2-3 kunda 1 marta);
- 2) Zimnitskiy sinamasi (10-14 kunda 1 marta);
- 3) Har kuni diurez va ichilgan suyuqlikni o'lchab borish;
- 4) Uchta siydik ekmasi;
- 5) Har kuni arterial bosimni o'lchab borish;
- 6) Qonning klinik tahlili va gematokrit ko'rsatkichi (5-7 kunda 1 marta);
- 7) Kreatinin, mochevina, xloridlar, kaliy, natriy, kaltsiy, fosfor, xolesterin, umumiy oqsil va oqsil fraktsiyalari, koagulogramma (vena qonining ivish

- vaqtı, rekalsifikatsiya vaqtı , trombotsitlar sonı, fibrinogen, protrombin darjası, fibrinolitik faollık, shuningdek, fibrin va fibrinogen degradatsiyası mahsulotlarını, fibrin-monomerler, trombinli partsial tromboplastin vaqtı) ni aniqlash
- 8) Qon zardobida komplement va antistreptokokkga qarshi antitelolar titrini aniqlash (yotqazishda va keyinchalik ko'rsatma bo'yicha, ammo 1 haftada 1 martadan kam bo'lmasligi kerak);
- 9) Ko'z tubini tekshirish (yotqazishda va keyinchalik ko'rsatma bo'yicha);
- 10) EKG (yotqazishda va keyinchalik ko'rsatma bo'yicha);
- 11) Reberg sinamasi (yotqazishda va keyinchalik ko'rsatma bo'yicha, sutkalik siyidik miqdoridan olish maqsadga muvofiq);
- 11) PH, siydikning titrlanuvchi kislotaligi, ammiakni siyidik bilan ekskretsiyasi;
- 12) buyrakni ultratovushli tekshirish;
- 13) maxsuslashtirilgan klinikalarda kanalchalar funksiyasini partsial nazorat qilish, siyidikda va qonda transaminaza faolligini, mikroglobulinni tekshirish (ularning ko'payishidagi turg'unlik – yomon prognostik belgi bo'lib, cho'zilib yoki surunkali kechishiga moyillikni ko'rsatadi).
- Buyrakni biopsiya qilish va boshqa glomerulopatiyalar bilan differentsiyal diagnostika o'tkazish uchun ko'rsatlilar:
- anamnez ma'lumotlari (oiladagi glomerulonefrit yoki buyrakning boshqa og'ir hastaliklari, bolada bo'y o'sishidagi buzilishlar va avvaldan kechirgan buyrak hastaliklari, kasallikning erta yoshda boshlanganligi, O'SGN boshlanishiga sababchi bo'lgan yoki boshlanishlari bir vaqtga to'g'ri kelib qolgan o'tkir infektzion kasalliklar);
- Atipik klinik manzara va laborator tekshirish ma'lumotlari :**
- 0 yoki DNA3bi antistreptolizin ko'rsatkichlari ko'tarilmaydi;
  - C3-komplement ko'rsatkichlari me'yorida;
  - oliguriya va azotemiya 2 hafta va undan ortiq davom etadi;
  - nefrotik sindromni nefritik sindrom bilan birga kuzatilishi;
  - 3 haftadan uzoq davom etuvchi gipertensiya yoki makrogematuriya;

- bemor qonida C3-komplement ko'rsatkichlarining pastligi va 8 haftadan uzoq davom etishi;
  - doimiy proteinuriyaning gematuriya bilan yoki usiz kuzatilishi 6 oydan uzoq davom etishi; 12 oy davom etgan kasallikdan so'ng ham doimiy gematuriya kuzatilsa;
- Albatta, biopsiya qilishni nefrolog bilan maslahat qilgach, u tomonidan amalga oshiriladi.

#### **Differentsial diagnoz**

Eng avvalo sistemali kasalliklarni istisno qilish zarur, chunki nefropatiya sistemali qizil yugurik va boshqa revmatik kasalliklar, gemolitiko-uremik sindrom, kapillyarotoksikoz, malyariya, tuberkulyoz, brutsellez, persistirlanuvchi virusli infektsiyalar (gepatit V, tsitomegaliya, infektsion mononukleoz va b.), mikoplazmoz, tug'ma sifilis, amiloidoz, "o'roqsimon" hujayrali anemiya, sarkoidoz va boshqa o'sma kasalliklari; moddalar almashinuvining irsiy anomaliyalari, gemorragik diatezlarning bir belgisi bo'lishi mumkin.

Birlamchi nefropatiyalar ichida eng avvalo irsiy kasalliklarni istisno qilish kerak, chunki ulami davolash taktikasi butunlay boshqacha bo'ladi (irsiy nefrit, buyrak displaziysi va tug'ma rivojlanish anomaliyalari, tubulopatiya). Differentsial diagnostikaning tayanch mezoni tipik O'SGN manzarasiga to'g'ri kelmaydigan naslini va anamnezini tahlil qilish, klinik manzarasi va laborator ma'lumotlari hisoblanadi. Ba'zan boshqa birlamchi nefropatiyalar faqat buyrak biopsiyasi ma'lumotlariga asoslangan xolda istisno qilinadi.

**O'tkir streptokokkli bo'limgan infektsion glomerulonefritlar (O'SBGN)** amaliy jihatdan doimo ikkilamchi, ya'ni tizimli intoksikatsiyaning belgisi bo'lib hisoblanadi. Bu guruh vakillariga hepatit B va C, nim o'tkir kechuvchi bakterial endokardit, «shuntli» (ventrikulo-arterial, ventrikuloperitoneal, gidrotsefaliyada kateterlar, arteriovenoz shuntlar, tomir o'rnini bosuvchilar va b.), shuningdek organizmdagi surunkali infektsiya o'choqlari (osteomielit, sinusit va b.) dagi GNlar kiradi. O'tkir emboliyalı nefritlar (Layellaning o'choqli nefriti — endokapillaryar GN — to'pchalar kapillyarlari ichidagi yiringli yallig'lanish), o'tkir fokal bakterial

nefrit (o'tkir lobar nefroniya — buyrak yumshoq to'qimalarining yallig'lanishi) laridan tashqari, membranozli-proliferativ GN ham, hattoki «yarim oylar bilan» ekstrakapillyar GN ham bo'lishi mumkin. Qo'zg'atuvchisi odatda turli stafilokokklar va boshqa yiring chaqiruvchi mikroblar, pnevmokokklar, iersinelalar, listeriylar hisoblanadi.

Klinik manzarasida bir tomondan infektsion toksikoz belgilari (turli xildagi isitma, intoksikatsiya simptomlari – tez charchash, ishtahaning pastligi va b., gepatosplenomegaliya, limfadenitlar, «qonning infektsiyali manzarasi» — anemiya, leykotsitar formulani chapga siljishi, toksik donadorlik va b.), boshqa tomondan — O'SGN ning tipik renal va ekstrarenal simptomlari bilan proteinuriya nefrotik sindromga xos katta ko'rsatkichlarda kechishi uzoq muddat kuzatiladi. Anamnez va klinik manzarasini diqqat bilan tahlil qilish, qon va siydkini tizimli bakteriologik tekshirib borish to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi. O'SBGNni davolashda muhim o'rinni uzoq muddat (bir necha hafta yoki oylar) antibakterial terapiyani qo'llash egallaydi.

#### *Jadval*

**Proteinuriya va gematuriyada differentsial diagnoz (D.J.Levi)**

Proteinuriya	Gematuriya	Shishlar	Etiologiya
Ha	Yo'q	Yo'q	Yomon sifatli bo'lmagan: jismoniy yuklamalar, ortostatik (o'zgaruvchan yoki domiy), isitmalash, degidratatsiya. Reflyuks-nefropatiya. Fokal segmentar skleroz. Tizimli qizil yugurik.
Ha	Ha	Yo'q yoki uncha katta	O'SGN, IgA-nefropatiya, kapillyarotoksikoz, gemolitiko-uremik sindrom, endokardit. Irsiy

		bo'limgan	nefrit. Interstitsial nefrit. Og'ir jismoniy yuklamalar.
Ha	Yo'q	Ha	Kam o'zgarishlar bilan kechuvchi nefrotik sindrom. Fokal glomerulyar skleroz.
Ha	Ha	Ha	O'SGN, kam o'zgarishlar bilan kechuvchi nefrotik sindromning atipik shakli, membranoproliferativ (mezangiokapillyar) glomerulonefrit, membranoz nefropatiya.
Ha	Ha	Ha	Yomon sifatli bo'limgan gematuriya, IgA-nefropatiya, irsiy nefrit, o'roqsimon hujayrali anemiya, o'sma, travma, interstitsial nefrit, urolitiaz, idiopatik giperkaltsiuriya, gemoragik diatezlar ( ko'proq irsiy trombotsitopatiyalar), tuberkulyoz.

#### **Yomon sifatli bo'limgan gematuriyalar**

AQShda alohida kechuvchi gematuriyaga chalingan bolalarning taxminan 1/3 ida giperkaltsiuriya aniqlanadi. Kaltsiy kristallari siydik yo'llarini qitiqlashi mumkin. Bunday bolalar dietasida kaltsiy cheklanadi, suyuqliklar yuklamasi ko'paytiladi, ba'zan tiazidli diuretiklar belgilanadi (agar oila a'zolari orasida siydik-tosh kasalligi bilan og'riganlar bo'lsa).

Ta'kidlanishicha, ba'zi oilalarda bir necha oila a'zolarida yomon sifatli bo'limgan gematuriya kuzatiladi. Bunday hollarda oila a'zolari ichida surunkali

buyrak kasalliklari bilan og'riganlar yoki eshitish qobiliyati yo'qlarni (Alportning irsiy nefritiga gumon) aniqlash muhim.

O'SGNni Freylli sindromi bilan differential tashxis qilinadi. Quyi siyidik yo'llari (uretra) jarohatlanishlari bilan differential tashxis o'tkazish uchun «uch stakanli sinama» qo'llaniladi. Uretra jarohatida gematuriya faqat birinchi stakanda bo'ladi, cho'kmada yangi eritrotsitlar topiladi, eritrotsitli tsilindrlar bo'lmaydi. Siyidik pufagi yoki jarohatlanganda va nefritlarda qon uchchala stakanda ham bo'ladi, nefritda eritrotsitlar o'zgargan, ishqorlangan, turli tsilindrlar topiladi.

#### **Davolash**

O'SGN bilan og'rigan bemorlar statsionarda davolanadi va u juda ehtiyojkorlik bilan o'tkazilishi talab qilinadi. Rejim, parhez, yallig'lanishga qarshi, shu jumladan antibakterial terapiya bilan bir qatorda bazis terapiya diuretiklar, buyrakda qon aylanishini kuchaytiruvchi, tomirlar ichida tromb hosil bo'lishini kamaytiruvchi yoki umuman bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

#### **Rejim.**

Yotoq rejimida bemorning tanasi bir tekisda issiqda bo'lishi kerak. Bu qon aylanishini yahshilaydi, tomirlar spazmini bo'shashtiradi, buyrakka ko'proq qon keladi, to'pchalarda filtratsiya jarayoni yahshilanadi va diurez miqdori ko'payadi. Diurez tiklangach va eksrtrorenal simptomlar yo'qolganda (shishlar yo'qoladi, arterial bosim pasayadi), siyidik tekshirilganda gematuriya eritrotsitlar soni ko'rish maydonida (k/m)<sup>10-20</sup> tadan va albuminuriya 1% dan ortmasa bola yarim yotoq rejimiga o'tkaziladi. Ammo bolaning bel sohasiga issiq buyuriladi, ya'ni u «paxtali belbog'» bog'lab yurishi shart. Yana shu narsaga ahamiyat berish kerakki, rejim ko'lami kengaytirilganida ham bemor doimo oyoqlariga issiq paypoq kiyishi zarur, chunki oyoqlarni sovuqqotishi tonzillo-faringeal infektsiya qaytalanishiga olib keluvchi faktorlardan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin uzoq muddat yotoq rejimini tavsiya qilish ham maqsadga muvofiq emas. Yurak qon-tomir buzilishlarida bemorni oyoqlarini pastga tushirgan xolda kresloga o'tkazish foydali - bu pastki kovak vena tizimida qonning deposi ko'payishi hisobiga yurakka yuklama kamayadi. Odatda

yotoq rejimi — 2-3 hafta. 5-6-chi haftaga borib rejim asta-sekin yotoqxona miqyosiga etkaziladi.

**Parhez.** O'SGNdagи parhezidagi asosiy printsipiallik tuz va suvni cheklash hisoblanadi. Tuz keskin cheklanadi. Kasallik avjida oliguriya va gipertensiya bo'lsa ovqat tuz qo'shilmasdan tayyorlanadi. Faqtgina 4-5-haftalarida, oliguriya va shishlar yo'qolgach, arterial bosim me'yoriga kelgach bemorga sutkada 0,5g osh tuzi ovqatga sepish uchun beriladi. 8-haftaga o'tib sutkasiga 1,5 g.gacha ko'paytiriladi. Keyinchalik tuz miqdori asta-sekinlik bilan orttirib boriladi, ammo osh tuzining maksimal miqdori 1-2 yil ichida me'yor (sutkasiga 50 mg/kg) ning  $\frac{1}{4}$  qismidan ortmasligi, ovqatni tuzi sal kamroq bo'lishi kerak.

Suyuqlikning sutkalik miqdori kasallik avj olgan davrda bir kun avvalgi diurez miqdoriga teng bo'lishi kerak, agar ma'lumot bo'lmasa 15 ml/kg (400 ml/m<sup>2</sup>) — ya'ni, sutkada uncha sezilarli bo'lмаган suyuqlik yo'qotish miqdoriga teng bo'lishi kerak.

Yaqin vaqtargacha O'SGN bilan og'rigan bemor dietasida oqsil miqdorini cheklashga ahamiyat berilar edi. Shu narsa aniqlandiki, bu faqat azotemiya kuzatilgan bemorlargagina ta'luqli. Bu xollarda bemorga birinchi kunlari shakar-mevali kunlar tayinlanadi. Har 1 kg massasiga 12-14 g uglevod tayinlanadi, ammo bu sutkasiga 300-400g. dan ortmasligi kerak:  $\frac{1}{3}$  uglevodlar shakar hisobidan,  $\frac{1}{3}$  nok va olma hisobidan, (nok va olmalarda o'rtacha 80-86% atrofida suv bo'ladi; noklarda uglevod — 10-18 g; olmalarda: har 100g. Da : antonovkada — 6 g, djonatanda — 12-16g) va  $\frac{1}{3}$  murabbo va asal hisobidan. Klyukvali va limonli sharbatlar ham foydali. Mevalar tarkibidagi suv umumiy suyuqlik miqdori aniqlanayotganda hisobga olinadi. Bola buyurilgan ovqatni este'mol qilayotganini nazorat qilish zarur, chunki bolaning och qolishi katabolizmga olib keladi va azotemiyani kuchaytiradi. Agar bola shakar-mevali kunlari kam esa, unga gurunchli yoki manniy (yormali) pudding, bulochkalar beriladi. So'ng, oqsillarni sutkasiga 0,5-1 g/kg gacha va suyuqlikni chegaralagan xolda axloridli, alkalitik xususiyatga ega parhez buyuriladi. Gurunchli yoki gurunch - kartoshkali ovqatlar tavsiya qilinadi. Gurunch sutda pishiriladi.

Agar bola ovqatni kam esa, mahsulotlar tarkibiga sabzavotlar (sabzi, karam, oshqovoq va b.), mevalar (parmanchak, maymunjon va b.), yormalar, shakar, marmelad, zefir, o'simlik moyi, tuzsiz non, ya'ni faqat o'simlik oqsillari kiritiladi. Bu talablarga (Pevzner bo'yicha №7) №3 parhez stol javob beradi. Buni uncha yuqori bo'Imagan azotemiyada shakar-mevali kunlar o'rniga qo'llash mumkin. Ammo bolaga bunday to'laqonli bo'Imagan ovqatlanishni uzoq muddat buyurish yoki och qoldirish mumkin emas. Kasallik boshlangan kunidan 3-5 kun o'tib asta-sekinlik bilan parhez ko'lami kengaytiriladi (1-1,5 g.oqsil, ya'ni 3-b stol yoki Pevzner b'o'yicha 7-b stol), ya'ni to'laqonli oqsillar sut mahsulotlari hisobiga kiritiladi. O'tkir nefrit bir tekis kechganida 7-10 kunlariga borib oqsil miqdori fiziologik me'yori (2,5 g/kg – 3a stol, ya'ni Pevzner buyicha №7 stol) ga etkaziladi Parhezni kengaytirish asta-sekinlik bilan bilan: dastavval ratsionga tuxum, bug'doy noni, keyinchalik baliq, tvorog, keyingina bemorga go'sht, sepib eyish uchun tuz beriladi.

Jadvalda katta maktab yoshidagi O'SGN bilan og'rigan bolalarga mo'ljallangan parhez tarkibi keltirilgan.

Kasallikning birinchi kunlari giperkaliemiya paydo bo'lishi havfi bo'ladi, shuning uchun kasallikning oligurik fazasida faqat axloridli bo'lib qolmasdan, balki gipokaliyli ham bo'lishi kerak. Bu davrda kaliya boy bo'lgan meva va sabzavotlar buyurilmaydi, ammo oliguriya kuzatiladigan bo'lsa tuz juda ko'p miqdorda yo'qotiladi va giperkaliemiya rivojlanishi havfi tug'iladi. Shuning uchun diurez me'yorida bo'lganda, ayniqsa poliuriya davrida parhez kaliy (mayiz, qora sliva, tarvuz, apelsin, banan, kartoshka, quritilgan mevalar va b.) bilan boyitilgan bo'lishi kerak. Poliuriya davrida, ayniqsa tuzsiz parhez davrida gipoxloremiya (gipoxloremik azotemiyasi) va giponatriemiya (qon zardobida natriy 120 mmol/l dan kam bo'lganda - hujayra ichi gipergidrotatsiyasi), gipomagnemiya, gipokaltsiemiya ham kuzatilishi mumkin.

Bolani №3a parhezida bo'lishi muddati 1 oydan kam bo'lmasligi kerak, keyinchalik esa №5a parhez stoliga o'tkazish kerak (bu stolda 5 yil davomida davom etadi).

**Jadval**

**O'SGN bilan og'rigan bemorlar uchun parhez variantlari**

Stol(dieta) №	Oqsillar, g	Yog'lar,g	Uglevodlar, g	Kaloriya, kkal
3a	60-65	60-65	400-420	2400-2500
3b	50-55	50-55	350-380	2100-2200
3s	30-35	37-40	230-250	1500-1550

Kasallikning oligurik fazasida ichak faoliyatiga e'tibor berish muhim, chunki qabziyat bo'lsa achitqi mahsulotlari ichak devorlaridan so'rilib, jigarda zararsizlantirilmaydi (uning antitoksik xususiyati bu kasallikda pasaygan bo'ladi), qonga o'tib intoksikatsiyani kuchaytiradi. Shuni nazarda tutgan xolda tozalovchi klizmalar qilinadi. Buyrak faoliyatining chuqur buzilishlarida oshqozon va ichak shilliq qavatidan azot almashinushi moddalari ajraladi. Ularni to'liq tozalash maqsadida 2% li gidrokarbonat natriy eritmasidan foydalangan holda yuviladi.

**Vitaminterapiya.** Vitamin V, V<sub>2</sub>, C, rutinni oddiy terapevtik dozalarda ichish uchun buyuriladi.

**Antibiotikoterapiya.** O'SGN bilan og'rigan har bir bemor statsionarga kelgan kunidan buyuriladi. Antibiotik (polusintetik penitsillinlar, makrolidlar) o'rtacha terapevtik dozalarda 8-10 kunga beriladi. Surunkali infektsiya o'choqlari, interkurent kasallikkleri bo'lsa antibiotiklar bir necha tsikl (3-4 tsikl) o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Antibiotiklarga (ayniqsa, penitsillinga!) nisbatan allergik reaksiyalar bo'lishi mumkinligini ham unutmaslik kerak. Shuning uchun anamnez to'plaganda, klinik manzarasiga ko'ra uni aniqlash lozim. Nefrotoksik antibiotiklar (aminoglikozidlar, metitsillin, tetratsiklin, tsefazolin va b.) ga o'tmaslik kerak.

Surunkali infektsiya o'choqlari (tishlar kariesi, surunkali tonzillit, adenoidit va b.) ni albatta sanatsiya qilish kerak, albatta konservativ (fizioterapiya, fitoterapiya, yuvish, drenajlash va b.) yo'l bilan olib borilishi kerak. Bodomcha bezlarni olib tashlash surunkalli tonzillit konservativ terapiyaga berilmagan hollarda, kasallik boshlanishidan kamida 6-12 oy o'tgach qilinadi.

Tonzilektomiyadan so'ng bir kurs antigistamin va antibakterial terapiya o'tkazish kerak.

**Dietoterapiya, rejim, antibakterial terapiya** O'SGN ni davolashning asosiy qismini tashkil qiladi. Vitaminlarni C, B<sub>1</sub>, V<sub>12</sub>, rutinni katta dozalarda buyurish hozirgi vaqtida qo'llanilmaydi, chunki bu preparatlar allergik reaksiyalarni keltirib chiqaradi, immunopatologik jarayonlarni stimullaydi yoki qon ivishini kuchaytiradi. Yuqoridagi keltirilganlar Ca preparatlariga ham ta'luqli. Alovida ta'kidlash kerakki, E-aminokapron kislota, rutin, vitamin C katta dozalarda tomir ichida qon ivishini stimullaydi, shuning uchun O'SGNda qo'llanilmaydi. O'SGN ning spetsifik davo-choralari hali ishlab chiqilmagan, ammo yuqoridagi davolash choralaridan so'ng jarayonlar ortga qaytadi.

**Patogenetik terapiyaga** buyrakda qon aylanishini yahshilovchi chora-tadbirlar: rejim, 1% nikotin kislotasi yoki geparin bilan elektroforez ; vena ichiga eufillin yoki teofillin, trental yuborish qo'llaniladi. Bu davo diuretiklik va antiagregantlik effektini beradi. Elektroforezni nikotin kislotasi va ksantinlar qatori preparatlari bilan birlgilikda qo'llash kuchli oliguriya va shish sindromlarida qo'llaniladi. Ko'p eski klinikalarda eufillinning o'rniqa boshqa antiagregantlar — dipiridamon, trental qo'llaniladi. Ammo O'SGNda antiagregantlar qo'llashning, shuningdek, fizioterapiyaning effektivligini ko'rsatuvchi dalillar klinik jihatdan isbotlanmagan. Bu geparin qo'llashga ham ta'lukli. Deyarli barcha chet davlatlari klinikalarida bu usullar qo'llanilmaydi. **Siydik haydovechi dori-darmonlar** faqatgina kuchli ifodalangan shishlarda qo'llaniladi. Shishlar bir me'yorda bo'lsa buyrak sohasiga nikotin kislotasi, yoki eufillin va trental bilan qilinadigan elektroforez bilan cheklanish mumkin. Odatda laziks (furasemid) mushak orasiga yoki vena ichiga (bir martalik dozasi 1-1,5-2 mg/kg) yuboriladi, uni gipotiazid (bir martalik dozasi 0,5-1 mg/kg furasemid bilan birga ichish uchun) yoki amilorid bilan (mäktab yoshida 5mg ichish uchun) qo'shib, furasemid qabul qilishdan 2 soat avval ichish buyuriladi. Preparatlarning kombinatsiyalangan holda qo'llanilishi nefronning turli bo'laklariga ta'sir qilib, natriyuretik va diuretik effektlarini kuchaytiradi. Furasemid va amiloridlar kombinatsiyasining ta'siri kaliyni saqlab

qolish hususiyatiga ega. Preparatlarning ta'sir muddati 3-4 soat, diffuz glomerulonefriti bor be'morlarda nikturiya kuzatiladi, shuning uchun kechasi siyidik haydovchi preparatlar berilmaydi. **Siyidik haydovchilarining quyidagi sxemada ham qo'llash mumkin:**

**soat 8-00da — furosemide, 10-00da — gipotiazid yoki triampur, 16-00da — veroshpiron.** Siyidik haydovchilarni bu usulda ko'proq NS si bor bolalarda qo'llaniladi. Siyidik haydovchi preparatlar qo'llanilish davrida siyidik orqali ko'p miqdorda kaliy, kaltsiy yo'qotiladi, shuning uchun bir vaqtning o'zida shu preparatlar ham qo'llanilishi kerak.

O'zida kaliy saqlovchi diuretiklar giperkaliemiyada ishlatalmaydi.

**Gipotenziv dori-darmonlar** kuchli namoyon bo'lувчи va turg'un gipertenziyalarda qo'llaniladi, chunki engil gipertenziya diuretiklari va parhez ta'sirida o'tib ketadi. O'SGNda kuchli va turg'un arterial gipertenziyani pasaytirishda markazga ta'sir qiluvchi dori-moddalar (klofelin, rezerpin) yoki angiotenzinga aylantiruvchi ferment ingibitorlari (kapoten va b.), a- yoki b-blakatorlar (piroksan, labetalol, anaprilin va b.), kaltsiy kanalchalari blokatorlari (nifedipin va b.) qo'llaniladi. Gipotenziv moddalar kuniga 2-3 marta beriladi.

**Eklampsida tez yordamni quyidagicha ko'rsatiladi:** vena ichiga laziks (2 mg/kg), mushak orasiga - papaverinni dibazol bilan jo'natiladi, talvasalarga qarshi diazepam (sibazon, seduksen, valium) – 0,3 – 0,5 mg/kg.

#### Dispanser nazorati

Barcha bolalar shifoxonalardan so'ng maxalliy sanatoriyalarga borishlari va keyinchalik poliklinikaning dispanser kuzatuvida bo'lishlari kerak. UASH bиринчи 3 oyda bolani 10-14 marta ko'rishi, arterial bosimni o'lhashi, siyidik tahlilini o'tkazishi kerak; keyingi 9 oy davomida shu tekshiruvlar takrorlanadi, ammo har oyda 1 martadan; 2 yil davomida – har kvartalda 1 marta o'tkazib boriladi. Bundan tashqari, siyidik taxlili har qanday interkurrent kasallikkarda albatta o'tkazilib boriladi. O'SGNni kechirgan bolalarni rejali kuzatuvdan tashqari surunkali infektsiya o'choqlar sanatsiya qilinadi (agar statsionarda qilinmagan bo'lsa). Tirik vaktsinalar bilan o'tkaziladigan profilaktik emlashlar (qizamiq, epidemic parotit) dan tibbiy cheklash 1

yilgacha qilib belgilanadi. Erta rekonvalistentsiya davrida jismoniy yuklamalardan chegaralaniladi. Yuqori nafas yo'llaridagi engil katar ham buyrak kasalliklarini jiddiy qaytalanishlariga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun kasallikning birinchi kunidanoq antibiotikoterapiya o'tkazish, o'tkir davri tugagach 10 kun o'tib qon analizi va 2-3 kunlik interval bilan siyidkni 2 marotaba tekshirish kerak. Uy rejimi – 2 haftadan kam bo'lmasligi kerak.

Agar O'SGNdan keyin 5 yil davomida xech qanday patologik o'zgarishlar kuzatilmasa, statsionarda buyrakni kompleks funktional tekshirishlarda ko'rsatkichlar me'yorida bo'lsa uni sog'aygan deb hisoblab, dispanser nazoratidan chiqariladi.

#### **Oqibati**

Izbotlangan O'SGNda hayrlı. O'tkir davrni o'tgan 90-95% bola to'la sog'ayib ketadi, 1-2% bolalarda tez progressivlanuvchi GN shakllanadi. Surunkali nefrit: 3-5% xollarda maktabgacha yoshda, 12-15% yuqori maktab yoshida rivojlanadi. Qaytalanishi va qayta xurujlari O'SGN ga xos emas, ammo bo'lishi mumkin.

#### **PROFILAKTIKASI**

Erta tashxis va albatta streptokokk etiologiyali barcha kasalliklarida antibakterial davolash ( penitsillin, makrolidlar, yarimsintetik penitsillinlar) – O'SGN profilaktikasida asosiy zveno hisoblanadi. Antibiotiklar kursi 10 kundan kam bo'lmasligi kerak. Skarlatina, angina va boshqa streptokokk etiologiyali barcha kasalliklar davrining o'rtaida – kasallikning 2-haftasi oxirida siyidkni analizga olish kasallikni erta aniqlashga va O'SGN kasalligini engilroq kechishiga imkon yaratadi. Bemor bola bilan kontaktida bo'lgan bolalar va oila a'zolari penitsillin yoki eritromitsin bilan bir kurs davolash kursini o'tishlari kerak.

#### **SURUNKALI GLOMERULONEFRITLAR**

Surunkali glomerulonefrit (SGN) - tabiatan turli birlamchi glomerulopatiyalar guruxi, persistirilanuvchi, progressivlanuvchi, yallig'lanishli, sklerozli va destruktivli jarayonlar bo'lib, keyinchalik nefronning boshqa qismlari, xususan, tubulo-interstitsial skleroz rivojlanishi bilan xarakterlanadi. SGN klinik jihatidan uzoq muddatli, qaytalanib kechishi va turli bemorlardagi klinik manzarasida polimorfizm yaqqol namoyon bo'lishi

bilan xarakterlanadi. SGN bolalarda (chaqaloqlar va go'dak yoshdagi bolalardan tashqari) surunkali buyrak etishmovchiligi (SBE)ning asosiy sabablaridan biri bo'lib 40% ni tashkil qiladi, dializ va buyrak transplantatsiyasiga ko'rsatma bo'lib hisoblanadi.

### **Etiologiyasi**

Hozirgi davrga kelib SGN birlamchi-surunkali, ya'ni sui generis kasallik bo'lib hisoblanadi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, dori-darmonlar terapiyasini noratsional olib borish (SGN ni davolashda nefrotoksik preparatlarini uzoq muddat qabul qilish, poliprogmaziya, geparinni va nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlarni noto\*g'ri qo'llash, streptokokkli infektsiyalarda antibakterial terapiyani qo'llamaslik va b.), surunkali infektsiya o'choqlarining mayjudligi, persistirlanuvchi virusli infektsiyalar, haddan ziyod antigenli yuklamalar (infektsiyalarning boshqa kasalliklar bilan birgalikda rivojlanishi yoki qaytalanishi, immunoglobulinlarni takroran yuborish, profilaktik emlashlarni noto\*g'ri o'tkazish), poligipovitaminozlar, sovuqqotish, O'GN va kasallikni kechirgandan so'ng ovqatlantirishni noto\*g'ri tashkil qilish kabi sabablarni uning SGNga transformatsiyalanishiga aloqasi yo'q deb bo'lmaydi. Shuning uchun O'SGN bilan og'rigan bemorlarni etapli ratsional davolash juda muhim.

Ko'pchilik bemorlar anamnezida O'SGN ni kechirganligi aniqlanadi, yoki shu bilan bir vaqtida SGN ning aniq bir etiologik faktorini aniqlash imkonи bo'lmaydi. Oxirgi yillarda SGN etiologiyasida latent va sekin kechuvchi infektsiyalar – V hepatitisit, tsitomegaliya, paragripp va boshqalarni roli alohida ta'kidlanmoqda.

### **Patogenez**

SGN patogenezida immupatologik jarayon asosiy rol o'ynaydi. Bunda yoki buyrak antigenlarini uzoq muddat va ko'p miqdorda qon oqimiga o'tib turishiga sabab bo'luvchi (immunologic sabablarga ko'ra – immun komplekslar, autoantitelolar, tsitotoksik limfatsitlar orqali chiqariluvchi va noimmun sabablar – nefron membranasining turg'un emasligi, gistogematik barerni turli faktorlar yordamida jarohatlanishi, shu jumladan dori-darmonlar, turli genezli buyrak displaziysi ta'sirida) buyrak jarohatlanishi yoki jarohatlanmagan to'qimaga

nisbatan autoimmun jarayon sodir bo'lishi (ko'proq sistemali kasalliklar bo'lib, bunda buyrak jarohati ikkilamchi hisoblanadi, ya'ni buyrakning zararlanishi kasallikning bir belgisi xolos) ga olib keluvchi immunologik reaktivlikning buzilishi xal qiluvchi rol o'ynaydi. Persistirlanuvchi virusli infektsiyalar har ikkala jarayonni ham keltirib chiqaradi, chunki ular ba'zilarda buyrakni faol ravishda zararlashi, shuningdek, T-supressorlar, makrofaglar faoliyatini susaytirishi mumkin.

T –supressorlar defitsiti irsiy shartlangan ham bo'lishi mumkin. Odam past immun javobini beruvchi irsiy genlari bo'yicha gomozigot bo'lganda mikroorganizmlar va ularning antigenlari qonda uzoq vaqt aylanib yurishi genetik jihatdan tanlangan bo'lishi mumkin. Buyrakning genetik determinirlangan antigen tarkibi, uning hujayra membranalalari xususiyatlari, xususan, ularga bog'lik gistogematogen barer stabilligi, streptokokklar, viruslarning bu barerlarni buzish qobiliyatları va «yashirin» buyrak antigenlarini qon oqimiga chiqishi, tug'ma va orttirilgan buyrak displaziysi – bularning barchasi SGNga moyillik tug'diruvchi faktorlar hisoblanadi.

Shuningdek, boshqa irsiy immunodefitsitlar, xususan, buyrak kasalliklari genezidagi komplement tizimining roli ham o'rganilmoqda. Ma'lumki, komplementning S1, S4, S2, S5 komponentlari etishmovchiligi tizimli qizil yugurik, qizil yugurksimon sindrom yoki segmentar mezangio-proliferativ GN ko'rinishida namoyon bo'ladi.

## **KLASSIFIKATSIYA**

### **Klinik shakllarining kechishi farqlanadi:**

- 1) gematuriya;
- 2) shish-gematuriya (nefrotik);
- 3) aralash;

Morfologik klassifikatsiyasi yuqorida keltirilgan. SGNda ko'pincha membranoz-proliferativli GN, fokal-segmentarli glomeruloskleroz, IgA - nefropatiysi, membranozli nefropatiya kuzatiladi.

### **Kasallikning davriga ko'ra glomerulonefrit:**

- 1) buyrak faoliyati buzilmagan;
- 2) buyrak faoliyati buzilishi tranzitor;
- 3) SBE(surunkali buyrak etishmovchiligi) (I, II, III, bosqichlari);

### **KLINIK MANZARASI**

**Gematurik variantda** kasallikning boshlanishini aniqlash qiyin bo'ladi: rejali tekshirilganda yoki kasallikdan keyin siydik analizida mikrogematuriya va uncha katta bo'lmagan proteinuriya topiladi. Eritrotsitlar asosan ishqorlangan bo'lib, kamroq miqdorda yangi eritrotsitlar butun ko'rish maydonini egallaydi, ammo Addis bo'yicha sinama qayta o'tkazilganida sutkalik eritrotsituriya 1-2 mln.dan ortiq bo'lib chiqadi. Odatda bolaning shikoyatlari yo'q, arterial bosim me'yorida, buyrakning funksional sinamalari normada . Ko'proq xollarda bemorlarda yashirin infektsiya o'choqlari (surunkali tonsillit va b.), engil anemiya topiladi. Anamnez diqqat bilan yig'ilganda, ba'zan bemor avval ham o'tkir nefrotik atakani kechirganini aniqlash mumkin.

**Alovida siydik sindromi** turg'un bo'lib, gematuriya intensivligi o'zgarganda ham uzoq muddatga to'liq yo'qolmaydi. Alovida gematuriyaning to'lqinsimon kechishi Berje kasalligiga xos. Alovida siydik sindromi ko'pincha hech qanday klinik belgilarsiz 10-15 yil davomida ham kechishi mumkin. Ba'zi-ba'zida bemorlar bel sohasida paydo bo'luvchi kuchsiz og'riq, shish, qorinda og'riq, holsizlik, bosh og'rigidan shikoyat qiladilar. Ba'zan patsientlar rangpar ko'rindalar, ularda anemiya, baland aretrial bosim aniqlanadi. Bu belgilarning turg'unligi SBE (surunkali buyrak etishmovchimligi) dan dalolat beradi. Buyrak biopsiya qilinganda odatda mezangioproliferativli glomerulonefrit, IgA-nefropatiya topiladi

**Shish-proteinuriyalı shaklida** simptomatika yaqqolroq ifodalangan bo'ladi, ammo rejali tekshirilganda juda kam xollarda aniqlanadi. Kasallikning asosiy belgisi massiv proteinuriya (oddiy siydik analizlarida 3% dan ortiq) va turli darajadagi shishlar hisoblanadi. Ammo, proteinuriya va shishlar orasidagi aniq

bog'liqlik doimo ham bo'lmaydi. SGNning bu shakli ko'pincha o'tkir boshlanadi: kechirilgan respirator infektsiya, angina, sovuqqotish, vaktsinatsiya, ba'zan esa hech qanday sababsiz massiv proteinuriyalı o'tkir nefrit klinikasi rivojlanadi. Davolash chora-tadbirlari o'tkazilishiga qaramay proteinuriya va shishlar deyarli qaytib ketmaydi, ammo gipertensiya va azotemiya yo'qoladi. Gipoproteinemiya, giperlipidemiya va boshqa, «Nefrotik sindrom» bo'limida keltirilgan simptomlar rivojlanadi. Buyrak biopsiyasida mezangioproliferativli glomerulitning topilishi tipik hisoblanadi. Kasallik uzoq muddat, qaytalanib, interkurrent kasallikkarga moyillik bilan kechadi. Uzoq vaqt buyrakning azotni ajratib chiqarish funksiyasi buzilmaydi, ammo kasallik nihoyasida SBE rivojlanadi. **SGNning aralash shakli** (gematuriya, shish, gipertensiya, massiv proteinuriya) ning oqibati yomon hisoblanadi, SBE juda erta rivojlanadi. Kasallik o'tkir nefritga o'xshab boshlanadi, ammo jarayon kurabelligi uncha katta emas. Yuqoridagi simptomatikalarga gipertensiya belgilari: belda og'riq, bosh og'rigi, bosh aylanishi, asabiylik yoki lanjlik, ko'rish qobiliyatining pasayishi qo'shiladi. Ba'zan yuz nervining paralichi og'ir gipertenzianing yagona belgisi bo'lishi mumkin. Gipertensiyalı entsefalopatiyadan avval (yoki unga hamroh) qayt qilish, giperrefleksiya, ataksiya va o'choqli yoki tarqalgan talvasalar kuzatilishi mumkin. Yurakning nisbiy chegaralari chapga siljiydi, cho'qqi sohasida sistolik shovqin eshitiladi. Bemorda ko'pincha anemiya aniqlanadi. Rentgenografiyada yurak «o'tirgan o'rdak» ko'rinishida, EKGda chap qorincha zo'riqishi belgilari aniqlanadi. Arterial bosim yoshiga xos me'yordan ancha baland (**maksimal bosim mm.sm.ust.larida 90+ 2n;**  
**n** — yillarda yoshi; **minimali maksimalning  $\frac{1}{2} + 10$** ).

Ko'z tubini tekshirish natijalari gipertonik angiopatiya borligidan dalolat beradi. Surunkali nefritning bu kechishida 1-2 yil o'tib yoki bundan ham ertaroq surunkali buyrak etishmovchiligi kelib chiqadi. Buyrak biopsiyasida odatda proliferativ-fibroplastik glomerulonefrit ko'rindi. SBEning klinik manzarasi quyida keltirilgan.

## **Diagnoz**

SGN diagnozi klinik-laborator tekshirishlar kompleksiga asoslanib qo‘yiladi. Nefrotik sindromi bor bemorlar Hb – antigenemiyaga, tsitomegaliyaga tekshiriladi, yoki ularning antitelolari darajasi aniqlanadi. V. I. Naumova SGN bilan og‘rigan bolalarning 69% ida Hb-infektsiyani topdi.

**Nefrologik** markazlarda o‘tkazilayotgan kompleks terapiyaga qaramay nefropatiyaning torpidli kechganida (ayniqsa nefrologik sindrom gipertenziya bilan birga kechganda), amiloidoz va buyrak dizembriogeneziga gumon bo‘lganida buyrak biopsiyasi qilinadi.

**Biopsiyaga qarshi ko‘rsatma bo‘lib hisoblanadi:** SBEning III bosqichi, buyrak kistalari va o‘simalari, buyrak tuberkulyozi, paranefrit va pielonefrit, buyrak arteriyasining anevrizmi, yagona yoki burishib qolgan buyrak, gemorragik diatez aniqlangan yoki unga gumon bo‘lgan bo‘lsa (ko‘proq trombotsitopatiyalar), minimal AB 90 mm sm. ust.dan ortiq arterial gipertenziya.

Biopsianing asosiy mohiyati shundaki, diagnogza aniqlik kiritish, ya’ni buyrak jarohatining morfologik tipini aniqlash, bundan bemorga glyukokortikoidlar, tsitostatiklar (immunodepressantlar) bilan davolashning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi masalani hal qilishdan iborat.

Biopsiya materialini nurli, elektron va immunofluorescentli mikroskopiyasini o‘tkazish nefropatiyalar oqibatini aniqlashga imkon beradi. Buyrak to‘qimasining gipoplaziysi va dizembriogenezini topilishi immunodepressantlar bilan o‘tkaziladigan terapiyaning befoyda ekanligini ko‘rsatadi, chunki ularning zararlovchi ta’sirlari kuchli bo‘lib, davolashda samara bermaydi. GN kechishi fokal diffuz skleroz bilan asoratlangan, lobulyar va ekstrakapillyar o‘zgarishlar (bunday bemorlarda gipertenziya doim bor ) rivojlangan NS da faqat glyukokortikoidlar bilan davolash effektiv emas. Amiloidoz, infektsiyalar, o’sma kasalliklari glyukokortikoidlar buyurishga qarshi ko‘rsatma hisoblanadi.

Membranoz, diffuz fibroplastik va ekstrakapillyar tipdagi o‘zgarishlar tsitostatiklar, glyukokortikoidlar, antikoagulyantlar, antiagregantlar kombinatsiyalarini erta buyurishga ko‘rsatma bo‘la oladi.

### **Differentsial diagnoz**

SGNni ko‘pincha surunkali pielonefridan differentsial diagnostika qilinadi. Chunki, glomerulonefrit bilan og‘rigan bemorlarda interstsial jarohatlanish natijasida kelib chiqadigan leykotsuriya kuzatiladi. Siydkni sistematik ekish, bakteriuriya darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan testlar, ba‘zan vena ichi urografiysi to‘g‘ri diagnoz qo‘yishga yordam beradi. SBEda leykotsuriya, mikrob-yallig‘lanishli jarayon yo‘q bo‘lsa ham, ya’ni pielonefrtsiz ham kuzatilishi mumkin.

Yaqin qarindoshlar orasida buyrak kasalliklarining bo‘lishi, dizembriogenetik stigmalarни aniqlanishi, bolani bo‘y o‘sishida orqada qolishi, eshitish qobiliyatining pastligi, terapiyaga nisbatan jarayonning torpidligi shifokorni irsiy nefrit yoki buyrak disembriogenezi borligini asoslovchi ma‘lumotlar izlashga chorlaydi. Agar bemorda buyrak zararlanganidan tashqari artropatiyalar, teridagi o‘zgarishlar, isitmalash kuzatilsa sistemali qizil yugurikka tekshirish kerak. HLA B8, DRw3, DR3, SC01, Sw7 bor insonlar sistemali qizil yugurikka moyil bo‘ladilar, S2 defitsitida HLA Dw2, V18 uchrashi ko‘p bo‘ladi. Alovida turg‘un gematuriyada buyrak tosh kasalligi, o‘smalar, buyrak tuberkulyozi, irsiy nefrit, buyrak tomirlari zararlanishi, dori terapiyasida asoratlanishlar bilan differentsial diagnostika o‘tkaziladi.

### **Davolash**

Terapiya kasallik shakliga, buyrak etishmovchiligi bor yoki yo‘qligi va davriga ko‘ra, hamroh kasalliklar va asoratlarini inobatga olgan holda individual bo‘lishi kerak. Shifokor doim jarayon faolligi, kasallikni zo‘rayib ketishi mumkinligini inobatga olishi va shundan keyingina u yoki bu faol medikamentoz tizimning xavfini baholashi kerak. Faol terapiyaga qadam qo‘ygach, shu narsaga ishonch bo‘lishi kerakki, davolashdagi zararli ta’sirlar va asoratlar (yaqin va uzoq) SGN progressivlanishi yoki sekinlashuviga qaraganda kamroqdir. Afsuski, adabiyotlarda aynan SGN bilan og‘rigan bemorlar uchun juda ko‘p qarama-qarshi tavsiyalar ko‘paygan, shuning uchun buyrak biopsiyasi SGN diagnozini qo‘yishda maqsadga muvofiq sanaladi. Ammo buyrak biopsiyasi natijalari baholanganidan keyin ham terapiya kasallikning klinik variantiga binoan aniqlanadi. MPGN (mezangio-proleferativ GN) da kompleks to‘rt komponentli terapiya zarurligi

to'g'risida ko'pchilik fikri bir xil. SGNning bazis terapiyasi to'g'risida so'z yuritilganda, avvalambor o'z ichiga parhez, fizioterapiya, hamroh kasallikkarni izlab topish va ularni ratsional davolashni o'z ichiga oladi.

**Parhez** buyrakning funksional xolatiga bog'lik. Buyrak faoliyatida buzilishlar bo'lmasa osh tuzini bir oz chegaralash (kuniga 30-35 mg/kg) maqsadga muvofiq bo'lib, kundalik ratsiondan barcha konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari, qo'ziqorin va undan tayyorlangan mahsulotlar, go'sht va baliqdan tayyorlangan bulyonlar, shirinliklar, dudlangan mahsulotlar, tuzlamalar, gistamin yoki uning ajralishini kuchaytiruvchi mahsulotlar chiqarilib yuboriladi. Shunday qilib, ratsionda faqatgina foydali mahsulotlar qoldiriladi. Gematurik variantda kechuvchi SGNning qaytalangan davrida parhez xuddi O'GN dagi kabi tashkil etiladi.

Gematuriya va aralish kechuvchi shakllarining qaytalanishida tuzsiz va kam oqsilli (oqsilning sutkalik miqdori 1 mg/kg) parhez buyuriladi, ya'ni №3 stol. Ammo parhezni kengaytirish va oqsilli yuklamani ko'paytirish o'tkir nefritdagidan ko'ra shoshmayroq amalga oshiriladi. Ayniqsa bu azotemiya kuzatilgan bemorlarga ta'luqli. Tuzni qat'iy cheklash muddati gipertensiya, shishlarga bog'liq. Suyuqlik rejasi xuddi O'G dagi singari.

**Rejim** bemorning umumiylahohi ahvoli, gipertensiya va shishlar holatiga bog'liq. Shuni unutmaslik kerakki, bemorlarning uzoq muddat suvsizlanishi maqsadga muvofik emas, bu SGNda harakatlar kamayganda kuchayuvchi suyaklar demineralizatsiyasi rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Yotoq rejimi faqatgina kasallik qaytalangandagi og'ir ahvollardagina tayinlanadi.

**Fitoterapiya.** N.G.Kovaleva o'zining ko'p yillik tajribasidan kelib chiqib, buyragida surunkali kasalliklari bor bemorlarga quyidagi dorivor o'simliklar to'plamlarini taysiya qiladi: lavanda bashog'i (Lavandula spila), o'ti — 10 g; qora smorodina, bargi — 10 g; oq qayin daraxti bargi — 10 g; budra plyuhevidnaya giyox — 10 g; oddiy archa (Juniperus communis) mevasi — 10 r; oddiy qulmoq (Humulus lupulus) yongogi — 10 r; krim atirguli barglari — 10 r; oddiy tolokneanka barglari — 20 r; davolovchi lukovisa - 20 r; oddiy brusnika bargi — 20 r; zubtrum

— 20 r; ikki uyli gazanda (krapiva dvudomnaya),(Urtica dioica) giyox — 30 r; na'matak tuyilgan mevalari- 40 r; o'rmon qulupnayi (Fragaria vesca) mevasi — 60 r; dala qirq bo'g'imi (Equisetum avense) kurtagi — 60 r. 5-6 r.yig'mani 500 ml qaynagan suvgaga 30 min.davomida damlanadi ; 50-150 mldan 3 marta ovqatlanishdan yarim soat avval iliq xolda ichiladi, qaynatilmaydi ;

Surunkali infektsiya o'choqlarini sanatsiya qilish, xoletsistopatiyalar va boshqa hamroh kasalliklarni davolash – bemorlarning terapiyasida juda muhim zveno. Bunda nefrotoksisik preparatlardan, u-globulin, qon preparatlari, ortiqcha vitaminterapiya, ya'ni immunokompetent tizimni faollashtiruvchi dori-moddalardan foydalanimaydi. Agar persistirlanuvchi virusli infektsiyalar topilsa, barcha chora-tadbirlar ularni davolashga qaratilishi kerak (interferonlar yoki interferonogenlar, immunomodullovchi terapiya, spetsifik himiopreparatlar va b.).

Simptomatik terapiya «O'tkir glomerulonefrit» bo'limida berilgan davo choralar qo'llaniladi.

**Medikamentoz davolash.** Glyukokortikoidlar alohida xolda qo'llanilmaydi. Morfologik membranoz glomerulonefritda (asosan proteinuriya va shish klinik simptomlarini asta-sekinlik bilan rivojlanishi) dietoterapiyaga bir qancha vaqt kurantil (10 mg/kg sutkasiga 3 marta) yoki indometatsin ( 3 mg/kg sutkasiga 3 marta ) qo'shiladi, agar buyrak etishmovchiligi yoki gipertenziyaning, hatto boshlang'ich belgilari kuzatilsa ham, darxol glyuko-kortikoid, tsitostatik va antiagregantlar kompleks terapiyasini qo'llash maqsadga muvofiq. Oxirgi yillarda immunodepressorlardan ko'proq tsiklosporin A 3-10 mg/kg sutkada dozalarda tavsiya qilinadi. Bunda preparatning dozasi asta-sekinlik bilan orttirib boriladi va uning qondagi miqdorini nazorat qilinadi, uning miqdori 400-450 ng/ml dan orttirmasligi kerak. Tsiklofosfan nefrotoksisik ta'sirga ega bo'lib, qaytarib bo'lmas O'BE ga olib kelishi mumkin. Boshqa tsitostatiklardan tsiklofosfamid yoki azatioprin, xlorbutsil berish ham mumkin.

**Mezangio-prolifirativ** SGN ning birinchi hurujida glyukokortikoidlar bilan, qayta hurujida 4-komponentlik terapiya (glyukokortikoidlar + tsitostatik + heparin + antiagregant) yordamida davolanadi.

**Fokal-segmentar** glomeruloskleroz – surunkali glomerulonefritning terapiyaga rezistent shakli, shuning uchun ikki xil nuqtai-nazar mavjud: ushlab turuvchi va simptomatik terapiya qo'llaniladi,

1) faol kompleks 4-komponentli terapiya vaqtি-vaqtি bilan glyukokortikoidli puls-terapiya kursi bilan;

#### **Oqibati**

SGNda oqibat klinik shakli va kechishiga bog'lik. Aralash shakllarida oqibati og'irroq, boshqa variantlarida – nisbatan hayrli. To'liq tuzalib ketish extimoli Birje kasaligi, koptokchalar membranasining minimal o'zgarishi bilan kechuvchi nefrotik sindromda (80-90%) bor. Takomillashib borayotgan kompleks terapiya boshqa klinik shakllarida ham oqibatini yaxshilanishiga imkon bermoqda. Gemodializ va buyrakni ko'chirib o'tqazish kabi zamonaviy usullar SBE bor bemorlar umrini uzaytirishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Ammo nefrolog-terapevtlar fikricha SGN – bu «to'xtovsiz progressirlanuvechi: jarayon boshlangach asta sekin buyrak to'qimasini sklerozlanishiga olib keladigan kasallik ». To'la sog'ayib ketganlar juda kam. Xatto O'G bilan og'rigan bemorlarning deyarli yarmida o'z izini qoldiradi, sog'ayganga o'xshagani bilan ko'p yillar o'tib yana uremiyaga olib kelishi mumkin.

#### **Dispanser kuzatuvi**

SGN og'rigan bemorlarni dispanser kuzatuvi ular kattalar poliklinikasiga o'tguniga qadar olib boriladi: uchastka pediatri oyda bir marta siyidik analizi olingach arterial bosimni o'chaydi. Har 2-3 oyda bir marta bemorga Zimnitskiy sinamasi, yilda 2 marta – EKG, stomatolog va otolaringolog ko'ruvi o'tkaziladi. Dori-darmonlar kasallik shakli va kechishi xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Kovaleva bo'yicha buyrak o't yig'indisidan tayyorlangan damlamasidan ichish 1-2 oylik kurslar 1 oylik interval bilan buyuriladi. Individual profilaktik emlashlar va fizkultura bilan shug'ullanish shart.

### **Spetsifik profilaktikasi ishlab chiqilmagan, ammo juda muhim:**

- 1) surunkali infektsiya o'choqlari bor bolalarda hamroh kasalliklarni (immunoglobulinga va qon preparatlaridan, o'ta ko'p miqdorda dori-darmonlar, ayniqsa nefrotoksic dorilar qo'llamasdan) aniqlab borish va sanatsiya qilish;
- 2) davolash bo'slimida yozilgan parhez (buyrak etishmovchiligi yo'q bemorlarga oid) ga doimiy ravishda amal qilish;
- 3) bolani sovuqdan va tashqi muhitning keskin o'zgarishlaridan himoya qilish. Surunkali infektsiya o'choqlari, bodomcha bezlari, adenoidlarni hirurgik yo'l bilan davolashda masalaning har bir konkret xolatiga individual yondoshib, operatsiya ta'sirida kasallik qaytalanishi mumkinligini yoddan chiqarmagan xolda hal qilinadi.

## **IV BOB**

### **PIELONEFRIT (PEN)**

PEN-buyrakning mikroblı yallig'lanish kasalligi bo'slib, buyrak kosacha-jomchalari tizimi, interstitsial to'qima, parenxima va kanalchalarining zararlanishi bilan kechadi. Turli avtorlar ma'lumotlariga ko'ra, PEN 2-3% kattalarda(autopsiya materiallarida IN va PEN belgilari 15% kattalarda aniqlanadi), 50-70% xollarda kasallik erta yoshda boshlanadi. Hayotining qolgan davrlarida uzoq muddatli klinik remissiya bo'lishi mumkin.

#### **Etiologiya**

PENni keltirib chiqaruvchi bakteriyalar ko'pincha sog'lom organizmida doimiy yashovchi, ya'ni ichak kommensallari: ichak tayoqchasi, protey, enterokokklar, klebsielalar, kamroq xollarda yaltiroq stafilocokk yoki teri stafilocokki, ko'k-yiring tayoqchasi hisoblanadi.

Ko'pincha siydkdan ichak tayoqchasi va protey, uning uropatogen xillari (O-antigenlari bo'yicha E. coli 0-6, 0-2, 0-4, 0-75, 0-1 serotiplari, K-antigenlari bo'yicha 1, 2; ko'proq rettgeri xildagi proteus, shuningdek mirabilis) topiladi. Oxirgi o'n yillar ichida pielonefrit bilan og'rigan bolalar siydigidan

enterobakterlar, klebsiellalar, epidermal stafilokokklar, Candida turiga kiruvchi zambrug'lar ekilada.

Buyrakda bakterial antigenlarning o'tirishida, shuningdek uretritni chaqirishda viruslar, mikoplazmalar (urealyticum, genitalium, ba'zan, hominis), xlamidiyalar muhim o'rinni egallaydi.

PEN ga

moyillik tug'diruvchi asosiy omillardan biri surunkali buyrak kasalligining bo'lishi, oilaning boshqa a'zolarida, ayniqsa onasida PEN bo'lishi hisoblanadi (xususan, homiladorlik davrida PEN). L.S.Lozovskaya ta'kidlashicha, taxminan 50% PEN bilan og'rigan bemorlar qoni yoki siydigidan Koksaki virusining ayrim turlarini topish mumkin (PENi yo'q bolalarda 5-10 marta kamroq). V-Koksaki virusli PEN bilan og'rigan onalardan tug'ilgan chaqaloqlarning 50% ini kindik qonidan o'sha virus variantidan birini topish mumkin. Bunday chaqaloqlarni katamnez tekshirish ularning ko'pchiligidagi keyinchalik bakterial pielonefrit rivojlanganligini ko'rsatdi.

SBEning patogenezida irsiy omilning axamiyati kata. Xususan, PEN siydik bilan tsistin, shavel kislotasi va uning tuzlari, siydik kislotasi, fosfatlar, triptofan almashinuvi moddalarini ko'p miqdorda ajralib chiquvchi ksantomatoz, moddalar almashinuvining irsiy nuqsonlari va tubulopatiyalar belgilari ham bo'lishi mumkin. Immunitetning irsiy nuqsonlari, buyrak disembriseneziga olib keluvchi fetopatiyalar – bu barcha faktorlar pielonefrit kelib chiqishiga moyillik tug'diruvchi omillar hisoblanadi.

### **Patogenez**

Ko'pchilik uropatogen grammanfiy bakteriyalar oqsil tabiatli kiprikchalar - R-fimbriyalarga ega bo'lib, ular yordamida siydik yo'lli to'qimalariga osongina yopishib oladi. R-fimbriya uchun retseptorlar bo'lib uroepiteliya glikosfingolipidlari hisoblanadilar. Bakteriyalarning K-antigenlari opsonizatsiya va fagotsitzga to'sqinlik qiladi, bakterial lipopolisaxarid hisoblangan O - antigenlar esa uning endogen toksiklik ta'sirini ta'minlaydi. Grammanfiy bakteriyalarning endotoksnini (lipopolisaxarid A) siydik yo'llarining silliq muskullariga kuchli ta'sir qilib,

ularning peristaltika faoliyatini pasaytiradi, yoki to'la blokada qiladi va funksional obstruktsiyasini keltirib chiqaradi.


Urodinamikaning bu buzilishlari loxanka ichi va siyidik naychalaridagi bosimni ko'tarilishiga, pielotubulyar reflyuksning paydo bo'lishiga olib keladi. Uroepiteliyaga bakteriyalar adgeziyasi ularni siyidik yo'llaridan mexanik ravishda yuvilib ketishiga qarshilik qiladi, urodinamikani izdan chiqaruvchi endotoksiklik effekti esa bakteriyalarni siyidik yo'llari orqali retrograd harakat qilishini osonlashtiradi. Bundan tashqari, proteylar a-uraeza ishlab chiqaradi, uning ta'sirida hosil bo'lувчи ammiak esa buyrak to'qimasida nekrozni keltirib chaqiradi. Kasallik kechishi davomida shtammlar va hattoki qo'zgatuvchilar turi ham o'zgarib turishi mumkin ; ko'pincha kasallikning qaytalanishini aralash bakterial flora chaqirgan bo'ladi (PEN surunkali kechgan 25% xollarda). Disbakterioz bilan kechuvchi qabziyat va boshqa oshqozon-ichak tizimi kasalliklari bolalarda ko'pincha PEN hamroxi (bakterial flora «tashuvchilari») bo'ladi. Shuning uchun ko'pchilik avtorlar shunday hulosa qiladilarki, bakteriyalarning uropatogen shtammlarining asosiy kirish yo'li limfogan bo'lib, ularning asosiy manbaasi esa ichak hisoblanadi.

Antibakterial terapiya tugallanganidan so'ng bemorda bakteriuriyaning yo'qolishi bundan keyin ham buyrak zararlanishi patogenezidagi asosiy rolni bakteriyalar o'ynashini inkor eta olmaydi. Kasallik xurujidan so'ng 2-5 oy davomida bakteriuriya kuzatilmagan bo'lsa ham, yana 5-6 oy davomida buyrakda bakterial antigenlar (lipopolisaxaridlar) topiladi. Bemor bolalar buyraklarida amorf bakterial antigenning uzoq muddat tsirkulyatsiya qilishi buyraklarda reinfektsiyalanishni osonlashtiradi. Surunkali pielonefrit patogenezida bakteriyalarning L-formalari yoki protoplastlar, ya'ni hujayra qobig'ini yo'qotgan bakteriyalar muhim rol o'ynaydi. Protoplastlar organizm to'qimalarining gipotonik muhitida halok bo'ladilar, ammo buyrakning miya qavati yoki intra-epitelial parazitlik davrida organizm reaktivligi pasayganida, masalan interkurrent infektsiyalar ta'sirida, kuchayib, vegetativ shaklga o'tadi.

Zamonaviy tekshirishlar ko'rsatishicha, PEN bilan og'rigan ko'pchilik bemorlarda uroдинамик бузилишлар кузатилиши мумкин бо'lib, ular табиий siyishning qiyinlashuvi yoki бузилишлари ko'rinishida кузатилади. Bunda uroдинамика бузилишлари PENga olib keladi, faqat uroдинамик бузилишлар mayjudligi tufayligina PEN kelib chiqishi мумкин. Aynan ko'tariluvchi (urinogen) infektsiyalanish qo'zg'atuvchining avval buyraklar loxankasiga, so'ng kanalchalarga, interstitsiyaga o'tishida asosiy yo'l hisoblanadi. Tushintirish, shunday qilib, siydikni doimiy pastga qarab oqib turishi natijasida mikroblar buyrakka tushadi (reflyuks – oqimni qaytishi reflyuksi).

**Reflyukslar** patologik xолатлар bo'lib, siydik oqimiga qаршилик qiluvchi anatomik defektlar (ular 100дан ортиқ, ба'зилари 82-rasmда көтүрілген) yoki siydik tizimining turli bo'laklarida, ko'pincha pastki bo'laklarida, muskullar tonusи reguliyatsiyasini бузилишлари natijasida kelib chiqishi мумкин.

Ammo, ko'pchilik sog'lom go'dak bolalarda ham fiziologik reflyukslar кузатилиши мумкин.



1. - kosacha bo'yin qismi diskineziyasi,
2. - kosacha bo'yni qismining torayishi
3. - jomcha toshi,
4. - qo'shimcha tomir,
5. - siydiq nayı toshi,
6. - siydiq nayini ezib qo'yuvchi o'sma,
7. - siydiq nayı axlaziyasi,
8. - siydiq nayı strikturasi,
9. - ureteroots
- 10.— siydiq pufagining mioneyrogen atoniyasi,
- 11.— siydiq pufagi toshi,
- 12.— siydiq pufagi divertikuli,
- 13.— siydiq pufagi bo'ynining sklerozi,
- 14.— Prostata bezi tug'ma kasalliklari,
- 15.— siydiq chiqaruv kanali strikturasi,
- 16.— siydiq chiqaruv kanali divertikuli,
- 17.— siydiq chiqaruv kanali tashqi tirqishini torayib qolishi,
- 18.— fimoz.

Pufak-naycha va loxanka-buyrak reflyukslari farqlanadi. Oxirgisi, o'z navbatida, pielotubulyar fornikal (jomcha asosining uzilishi) reflyukslariga ajratiladi. Buyrakning yuqoriga ko'tarilish bilan infektsiyalanishida asosan pufak-naycha reflyuksiga ahamiyat beriladi - **vezikoureteral reflyuks (VUR)**.

Xalqaro klassifikatsiyaga binoan VURning 5ta darajasi farqlanadi:

- I daraja — tsistografiyada kontrast faqat naychaga tushdi;
- II daraja — kontrast tashqaridan o'zgarmagan naychani, loxankani va jomehalarini to'ldirdi;
- III daraja — nayning engil kengayishdan o'rtacha kengayishigacha va (yoki) uning burilib qolishi, loxankani o'rtacha kengayishi ; jomchalarining yassilanishib qolishi rasmi;
- IV daraja— yaqqol kengaygan va burilgan naycha, loxanka, jomchalar : jomchalar suratida o'tkir burchaklar butunlay yo'qolgan, ammo ko'p jomchalar papillyar surati saqlanganday;
- V-daraja — kuchli kengayish va naycha buralishi (megaureter) va loxankalar, jomchalar buralishi; jomchalarining papillyar surati yo'qolgan

Qator mualliflar fikricha, IV-V darajali VUR loxanka-buyrak reflyuksi borligi buyrakda chandiqlar hosil bo'lishiga kuchli moyillik faktori hisoblanadi.

VUR quyidagi sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin:

1) anatomik defektlar (uretra divertikuli yoki ikkilanishi; naycha aktopiyasi; mushak orasida qisqa, ya'nii siyidik pufagi devorida, uretruning bir qismi uzunligiga, diametriga nisbatan me'yorda 4-5:1, VURda esa 1,5:1; Leto uchburchagi sohasida mushaklar va nerv oxirlarining patologiyasi – siyidik naylari va siyidik chiqarish kanali teshikchalari orasidagi uchburchak va b.)

2) tsistit;

3) siydik pufagi devori mushaklari va sfinkter apparatida nerv regulyatsiyasini buzilishi natijasida **«neyrogen siydik pufagi» (NSP)** deb ataluvchi funksional buzilishlar.

VUR bo'lishi mumkin:

- tug'ma;
- irsiy genezli;

NSP termini siydik pufagining nerv tizimining har xil bo'laklaridagi (miya po'stlog'idan to intramural apparatgacha) zararlanishlarning har xil rezervuar va evakuator shakldagi buzilishlarini birlashtiradi. VUR III—V darajasidagi NSPning eng og'ir turi mielodisplaziyalari (ba'zi mualliflar bunday kasallarning 1/3, 1/2 ida orqa miya churramasi borligi ko'rsatadilar), travmalar (shu jumladan, orqa miyaning tug'ruqda shikastlanishlari ham), o'sma kasalligi, orqa miyaning yallig'lanish-degenerativ kasalliklari, orqa miyadan tashqari o'tkazuvchi yo'llarning kasalliklarida kuzatiladi. V. M. Derjavin ma'lumotlariga ko'ra, bolalarda NMPning ko'p uchraydigan tormozlanmaydigan giperreflektor turi ko'p uchrab, detruzor (siydik pufagining mushak devori) siydik kelishiga delyatatsiya bilan emas, balki ritmik, o'zgaruvchan yuqori bosimli qisqarishlar bilan javob beradi. Bunday bolalarda pollakiuriya, siydik qistashining kuchayishi kuzatiladi. NSPning ikkinchi - giporeflektor varianti kam siyish, siydik hajmining ko'payishi, ischuria paradoxa (siydik pufagi to'lib ketgan hollarda ham siydikni tomchilab chiqishi bilan harakterlanuvchi paradoksal siydik tuta olmaslik. Tablitsada har ikkala variantning differentials-diagnostik tafovutlari keltirilgan.

VUR ning asosiy asorati **reflyuks-nefropatiya** bo'lib, u fokal skleroz, tubulo-interstitsial funksiyalarni buzilishi, doimiy proteinuriya, glomerulyar filtratsiyaning pasayishi, arterial gipertensiyanı hosil qiladi, bu bilan surunkali buyrak etishmovchiligi (SBE) ga katta xavf-xatar guruxini shakkantiradi. DJ. Levi fikricha 5 yoshgacha bo'lgan bolalardagi reflyuks-nefropatiya buyraklarda chandiq hosil qilishi mumkin. 7-15 yoshli bolalarni ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, VUR to'xtaydi (yoki yo'qoladi); I

darajada - 89%; II darajada — 86%; va III darajada-83% hollarda, IV va V darajalarda esa – faqatgina 41% xollarda.

**Tablitsa 6.**

**Neyrogen siyidik pufagi turli shakllarining differentsial-diagnostik kriteriyalari (A.V.Papayan va D.V.Marushkin, 1997)**

Belgilari	Giperrefleksiya	Giporefleksiya
Siyidik pufagi tonusi	Ortgan	Pasaygan
Siyishlar soni	Tez, kichik portsiyalarda	Pasaygan
Siyishga qistov xarakteri	Kuchaygan, imperativ chaqiruv	Kuchsiz yoki yo'q
Siyish akti xarakteri	Shoshinqirashlik bilan	Sekin-astalik bilan, bir necha portsiyalarda
Siyidik pufagi hajmi	Kichraygan	Kattalashgan
Qoldiq siyidik	Yo'q	Bor
Asoratlari	Ko'proq asoratsiz	Ko'pincha siyidik yo'llari infektsiyalari qo'shiladi

Homiladagi og'ir VUR chaqaloqlik davridanoq buyrak parenhimasining katta yo'qotishlariga va buyrak etishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Chaqaloqlarda VUR siyidik yo'llari infektsiyalari bilan ko'pincha PENga sabab bo'ladi. Siyidik yo'llari infektsiyalari tranzitor VUR ga olib kelishi mumkin. Bolalardagi simptomsiz kechgan bakteriuriyalarda VUR kuzatiladi (maktab yoshidagi 1-2% qiz bolalarda va 0,05% o'g'il bolalarda) deb hisoblanadi.

PEN kelib chiqishining ikkinchi sharti (birinchisi urodinamiya buzilishi) - buyrak interstsial to'qimasining jarohatlanishi hisoblanadi. Uning sabablari viruslar va mikoplazma infektsiyalari (masalan, homiladorlik davridagi Koksaki V, mikoplazmali, tsitomegaliya va b.), dori vositalari ta'sirida jarohatlanish (masalan, D gipervitaminozi), dismetabolik nefropatiya, ksantomatoz va boshqalar bo'lishi mumkin. Diqqat bilan tekshirganda V.M.Derjavin va hammualiflar 15-20% bolalardagi PEN ning surunkali shaklida (SPEN) tug'ma buyrak displaziysi, 12% da - buyrak tomirlarida etilmaganlik belgilarini aniqladilar.

Yuqoridagi obstruktiv buzilishlar natijasida shakllangan VUR, buyrak interstsiya jarohatlanishi natijasida ularda «locus minoris resistantiae» shakllanadi, organizmning reaktivligi past bo'lgan muhitda bakteriemiya va bakteriuriya rivojlansa PEN kelib chiqadi yoki qaytalanadi.

Bakteriuriya va bakteremiya sabablari jinsiy a'zolarning interkurrent kasalliklari(vulvitlar, vulvovaginitlar va b.), tishlar kariesi, surunkali xoletsistit, kolit, surunkali tonzillit va b. ham bo'lishi mumkin. Klinik tajriba shuni ko'rsatdiki, oshqozon-ichak trakti kasalliklari PEN ga chalingan bemorlarda ko'p uchraydi.

Hozirga kelib qator bemorlardagi SPEN patogenezida autoallergiya muhim rol o'ynashi aniqlandi. Buni, siyidkan ajratib olingan qo'zgatuvchiga nisbatan gipersezgirlikning sekin kechuvchi turi (leykotsitoliz, blasttransformatsiya reaksiyalari, makrofaglar reaksiyasini esa – faqatgina 41% xollarda to'xtab qolishi va b.) ni musbat bo'lishi, qonda Temmi—Xorsfell oqsiliga qarshi antitelolarning topilishi ko'rsatdi.

Shunday qilib, PEN patogenezida quyidagi faktorlar rol o'ynaydi:

- 1) urodinamika buzilishlari – siyidik tutilishiga olib keluvechi siyidik yo'llari anomaliyalari, VUR;
- 2) o'tkir kasalliklar, shuningdek, surunkali infektsiya o'choqlari (ko'pincha oshqozon-ichak trakti disbakteriozlarida yoki tashqi jinsiy a'zolarda), yoki

mezenterial limfa tugunlardan bakteriyalarni o'tib ketishi sababli rivojlangan bakteriuriya;

3) buyrak interstitsial to'qimasida zararlanishlar bo'lib o'tganligi (metabolik nefropatiyalar, kechirilgan virusli kasalliklar, ba'zi dori moddalariga ruju qo'yish, D gipervitaminozi va b.);

4) organizm reaktivligi, uning gomeostazi, xususan immunologik reaktivligining buzilishi.

PEN qaytalangan davrida immunologik reaktivligi pasayishi quyidagilar: neyrofillarning fagotsitar aktivligi pasayishi va uning oxirigacha etkazilishi jarayonining buzilishi, T-supressorlar ko'paygan bir vaqtida T-hujayralarning umumiy miqdorini kamayishi bilan namoyon bo'ladi. O'PEN (O'tkir pielonefrit) da 90% bemorlar siydigida antitelolar bilan qoplangan bakteriyalar topiladi, SPEN (surunkali pielonefrit) da esa bu holat 10% ni tashkil qiladi.

PENDa bakteriyalarni kirishib joylanishi bir xilda bo'lmasligi tufayli buyraklarda patologik jarayon diffuz xarakterda bo'lmaydi, balki bir tomonlama ham bo'lishi mumkin. Ko'tarilib boruvchi infektsiya va interstitsial yallig'lanish birinchi navbatda miya qismini, ya'ni o'zida yig'uvchi naychalar va distal kanalchalarning bir qismini o'z ichiga olgan qismini zararlaydi. Nefronning bu bo'laklarini zararlanishi buyrakning po'stloq qismida joylashgan kanalchalar funktsional holatini ham buzadi. Yallig'lanish jarayoni po'stloq qismga o'tib to'pchalar funktsiyasining ikkilamchi buzilishiga sabab bo'ladi, bu o'z navbatida buyrakning total etishmovchiligidagi olib keladi.

### Klassifikatsiya

**Patogenezi bo'yicha PENning quyidagi shakllari farqlanadi:**

- 1) birlamchi;
- 2) ikkilamchi:
  - a) obstruktiv;
  - b) obstruktiv bo'lmagan;

**kechishiga ko'ra:**

- 1) o'tkir,
- 2) surunkali;
- 3) a)retsidiylanuvchi manifest shakli; b)latent shakli;

**davrige ko'ra:**

- 1) qaytalanish (faol);
- 2) simptomlarning qaytishi (qisman remissiya);
- 3) remissiya (kliniko-laborator);

**buyrak funktsiyasiga ko'ra:**

- 1) buyrak funktsiyasi buzilishlarisiz;
- 2) buyrak funktsiyasi buzilishlari bilan;
- 3) surunkali buyrak etishmovchiligi

**Birlamchi pielonefrit PEN** – buyrak parenximasidagi mikroblı yallig'lanish jarayoni bo'lib, zamonaviy tekshirish usullari qo'llash buyrak tubulointerstitsial to'qimasiga mikroblar yopishishi va yalliglanish jarayoni sodir etuvchi faktorlar va shart-sharoitlarni aniqlash imkonini bermaydi.

**Ikkilamchi obstruktiv PEN** – mikroblı yallig'lanish jarayoni bo'lib, urodinamikaning organik (tug'ma, irsiy yoki orttirilgan) yoki funksional (veziko-uretral reflyuksli neyrogen siyidik pufagi) buzilishlari oqibatida rivojlanadi.

**Ikkilamchi obstruktiv bo'limgan PEN** – buyrak tuqimasidagi mikroblı yallig'lanish jarayoni bo'lib, buyrak parenxima interstitsiyasining moddalar almashinuvি (oksalaturiya, uraturiya, fosfaturiya, tsistinuriya va x.), buyrak disembriogenezining irsiy, virus etiologiyali tug'ma, tug'ma va orttirilgan immunodefisitsit holatlari, endokrin kasalliklari oqibatida kelib chiqadi.

**Surunkali pielonefrit** bolada PENning klinik manzarasi yoki laborator belgilari bir yildan ortiq vaqt kuzatilgan xollarda diagnoz qo'yiladi. Diagnozda albatta yuqori va pastki siyidik yo'llari patologiyasining mayjudligi va xususiyati, VUR va uning darajasi ko'rsatiladi.

## KLINIK MANZARASI

Maktab bolalari orasida PEN bilan og'rigan qiz bola bemorlar o'g'il bolalarga nisbatan 4-5 marta ko'proq uchraydi, ammo go'daklik davrida kasallik qiz va o'g'il bolalarda bir xilda uchraydi (hattoki o'g'il bolalar PEN bilan ko'proq og'riydar). O'tkir pielonefrit (O'PN) tipik kechganida uning klinik manzarasi quyidagicha xarakterlanadi:

- 1) og'riq sindromi (beldagi yoki qorindagi og'riqlar);
- 2) dizurik buzilishlar bilan (siyishga imperativ xohishlar, pollakiuriya, siyish paytida og'riq yoki achishish, qichishish, nikturiya, enurez);
- 3) intoksikatsiya simptomlari (tana haroratining ortishi,sovuccotish hissiyoti, bosh og'rig'i, ishtaha pasayishi, sarg'imtir namparlik va b.).

Beldagi og'riqlar o'tkir emas, balki ko'proq zo'riqish va tortishish hissiyoti. Og'riq tana holati o'zgarganda, engashganda, irg'iganda kuchayadi, belga issiqlik qo'yilganda kamayadi. Og'riqning kuchi buyrakdag'i shish va urodinamika buzilishlari bilan bog'liq. Tana harorati ko'tarilganda kuchli va to'satdan paydo bo'lgan og'riq VUR ga xos. Shu bilan birga og'riq sindromi ko'p xollarda kam namoyon bo'ladi, faqat qorinni palpatsiya qilganda yoki buyrak proektsiyasiga urib ko'rilmaga seziladi va bunga oddiygina qaralib, Pasternatskiy simptomni musbat, deb baholanadi. Bemorda odatda shish yo'q, arterial bosim me'yorda, diurez bir muncha ko'paygan. Siydik ko'pincha loyqa, hidli bo'ladi.

Tekshirishda zararlangan tomonni palpatsiya qilib ko'rilmaga siydik nayi, buyrak sohasi, umurtqa pog'onasi va oxirgi qovurg'a oralig'idagi burchak sohasida va dukillatib ko'rilmaga bel sohasida og'riq kuzatiladi.

Siydik analizida proteinuriya (1%o gacha), neytrofil leykotsituriya, mikrogematuriya (25-30% bemorlarda), ko'p miqdorda to'qima epiteliyalari va ba'zan tuzlar topiladi. Sutkalik diurez bir oz ko'paygan. Siydikning nisbiy zichligi me'yorida yoki bir oz pasaygan. Siydik reaksiyasi ishqoriy yoki kislotali (ko'proq) bo'lishi mumkin. Tsilindruriya ko'p bemorlarda kuzatilmaydi, chunki tsilindr hosil bo'lishining muhim shartlaridan – diurez kamayishi kuzatilmaydi

Qonda leykotsitoz, leykotsitar formulaning chapga siljishi, neytrofilez, ECHTni ortishi topiladi.

Erta yoshdagি bolalarda O'PEN klinik manzarasida ko'pincha umumiy simptomlar kuzatiladi: umumiy behollik yoki bezovtalik, anoreksiya, isitmalash, ozib ketish, qayt qilish, qabziyat yoki dispepsiya, ba'zan sariqlik, talvasalar, meningial simptomlar. Dizurik belgilar juda yaqqol emas. O'PEN go'dak bolalarda infektsiyani generalizatsiyalanishga moyilligi yuqori bulishi, eksikoz, atsidoz, diareya, nafaqat buyrak etishmovechiligi bilan, balki jigar va buyrak usti bezlari, MNSni og'ir intoksikatsiyasi va og'ir suvsizlanish va kollaps bilan kechadi. Klinik manzarasi sepsisni eslatadi. Shu bilan bir vaqtدا go'dak bolalarda SPEN umumiy simptomlar: ishtaxani pasayishi, vazn ortishida, bo'y o'sishida, psixomotor rivojlanishda orqada qolishlar, subfebrilitet bilan kechishi mumkin.

Katta yoshdagи bolalarda SPEN klinik manzarasida intoksikatsiya belgilari: apatiya, holsizlik, bosh og'rig'i, ishtaxaning pasayishi, oziqlanishni buzilishi tez charchash, subfebril tana harorati, qorindagi aniq lokalizatsiyaga ega bo'limgan og'riqlar, minimal dizurik belgilar bilan yoki ularsiz kechuvchi bel sohasidagi og'riqlar yaqqolroq namoyon buladi.  $\frac{1}{3}$  bemorlarda dizuriya belgilari mavjud bo'ladi, obstruktiv jarayonda ba'zan siydikni tuta olmaslik ham kuzatiladi. PEN klinik jihatdan ba'zan simptomsiz, yoki siydikdagi minimal o'zgarishlar bilan ham kechishi mumkin.

#### **Go'dak va katta yoshdagи bolalardagi pielonefritning klinik manzarasi**

**(Korovina N.A. va hammuallif. 1999)**

Belgilari	Go'dak bolalar	Katta yoshdagи bolalar
Jinsi	Jinsiy farq yo'q	Ko'proq qiz bolalar
Kasallik debyuti	Umumiy infektsion xarakterli belgilar	Umumiy infektsion xarakterli va "mahalliy" belgilari (beldagi, qorindagi og'riqlar, dizuriya va b.)
Intoksikatsiya belgilari	Yaqqol, neyrotoksikoz gacha;	PEN kechishi, yoshiga, obstruktsiyaga bog'liq

Meningial belgilar	Bo'lishi mumkin	Kamdan-kam
Tana haroratining ko'tarilishi	Febril (debyutda), kamroq subfebril, sababsiz tana harorati ko'tariladi.	Febril, subfebril, ko'pincha sababsiz tana harorati ko'tariladi
Qusish va qayt qilish	Ko'p qayt qiladi, qusishi mumkin	Kuchli intoksikatsiyada qusishi mumkin
Teri rangi	Oqish kulrang (kuchli intoksikatsiyada), periorbital tsianoz, subekteriklik bo'lishi mumkin.	Teri qoplamlari oqish, periorbital soyalar, simptomlar endogen intoqsikatsiya sindromining namoyon bo'lishiga bog'liq. Og'ir kechganda teri qoplamlari kulrangroq tusga kiradi.
Ishtaxasi	Emishi sust, emmay qo'yishi ham mumkin.	Ko'pincha susaygan.
Tana vazni	Vazn qo'shmay qo'ygan, gipotrofiya.	PEN og'ir kechganida vazni kamayadi.
Qorin va bel sohasida og'riqlar	Og'riq ekvivalenti – bezovtalik.	Beldagi va kindik atrofidagi og'riqlar, ba'zan siydk naylari bo'ylab irradiakasiyalanadi.
Siydik chiqarishni buzilishi	Tez-tez yoki kam, o'tkir siydik tutilishi holatigacha.	Siydikni tutib tura olmaslik, kam yoki tez-tez, og'riqsiz.
Ichak sindromi	Kuzatiladi, ko'pincha kasallik debyutida.	Kamdan-kam.
Vulvit, vulvovaginit	Ko'pincha, ba'zan	Uchrab turadi.

	sinexiyalar.	
Balanit, balanopostit	Ko'pincha.	Kamdan-kam.
Gepatolienal sindrom	1/3 bolalarda	Kamdan-kam.
Taxikardiya	Intoksikatsiyada xarakterli	Temperatura reaktsiyasiga mos

PEN bilan og'igan ko'pchilik bemorlarda surunkali infektsiya o'choqlari: surunkali tonzillit yoki adenoid, tishlar kariesi, surunkali xoletsistit, vulvovaginit va b. bo'ladi.

A. L. Cheskis ko'p sonli PEN bilan og'igan bolalarni tekshirganda surunkali tsistit (siydiq pufagi devorini tsistoskopiya va morfologik o'rganish ma'lumotlariga ko'ra) obstruktivli va obstruktivli bo'limgan pielonefritda bir xilda (92%) uchrashini aniqladi.

V. M. Derjavin pielonefrit bilan og'igan 3-15 yoshdagi 360 ta bemorlardan 41,2% ida siydiq pufagi neyrogen disfunktsiyasini, shuningdek, tug'ma yoki orttirilgan neyrogen siydiq pufagi, infravezikal obstruktsiyali siydiq pufagi bo'yin sklerozi, siydiq nayining siydiq pufagiga quyilish teshigi ektopiyasini tashxisladi. Shuni ta'kidlash kerakki, 70-75% holatlarda pielonefrit VUR sababli kelib chiqadi.

#### Asoratlari

**Lipomatoz nefrit** (buyrakda ko'p sonli abtsesslar), bolalarda tana haroratining yuqori bo'lishi, ko'proq gektik, yaqqol namoyon bo'lувchi intoksikatsiya va umumiy ahvolning og'irligini ko'rsatuvchi belgilari (ko'ngil aynishi, qayt qilish, teri qoplamarining quruqlashishi, talvasalar, suvsizlanish) bilan kechuvchi kasallik. Tashxis buyrakni UTT (ultratovushli tekshirish) yordamida qo'yiladi.

**Buyrak karbunkuli eksretor urogrammada** jomchalar va loxankalarini bosilib turishi yoki xuddi o'smalardagi singari bir yoki bir necha jomchalar amputatsiyasi kuzatiladi.

**Paranefrit** (buyrak oldi kletchatka yallig'lanishi) da asosiy simptom bel sohasidagi og'riq hisoblanadi; keyinchalik siydiqda leykotsitlar paydo bo'ladi.

Shuningdek, isitmalash, ba'zan gektik, kuzatiladi. Goldflam—Pasterntsksiy musbat bo'ladi. Bola ba'zan oyoqlari tos-boldir bo'g'imida bukilgan majburiy holatda bo'ladi. Bu bel muskuliga yallig'lanish jarayonining ta'siri natijasida kelib chiqqan kontrakturasi tufayli sodir bo'ladi. Agar bolani tik turg'azib, uning orqasiga qaralsa, og'riq tufayli avaylash natijasida umurtqa pog'onasining kiyshayganligini ko'rish mumkin. Tashxis buyrakni UTT yordamida qo'yiladi. Zararlangan tomon rentgenoskopiyasida o'pka chetlari harakatchanligi cheklanganligi va nafasda buyrak siljishini yo'qolganligi ko'rindi. Keyinchalik bel sohasida shish paydi bo'lishi kuzatiladi, bu holat esa pielonefritga xos emas.

**Buyrak so'rg'ichlari nekrozi** qon ketish - makrogematuriya bilan namoyon bo'ladi, bu buyrak sinuslari arteriyalari zararlanishi oqibatida kelib chiqadi (arterial pendunkulit).

Ko'rsatilgan O'PEN asoratlari bolalarda kattalargi nisbatan kam kuzatiladi.

SPEN asoratlariga ko'rsatilganlardan tashqari yana BTK, nefrogen gipertensiya, buyrakni ikkilamchi burishib qolishi oqibatida SBE bo'lishi mumkin.

#### **Tashxislash va solishtirma tashxislash.**

Kasallik o'tkir kechganda va SPENning Qaytalanishida katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Quyidagi kompleks tekshirishlarni o'tkazish kerak (ayniqsa kasallik kam simptomli kechganda diqqat bilan tekshirish kerak).

1. Siydikning dinamikada analiz qilish (7-10 kunda 1 marta). Umumiy analizlarda kasallik tashxisi uchun ishonchli ma'lumotlar bo'lmasa 1ml siydikdagi cho'kmani (Nechiporenko sinamasi), 1 minutda ajragan siydikni (Amburje sinamasi), yana ham qulayrog'l, 12-soat davomida ajragan siydikni sutkalik diurezga aylantirib (Kakovskiy—Addis sinamasi, me'yorda bir sutka davomida  $2,5 \times 10^6$  leykotsitlar,  $8 \times 10^5$  eritrotsitlar va  $2 \times 10^3$  gialinli tsilindrlar) tekshirish zarur. Diagnostikada Ditel i Ryabinskiy bo'yicha siydik cho'kmasida faol leykotsitlarni aniqlash, ayniqsa cho'kmani 6-12 soatlik siydik portsiyalarida tekshirganda, muhim ahamiyatga ega. Pielonefrit uchun

leykotsituriya va bakteriuriya xarakterli, gematuriya — xarakterli emas.

2. Siydkni ekish, aniqlangan mikrobnı antibiotiklarga sezgirligini aniqlash (3 martadan kam bo'imasligi kerak; ekish uchun o'rta oqimdan olinadi, chunki siydk pufagi kateterizatsiyasi reflyuks keltirib chiqarishi mumkin). Odatda siydkni ekishdan olingan natijalardan olinadigan ma'lumotlar etarli bo'lmaydi, chunki jinsiy organlar flora bilan ko'p ifloslanadi. Shuning uchun tashqi jinsiy a'zolarni aseptik eritma (furatsilin 1 : 5000, nordon kaliyli margantsovka 1 : 8000) ga botirilgan aseptik tomponlar yordamida tozalash muhim (ayniqsa sunnat qilinmagan o'g'il bola jinsiy a'zosini). So'ng eritma chov sohasini steril suv bilan chayqash bilan yuvib tashlanadi. Qiz bolalarni oldindan orqaga qarab yuviladi.
3. Bakteriuriya darajasini aniqlash. 1 ml siydkda 100 000 va undan ortiq mikroblar bo'lsa bakteriuriya ishonarli bo'ladi. Bakteriuriya darajasini aniqlash uchun ekmadagi mikroblar soni Gould bo'yicha sanaladi, yoki Anshelevich bo'yicha «nitritli test», tetrafeniltetrazoliy xloridli sinama (TTX-test) qo'llaniladi. Oxirgi ikki test 1 ml siydkda mikroblar soni  $10^5$  dan katta bo'lsa musbat hisoblanadi. Testning spetsifikligi – yuqori (92-100%), ammo sezgirlik - 35-85%.
4. Buyrakning funksional holatini aniqlash:
  - a) Zimnitskiy sinamasi - 7-10 kunda 1 marta (SPEN o'tkir va og'ir kechmaganda, diurez ko'payishi va nikturniyadan tashqari xollarda, o'zgarishlar bo'limasa, ammo ko'p miqdorda kanalchalar jaroxatlanganda buyrakning kontsentratsion faoliyati pasayishi mumkin, gipoizostenuriya);
  - b) Reberg sinalmasi — filtratsiya faqat buyrak og'ir jarohatlangandagina buziladi; reabsorbtsianing kamayishii filtratsiyaga qaraganda erta rivojlanadi;
  - v) buyrakning sekretor faoliyati va qon aylanishini tekshirish (buyrakda qon aylanishi pielonefritda susaygan, normal filtratsiya bilan dissotsiyalanadi. Bundan tashqari, iloji boricha (albatta, maxsus klinikalarda) distal nefronlar (siydknin gammiaq va titrlovchi kislotaligini aniqlash),

proksimal kanalchalar (siydkda  $\tau_2$ -mikroglobulin, melliuriya, kaltsiuriya, fosfaturiya, proteinuriyani aniqlash), Genle xalqasi ( siydkning osmotik kontsentratsiyasini aniqlash) faoliyatini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarni aniqlanash kerak.

5. Qonning bioximik taxlili. PENda umumiy oqsil, xoleterin, qoldiq azot miqdori uzoq vaqt me'yorida qoladi; disproteinemiya ( $a_2$  va  $g$ -globulin larning ortishi bilan)ni, sial kislotalar, mukoproteinlar, S-reaktiv oqsil musbatligining aniqlanishi diagnostik ahamiyatga ega.
  6. Buyrak va siydik chiqarish tizimini ultratovushli tekshirish, shu jumladan VUR diagnostikasi uchun vaqtning real mashtabida infektsion-yalliglanish jarayonining yuqori faollik davrida ham UTT o'tkazish imkonini bo'ladi.
  7. Siydik yo'llarini rentgenologik va boshqa tekshirish infektsiya qaytalanishini bartaraf qilingach 1 oy o'tib qilinadi. Ekskretor urografiya PEN bilan hastalangan har bir bemorda (ayniqsa erta yoshda) qilinishi kerak. Ekskretor urogrammada pielonefritning dastlabki bosqichlarida yuqori siydik yo'llari tonusini pasayishi, fornikslarining yassilanishi va yumaloqlashib qolganligi, jomchalarning torayishi va cho'ziqroq bo'lib qolishini kuzatish mumkin. Oxirgi bosqichlarida kosachalarning keskin deformatsiyaga uchraganligi, ularni bir-biriga yaqinlashib qolganligi, pieloektaziyalar, pielorenal refluyukslarni aniqlash mumkin. Renal-kortikal indeks (RKI) ni 0,4 dan yuqori bo'lib qolishi [Borisov I. A., 1995], shuningdek, Xodson simptomini aniqlash — qutblarida buyrak parenximasini qalinligini uning o'rta qismlariga nisbatan kamayishi xarakterli bo'ladi. Pielonefritning kelib chiqishining asosida siydik yollarining qo'pol anatomik anomaliyalari va siydik yo'llarini obstruksiyasi muhim.
- A. V. Papayan va hammual. (1997) ma'lumotlariga ko'ra, siydik yo'llari anomaliyalarining tarqalganligi quyidagicha:
- Buyrakning ikkilanishi -1:150, buyrak distopiyasi-1:800-1000, taqasimon buyrak — 1:400-500, kosacha, jomchalar divertikuli — 1 : 500, siydik nayining

ikkilanishi — 1 : 150, siydik pufagi va uretra rivojlanishi nuqsonlari -1 : 40 000 - 50 000, chaqaloqlar epispadiyasi 1 : 50 000.

8. Radioizotop renografiyani PEN bilan og'igan barcha bemorlarga o'tkazish maqsadga muvofiq. Chunki u buyrakning ekskretor va sekretor faoliyatini, ular jarohatlanishidagi assimetriyani baholaydi.

9.Tsistografiya va tsistoskopiyanı dizurik buzilishlari bor, siydik tuta olmaydigan (ayniqsa SPENDa) barcha bemor bolalarga albatta o'tkazish kerak. Bundan tashqari bunday bolalarga miktsion tsistouretrografiya (siyish vaqtida), retrograd tsistometriya, farmakotsistometriya, uretra pielometriyasi, siydik pufagi elektromiografisi, uroflou-metriya, to'g'ri tsistometriya qilinadi, shuningdek bola mustaqil siyish paytida uzoqqa gorizontal yo'naltirilgan siydik oqimining chiziqli tezligi va bosimi aniqlanadi. Bu tekshirishlar siydik yo'llarining pastki bo'limlaridagi urodinamikani aniqlash va tashxislash uchun qilinadi.

O'tkir pielonefritni differentsial diagnostikasi quyidagi kasalliklar bilan o'tkaziladi:

1) O'tkir diffuzli (yo'yilgan) glomerulonefritga arteriya gipertenziyasi, boshda, yurak va bel sohasida og'riq, xansirash, vaqtı-vaqtı bilan yurak astma huruji, shish, oliguriya, gematuriya xarakterli.

1) Kollagenoz nefritida xastalik turlariga ko'pincha qizil bo'richaga xos klinik ko'rinishi namoyon bo'ladi. Organizmning sistemli shikastlanishi, "kapalak" alomati, qonda LE hujayralari xarakterli belgi hisoblanadi.

2) Buyrak sili - bel sohasida similovchi og'riq dizuriya, subfebril harorat, antibakterial davoga chidamli turg'un siydikda sil mikobakteriyasi aniqlanadi. Rentgen tekshiruvida jomcha-kosacha sistemasi bilan qo'shiladigan kaverna (kovak) topiladi. Anamnezda boshqa a'zolar siliga ko'rsatma mavjud.

**Davosi.** O'tkir davrida №7a parhez stoli, sutkada 2—2,5 litrgacha suyuqlik ichish tavsiya qilinadi. Keyin parhez kengaytiladi, unda oqsil va yog'lar miqdori ko'paytiriladi. Metabolik atsidoz rivojlanganda natriy gidrokarbonat ichishga 3—5

ml yoki vena ichiga 40—60 ml 3—5% eritmasi yuboriladi. Qon aylanishini yahshilash, og'riq qoldirish uchun issiq muolajalar buyuriladi (isituvchi kompresslar, diatermiya bel sohasiga). Agar og'riq qolmasa, spazmolitiklar (platifillin, papaverin, belladon ekstrakti va boshqalar) buyuriladi.

Antibakterial terapiya nalidikson kislota (nevigramon, negram) bilan o'tkaziladi. Davo kursi 7 kun (0,5—1 g kuniga 4 marta), nitrofuran (furadonin 0,15 g 3—4 marta kuniga, davo kursi 5—8 kun), nitroksolin (5-NOK), 0,1—0,2 g kuniga 4 marta 2-3 hafta davomida beriladi. Bu dorilarni qo'llash navbatma-navbat olib boriladi. Bir vaqtning o'zida nalidikson kislota va nitrofuranlarni qo'llash tavsiya etilmaydi, chunki bunda, antibakterial effekt pasayadi. Birinchi 5—6 kunda, asosan infektsiyada, antibiotiklarga rezistentlik yuqori bo'lsa, kuniga ichishga 0,5—1 g 3—4 marta yoki vG'i 5—10 ml 40% eritmasi har kuni yuboriladi geksa-metilentetramin (urotropin) tavsiya etiladi.

Antibiotiklar va sulfanilamidlarni kombinatsiyasi juda samaralidir. Mikrofloraning antibiotiklarga sezuvchanligini o'rganilgandan keyin antibiotiklar tanlanadi. Penitsillin guruhidagi (benzilpenitsillin 1 000 000—2 000 000 ED /sut, oksatsillin ichishga yoki m/o 2—3 g /sut, ampitsillin ichishga 6—10 g /sut, ampitsillin natriyli tuzi m/o yoki vena ichiga 2—3 g/sut va boshqa.) dorilar yoki streptomitsin (0,25—0,5 g m/o 2 sutkada 2 marta) tavsiya etiladi. Tetratsiklinlar (tetratsiklin ichishga 0,2— 0,3 g sutkada 4—6 marta; antibiotik - makrolidlar (oletetrin, tetra-olean ichishga 0,25 g 4—6 marta), antibiotiklar -aminoglikozidlar (kanamitsin m/o 0,5 g sutkada 2—3 marta, gentamitsin m/o 0,4 mg/kg 2—3 marta sutkada), antibiotik – tsefalosporinlar (tsefaloridin, tseporin m/o yoki vena ichiga 1,5—2 g sutkada) va boshqalar buyuriladi. Har 5—7—10 kunlarda antibiotiklarni almashtirish zarurligini unitmaslik lozim, buyrak funksional etishmovchilida ularni etarli dozada qo'llash kerak.

Sulfanilamidlardan urosulfan va etazol (1 g dan sutkada 6 marta) tavsiya etiladi, sulfanilamidlар узоқ та'sирга ега (sulfapiridazin 1—2 g birinchi sutkada, keyin 1 gdan 2 haftada; sulfamonometoksin, sulfadimetoksin beriladi).

Ko‘p bemorlarda bir necha kundan so‘ng siyidkdagi o‘zgarishlar yo‘qoladi, lekin antibakterial terapiya davom ettirilishi lozim (4 haftagacha). Konservativ terapiya samarasi bo‘lmasa, (ko‘proq apostematoz nefritda va buyrak karbunkulida) operativ davo o‘tkaziladi.

**Oqibati.** O‘tkir pielonefrit tashxisi erta aniqlanganda, o‘zvaqtida sifatli davolanganda, taxminan 60 foiz xastalik tuzalish bilan yakunlanadi.

#### **Profilaktikasi.**

1. Surunkali infektsiya o‘choqlarini sanatsiya qilish (tozalash).
2. Siyidik oqishiga halaqt beruvchi sabablarni bartaraf qilish.

### **SURUNKALI PIELONEFRIT**

**Surunkali pielonefrit** – bu buyrak kosacha-jomchalari tizimi va tubulointerstitsial to‘qimasining surunkali mikroblı yallig‘lanish jarayoni bo‘lib, uzoq muddat (6 oydan uzoq) kechadigan yallig‘lanish jarayon, ko‘p xollarda siyidik traktini anatomik nuqsonlari yoki obstruktsiyasi, kosacha – jomcha tizimining fibrozi va deformatsiyasi fonida rivojlanadi.

*Surunkali pielonefrit* odatda o‘tkir jarayon natijasidir. Ko‘pincha yahshi davolanmagan o‘tkir pielonefrit yoki birlamchi surunkali pielonefrit oqibatida kelib chiqadi, kasallik boshlanishida o‘tkir belgilarsiz kechishi mumkin. Ko‘p bemorlarda surunkali pielonefrit bolalik davrida yuzaga chiqadi, asosan qiz bolalarda. Odatdagи tekshiruvdagи 1/3 bemorlarga pielonefrit tashxisini qo‘yish qiyin. Ko‘pincha sababsiz bezgak kasallikning huruji haqida guvohlik beradi. Oxirgi yillarda surunkali glomerulonefrit va pielonefritning birga kelishi ko‘p uchramoqda.

**Patologik anatomiysi.** Jarohat odatda ikki tomonlama, ba’zan bir tomonda kuchli o‘zgarishlar sodir qiladi. Buyrak yuzasi notejis, kapsulasi buyrak to‘qimasi bilan yopishib ketgan, qiyin ajraladi. Buyrak jomchalari va siyidik nayi kengaygan, kosachalar deformatsiyalangan. Mikroskopiyyada ko‘rilganda interstitsiyada infiltrativ-sklerotik o‘zgarishlar, tomirlar devorida yallig‘lanishli-nekrotik o‘zgarishlar, ularning gialinozi va sklerozi kuzatiladi, kanalchalar epiteliyalar

atrofiyasi va devorining kengayib ketganligi aniqlanadi. Ko'p koptokehalar ko'rinishi o'zgarmagan, ba'zilarida esa glomerulyar jarohat yaqqol ko'zga tashlanadi.

**Klinik ko'rinishi.** Surunkali pielonefrit klinikasi o'tkir pielonefritga qaraganda yaqqol ifodalangan bo'lmaydi. Kasallik belgilari etiologiyasi va patogenetik mohiyatiga (birlamchi yoki ikkilamchi), kechishi ko'lamiga bog'liq bo'lib, **manifest, avj olish (retsidivlanib) va latent** kechishi ham mumkin. Kasallik retsidivida ko'pincha isitmalash, junjikish, qon tomonidan yallig'lanish reaksiyasi, dizuriya, siydikning o'ziga xos o'zgarishlari, bakteriuriya kuzatiladi. Bir tomonlama surunkali pielonefritda ko'pincha qorin sohasida og'riq, yoki zararlangan buyrak tomonda bel sohasida doimiy kuchsiz og'riq bilan xarakterlanadi.

Kasallik avj olmagan davrda simptomlar kam namoyon bo'ladi, ammo ba'zi bolalarda tez charchash, bosh og'rishi shikoyatlar, rangparlik, holsizlanish kabi surunkali intoksikatsiyani aks ettiruvchi belgilari saqlanadi. Siyidikdag'i o'zgarishlar uncha sezilarli bo'lmay qoladi, siyidik cho'kmasisida leykotsitlar soni anchayin kamayadi, bakteriuriya ko'pincha bo'lmaydi, ayniqsa bir marotabagina tekshirilganda.

Surunkali pielonefrit latent kechganda odatda leykotsituriya, ba'zan bakteriuriya tasodifan, profilaktik yoki boshqa sababli ko'ruvdan o'tganda, hech qanday isitmalashga, dizuriyaga yoki boshqa kasallik belgilarga shikoyatlari yo'q bolalarda aniqlanishi mumkin. Bunday bolalar ham diqqat bilan kuzatilganida uncha nomoyon bulmayotgan surunkali intoqsikatsiya belgilarini aniqlash mumkin.

Bolalikda boshlangan surunkali pielonefrit ba'zan o'n yillab davom etadi, hayoti mobaynida juda kam mayda epizodlarda, masalan yangi tur mush qurgan davrda, homiladorlik (homiladorlik pieliti) da namoyon bo'ladi. Boshqa vaqtida ular o'zlarini sog'lom his etadilar. Buyrak to'qimasidagi persistirlanuvchi infektsiya, juda sekinlik bilan avj olib boruvchi struktura o'zgarishlari va

nefroskleroz oxirida SBE (surunkali buyrak etishmovchiligi) va arterial gipertoniyaga olib keladi.

Bolalarda surunkali pielonefrit belgisi bo'lgan arterial gipertoniya uncha ahamiyatli emas va juda kam xollarda uchraydi, ko'proq ularning ikkilamchi kelib chiqishida, yoki ikki tomonlama buyrak zararlanishida eng ko'p uchraydigan simptom hisoblanadi.

Dizuriya ko'p kasallarda bo'lmaydi. Kasallikning huruj davrida 20% bemorlarda tana harorati ko'tariladi. Siydik cho'kmasisda leykotsitlar soni boshqa elementlardan ko'p bo'ladi. Lekin zararlangan buyrakning bujmayishi natijasida siydik sindromi kamayadi. Siydikning nisbiy zichligi normada saqlanadi. Tashxis uchun siydikda faol leykotsitlarning aniqlanishi muhim ahamiyatga ega.

Pielonefritning latent kechishida **pirogenal yoki prednizolon testini** o'tkazish maqsadga muvofiqdir (10 ml natriy xlorid izotonik eritmasida eritilgan 30 mg prednizolon, vena ichiga 5 min davomida yuboriladi; 1; 2; 3 soatdan keyin va 1 sutkadan keyin siydik tekshiriladi). Prednizolon yuborilgandan keyin 1 saat davomida ko'p qismi faol bo'lgan 400 000 leykotsitlar aniqlansa, prednizolon testi musbat deyiladi. Siydikda Shterngeymer — Malbin hujayralari topilsa, siydik traktida yallig'anish jarayonidan dalolat beradi, lekin hali pielonefrit rivojlanganligini aniq belgisi hisoblanmaydi.

Ko'pgina bemorlarda kasallik simptomlaridan biri **bakteriuriya** hisoblanadi. 1 ml siydikda bakteriyalar soni 100 000dan oshsa, bunda antibiotiklarga va ximiopreparatlarga sezuvchanlikni aniqlash zarur.

Buyrakni funksional holati xromotsistoskopiya, ekskretorurografiya, klirens-usul bilan tekshiriladi (masalan, endogenkreatinin tozalash koeffitsientini aniqlash har bir buyrakda alohida aniqlanadi), radionuklid usuli (renografiya gippuran bilan o'tkaziladi, buyrakni skanirlash). Surunkali pielonefritda buyrakning kontsentratsion funksiyasi erta buziladi, azot ajratish funksiyasi ko'p yillar davomida saqlanadi. Kanalchalar funksiyasi buzilishi natijasida atsidoz rivojlanadi, buyrak orqali kaltsiy va fosfatlar ajralishi buziladi, ba'zida bu ikkilachi paratireoidizm, buyrak osteodistrofiyasiga olib keladi.

Infuzion urografiyyada oldin buyrak kontsentratsion funksiyasining pasayishi, rentgenokontrast moddasining sekin ajralishi, lokal spazmlar, kosacha-jomcha deformatsiyasi aniqlanadi. Keyinchalik spastik bosqichi atoniya bilan almashadi, kosacha va jomcha kengayadi. Kosacha qirralari zamburug' shaklini egallaydi, kosachalar yaqinlashadi.

Agar qonda mochevina miqdori 1 g/l dan kam bo'sha infuzion urografiya usuli informativ hisoblanadi. Tashhis qo'yish qiyin bo'lgan hollarda buyrak biopsiyasi o'tkaziladi. Buyrak etishmovechiligi rivojlanishi bilan teri rangi quruq va oqaradi, ko'ngil aynashi va quşish, burundan qon ketishi kuzatiladi. Bemorlar ozib ketadi, kamqonlik rivojlanadi. Siydkagi patologik elementlar yo'qoladi.

*Tashhislash* katta qiyinchilik tug'diradi, ayniqsa latent kechganida.

Differentsial diagnostikada surunkali pielonefritning terminal bosqichi va surunkali glomerulonefritni, nefrotosik ta'sirlar natijasida kelib chiquvchi interstsitsial nefrit va ayniqsa bir tomonlama pielonefrit jarayonida buyrak tuberkulyozi orasidagi farqlarni aniqlashni ta'qazo etadi. Bunda anamnez ma'lumotlarim, tuberkulin sinamalarini o'tkazish, bemorni klinik-rentgenologik tekshirishlar, siydikni tuberkulyoz mikobakteriyasiga tekshirish natijalari inobatga olinadi.

Surunkali pielonefrita siydik cho'kmasida kam o'zgarishlar kuzatilishini inobatga olib tashqi jinsiy a'zolar kasalliklari, vulvit . vulvovaginitlar bilan ham qiyosiy diagnostika o'tkaziladi. Bu maqsadda bolalar ginekologi konsultatsiyasiga jo'natish va qindan surtma olib tekshiriladi.

Surunkali glomerulonefrit bilan differentsial tashhisida siydik sindromi, (leykotsituriyaning gematuriyadan ustunlik qilishi, faol leykotsitlar va Shterneymer—Malbin hujayralari, yaqqol bakteriuriya pielonefritga xarakterli), ekskretor urografiya, radionuklid renografiya ma'lumotlari muhim ahamiyatga ega. Nefrotik sindrom mavjudligi glomerulonefritdan dalolat beradi. Arterial gipertenziyada differentsial tashhis pionefrit, gipertonik kasalligi va vazorenal gipertenziya bilan o'tkazish zarur. Pielonefritga xarakterli anamnez, siydik sindromi, rentgenologik va radionuklid tekshirish natijalari,

xromotsistoskopiadagi bo'yoq ekskretsiyasi asimmetriyasi, ko'p xollarda bu kasallikdan dalolat beradi.

Vazorenal gipertensiya borligi yoki yo'qligi, vena ichi urografiysi, radionuklid renografiya va aortoarteriografiya yordamida aniqlanadi.

Tashhis qo'yishda pielonefritga xos anamnez, laborator tekshiruv natijalari yordam beradi. Bunda surunkali pielonefrit diagnozi xuddi o'tkir pielonefrit diagnozi kabi o'zida: uning birlamchi yoki ikkilamchi ekanligini; kechish xususiyatlarini: retsidiylanuvchi, latent; kasallik davrini: faol, qisman yoki to'liq kliniko-laborator remissiya; buyrakning funksional holati: funksiyasi saqlangan, buzilgan, SBE; kasallik bosqichi: kompensatsiya, SBE; kabi ma'lumotlarni o'zida aks ettirishi kerak. Bu maqsadda buyrakning funksional sinalmalari o'tkaziladi, qonda kislota va ishqor muvozanati, natriy, kaliy, mochevina, kreatinin miqdorlarini aniqlanadi.

**Pielonefritning asoratlari:** nefrolitiaz, pionefroz, buyrak so'rg'ichlari nekrozi.

**Davosi.** Surunkali pielonefrita davo uzoq muddat (yillar) davomida o'tkaziladi. Xastalik qo'zigan davrida bemorlar kasalxonada davolanadilar.

Ovqatlari har xil, yuqori kaloriyalı, tarkibi oqsilga, uglevodga va vitaminlarga serob bo'lishi kerak. Ovqatlanishda o'tkir taomlar, kofe, kakao, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishlik ta'qiqlanadi. Siydir yo'llarini tozalash maqsadida kuniga kamida 2 litr suyuqlik ichishlik buyuriladi. Siydir haydash ta'siriga ega bo'lgan bodring, tarvuz, qovun, qovoqni iste'mol qilishlik tavsiya qilinadi. Kamqonlikda temirga va kobaltga boy mahsulotlar (qulupnay, anor, olma) ratsionga qo'shiladi. Gipertensiya belgisida osh tuzi miqdori 2-4 g. gacha kamaytiriladi,

Davoning boshida nitrofuranlar (furadonin, furadantin va boshqalar) buyurtiriladi, nalidikson kislotalari (nefam, nevifamon), 5-NOK, sulfanilamidlar: etazol, sulfademitoksin, urosulfan, biotrin, biseptol – 2ta tabletkadan kuniga 2 marta ovqatlangandan keyin, sulfatrim – 1 ta tabletkadan 2 mahal; urosulfan, etazol va boshqalar, navbatma-navbat almashtirib turiladi.

Bu preparatlar samara bermasa, kasallikning huruj davrida keng spektrli antibiotiklar qo'llaniladi. Antibiotiklarni tavsiya etishdan oldin mikrofloraga bo'lgan sezuvchanlikni aniqlash lozim. Ko'p bemorlar uchun har oyda 10 kunlik davo kursi etarlidir. Lekin ba'zi bemorlarda bunday davo taktikasida siydkidan virulent mikrofloralar ajralishi davom etadi. Bunday holatlarda antibiotik bilan uzoq muddatli to'xtovsiz davolash, dorilarni har 5—7 kunda almashtirish tavsiya etiladi. Antibiotiklardan: penitsillin (500 000 birligi), oksatsillin (0,25 g), tarivid (1/2 tabletkadan kuniga 2 marta), klofaran (1 g dan 2 mahal), metitsillin (1 g), tsiprolet (500 mg) va boshqa nefrotoksiklik xususiyati kam bo'lgan antibiotiklar tavsiya qilinadi.

Buyrak etishmovchiligi rivojlanganda antibakterial davo samarasi kamayadi (siydkda antibacterial dorilar kontsentratsiyasi pasayadi). Qon zardobida qoldiq azot 0,7 g/ l dan yuqori bo'lganda, antibakterial dorilarning siydkda terapevtik kontsentratsiyasini hosil qilish deyarli mumkin emas.

Xastalikning qo'zish davrida antibakterial terapiya 4 - 8 hafta mobaynida o'tkaziladi. Dori moddalarini tanlashda mikroblar sezuvchanligi, nefrotoksik xususiyatlari, buyrak kanalchalarining ta'sirlanish darajasi hisobga olinadi.

**Yallig'anishga qarshi** - nosteroidli moddalar-voltaren (0,075g), oz miqdorda heparin (kuniga 5000 – 8000 birlik), nimisil.

**Desensibilizatorlar** – dimedrol, suprastin, diazolin, klaritin.

**Gipertenziyaga qarshi** – papaverin, dibazol, va boshqalar.

**Anemiyaga qarshi** - temir preparatlari, folat kislotasi, tsianokobalamin.

**Immun reaktivlikni** oshirish maqsadida metiluratsil (4 g), pentoksil (1,2 g), levamizol (1/2 tabletkadan kun ora), mushak orasiga prodigiozan, immunomodulin qo'llaniladi.

**Fizioterapiya muolajalari** - buyrak sohasiga UVCH, mikroto'lqinli terapiya, induktotermiya furadonin elektrofarezi, ultratovush yoki amplipus parafin, ozokerit, balchiq applikatsiyalari.

› **Oqibati.** Birlamchi surunkali pielonefritda sog'ayish ¼ - 1/3 bolalarda kuzatilishi mumkin, qolganlarda patologik holat saqlanadi. Arterial gipertoniya SBE belgilari bor bolalarda nefroskleroz o'zgarishlari ortishi bilan paydo bo'ladi. Kasallikning qaytalanishi, interkurent infektsiyalar pielonefritni progressivlanishiga, buyrak etishmovchiligining tez rivojlanishiga va arterial gipertoniyaga olib keladi.

**Profilaktikasi.**

- 1) O'tkir pielonefritni o'z vaqtida va to'liq davolash kerak;
- 2) O'tkir pielonefritni o'tkazgan bemorlarda muntazam ravishda dispanser ko'zatuvini o'tkazish va kun tartibi, ovqatlanish rejimini to'g'ri ta'minlash lozim;
- 3) Surunkali infektsiya o'choqlarini bartaraf etish darkor;
- 4) Homilador ayollarda ko'p uchraydigan yashirin bakteriuriyaga ahamiyat berish kerak
- 5) Gigiena tartib-qoidalariga amal qilish, ayniqsa qiz bolalarda;
- 6) O'tkir ichak infektsiyalarini, gijja kasalliklarini oldini olish;
- 7) Har qanday infektsion kasallikdan so'ng siydikdan analiz olish;

## V BOB

### BOLALARDA SIYDIK YOLLARI AZOLARI KASALLIKLARI BOYICHA NAZORAT SAVOLLARI, TESTLAR VA VAZIYATLI MASALALAR

Siydik hosil qilish va chiqarish tizimi organlarining anatomo-fiziologik xususiyatlari.

#### Mavzu bo'yicha nazorat savollari

- 1.Siydik hosilqilish va chiqarish tizimi organlari.
- 2.Buyraklarning asosiy vazifasi.
- 3.Buyrak va chiqaruv yo'llarining ontogenezi.
- 4.Buyrak, siydik nayi, siydik pufagi va uretraning anatomik xususiyatlari.
- 5.Buyrak, siydik nayi, siydik pufagi va uretraning fiziologik xususiyatlari.
- 6.Siydik hosil qilish va chiqarish tizimini tekshirish usullari.
- 7.Sog'lom bola siydigining xarakteristikasi.
- 8.Siydik tizimi kasalliklari semiotikasi.

#### MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLAR

- 1.Siydik hosil qilish tizimiga qaysi organ kiradi?
  - a) buyraklar;
  - b) siydik naylari;
  - c) siydik pufagi;
  - d) siydik chiqarish kanali
- 2.Siydik chiqarish tizimiga qaysi organ kiradi?
  - a) buyraklar;
  - b) siydik naylari;
  - c) siydik pufagi;
  - d) siydik chiqarish kanali
- 3.Buyrakning gomeostazni ta'minlashdek asosiy vazifasiga qanday jarayonlar tufayli bajaradi?
  - a) almashinushi jarayoni qoldiqlarini organizmdan chiqarib yuborish;
  - b) zardobning murakkab tarkibini va suyuqlik miqdorini saqlab turish;
  - c) elektrolitlarni va kislota-ishqor muhitini ushlab turish;
  - d) osmotik bosimni me'yorida saqlab turish bilan;

- e) barcha jarayonlar tufayli;
4. Buyraklar endokrin vazifasini ko'rsating?
- a) tomirlar tonusi va buyrakda kon aylanishiga ta'sir kursatuvchi renin;
  - b) maxalliy to'qima gormonlari (kininlar, prostaglandinlar) sekretlari;
  - c) eritropoetinlar, eritropoez ingibitorlarini ishlab chiqaradi;
  - d) vitamin D ni faollashtiradi.
- e) barcha javoblar to'g'ri;
5. Buyraklar qaysi sohada joylashgan?
- a) qorin orti bo'shlig'i sohasining yuqori qismida joylashgan.
  - b) iliotsekal sohada joylashgan;
  - c) epigastral sohada joylashgan;
  - d) qorin bo'shlig'ida joylashgan;
  - e) kichik tos sohasida joylashgan;
6. Chaqaloqlarda buyrak massasi tana massasiga nisbatan:
- a) 1:100;
  - b) 1:200;
  - c) 1:300;
  - d) 1:400;
  - e) 1:500;
7. Bolalarda buyraklarining bir-biriga juda yaqin joylashgan bo'lib (...) organ shaklini eslatsa, I yoshdan so'ng esa (...) shaklini oladi.
- a) yumaloq, loviya;
  - b) yumaloq, oval;
  - c) oval, yumaloq;
  - d) aniq konfiguratsiyaga ega emas;
  - e) doira, loviya;
8. Buyrakning fiksatsiyalovchi mexanizmlarning shakllanishi necha yoshda tugallanadi?
- a) 5-8 yoshlarda tugallanadi.
  - b) 8-12 yoshlarda tugallanadi.
  - c) 12-14 yoshlarda tugallanadi.
  - d) 14-16 yoshlarda tugallanadi.
  - e) balog'atga etgach tugallanadi.
9. Po'stloq moddasining to'liq etilishiga qachon erishiladi?
- a) 3-5 yoshga etganida tugallanadi.
  - b) 5-8 yoshlarda tugallanadi.
  - c) 8-12 yoshlarda tugallanadi.
  - d) 12-16 yoshlarda tugallanadi.

c) 14-16 yoshlarda tugallanadi.

10. Buyraklarning to'liq etilishiga qachon erishiladi?

a) maktab yoshiga etganida;

b) 5-8 yoshlarda tugallanadi;

c) 8-12 yoshlarda tugallanadi.

d) 12-14 yoshlarda tugallanadi.

e) balog'atga etgach tugallanadi

11. Siyidik pufagining chaqaloqlarda fiziologik hajmi teng:

a) 50 ml;

b) 100ml;

c) 150-200 ml;

d) 300-400 ml;

e) 400 ml dan ortiq

12. Siyidik chiqaruvchi kanal(uretra)ning o'g'il bola chaqaloqlardagi uzunligi:

a) 5-6sm;

b) 12 sm;

c) 0,8—1 sm;

d) 3,3 sm;

e) juda qisqa bo'ladi;

13. Sutka davomida siyishlar soni chaqaloqlarda (hayotining birinchi kunlaridan tashqari) bo'ladi:

a) 20-25marta;

b) 15-16 marta;

c) 10-15 marta;

d) 5-10 marta;

e) 7-8 marta;

14. Siyidikning fiziologik rangi:

a) samon-sariq rangda;

b) jigarrang-qizil («go'sht seli» rangi);

c) o'ta tiniq (suvga o'xshash);

d) to'q, sariq («qo'yiq damlangan choy»);

e) to'q-jigarrang;

15. Siyidikda qachon loyqa bo'ladi?

a) katta miqdorda qonning shaklli elementlari bo'lganda;

b) bujmaygan epiteliylar bo'lganida;

c) tuzlar ko'p bo'lganida;

d) shilimshiq, yog tomchilarining borligi tufayli;

e) barcha sanalgan sabablar tufayli;

## MAVZU BO'YICHA VAZIYATLI MASALALAR

### **Masala № 1.**

Go'dak bolada buyrakning filtratsiyalash qobiliyatining fiziologik pasayishi kuzatilayapti.

**Savol.** Bu nimaga bog'liq?

1. Filtrlashyuzasining kattalarnikiga nisbatan kamligiga.
2. Filtratsion bosimning pastligiga.
3. Filtrlovchi membranalarning nisbatan qalinligiga.
4. Kanalchalardagi funksional etishmovchiliklarga.

### **Masala № 2.**

Kichik yoshdagи bolalar buyraklarining harakatchanligi nimaga bog'liq?

1. Siyidik nayi egri-bugri joylashganligiga
2. Buyraklar massasining nisbatan kattaligiga.
3. Buyrakning bo'lakli tuzilishiga.
4. Yog'li kapsulaning, buyrak oldi va buyrak orqa fastsiyasining sust rivojlanganligi.

### **Masala № 3.**

3 yoshli bola diureziqancha?

1. 400 ml.
2. 600 ml.
3. 800 ml.
4. 1200 ml.

### **Masala № 4.**

Bolalar bog'chasida ertalabki yig'ilish vaqtida 2 yosh 6 oylik faol, o'zini yahshi his qilayotgan bola to'satdan bir marotaba siyib qo'ydi. Bu xol hech kuzatilmagan.

**Savol:** Bu holatni qanday baholasa bo'ladi?

1. O'tkir tsistit
2. O'tkir pielonefrit
3. Enurez
4. Fiziologik xususiyat
5. Gigienik bilimlarning etishmasligi.

### **Masala № 5.**

5 kunlik chaqaloq har siyanida choyshabda qizg'ish rangida dog' qolayapti. To'plangan siydiq loyqa, uzoq turib qolganida unda qizg'ish-jigarrang cho'kma paydo bo'ldi, bundagi siydiq analizida eritrotsitlar soni ko'rish maydonida 0-Ita.

Savol: Chaqaloq siydigidagi ko'rsatilgan xususiyatlari sabablarini aytинг.

1. Fiziologik me'yor
2. Buyrakning nordon-siydikli infarkti
3. Makrogematuriya
4. Nefrolitiaz
5. Buyrak o'sma kasalligi

### **JAVOBLAR**

MASALA № 1 - 1

MASALA № 2 - 4

MASALA № 3 - 3

MASALA № 4 - 4

MASALA № 5 - 2

### **Hulosani to'g'ri shakllantirishga misol.**

Bola 6 yoshda. Shikoyatlari yo'q. Umumiy ko'ruvda teri qoplamlari och pushti rangda; shishlar qovoqlarida va yuzlarida, tanasida va qo'l - oyoqlarida shishinqirash yo'q. AB 100/45 mm, sm. ust. ga teng. Qorni chov ustni sohasidan ko'tarilib turibdi. Bel sohasiga urib ko'rish simptomni ikki tomonlama manfiy. Siyishi ravon, og'riqsiz. Siyishlar soni kuniga 6-7 marta. Diurez sutkasiga 1100ml. Siydiq analizi me'yorida.

– Siydiq tizimi tomonidan o'zgarishlar yo'q.

## **II. SIYDIK Y O'LLARI INFEKTSIYALARI MAVZUSI BO'YICHA**

### **NAZORAT SAVOLLARI.**

- 1.Siydiq tizimi infektsiyalari (STI) ga ta'rif bering
2. Siydiq tizimi infektsiyalari tarqalishi.
- 3.Bakteriuriya diagnostik mezonining ko'rsatkichlari.
- 4.Siydiq trakti infektsiyalari klinik belgilarining yoshiga xos namoyon bo'lishi.

- 5.Siydik yo'llari infektsiyalarini keltirib chiqaruvchi etiologik va moyillik tugdiruvchi faktorlarni sanang.
6. Siydik tizimi infektsiyalarini patogenezi.
- 7.Tsistit etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi.
- 8.Tsistit klinikasi, diagnostikasi, davolash va profilaktikasi.
9. Siydik tizimi infektsiyalarini diagnostikasi.
10. Siydik tizimi infektsiyalarini profilaktikasi.

#### **MAVZU BUYICHA TEST NAZORATI**

**1.Siydik yo'llari infektsiyasiga sabab bo'la olmaydi?**

1. Ko'k yo'tal;
2. Siydik yo'llarini AFXi.
3. Yuqumchil kasalliklar foni.
3. O'RVI.
4. Bakterial diareya.
5. Zotijam.

**2.Siydik yo'llari infektsiyasining intoqsikatsiya sindromiga xos emas?**

1. Axolik stul.
2. Sababsiz harorat ko'tarilishi.
- 3.Teri rangi oqarishi.
4. Xulqini o'zgarishi.
4. Dispeptik buzilish.
5. Nafas olish va yurak urish ritmini o'zgarishi.

**3.Siydik yo'llari infektsiyasi eng ko'p uchraydi?**

1. Chaqaloqlik davrida.
2. Emizikli davrda.
3. Katta yoshdagи bolalarda.
4. Maktabgacha yoshdagи bolalarda.
5. Maktab yoshidagi bolalarda.

**4.Chaqaloqlik va kichik yoshdagи bolalarda eng ko'p uchraydigan qo'zg'atuvchi?**

- 1.E.Coli.
- 2.Streptokokk.
- 3.Stafilocokk.
- 4.Ichak tayoqchasi.
- 5.Protey.

**5. Urostaz sabablariga tegishli emas?**

1. Siydikni nisbiy zichligini pastligi.

2. Kosacha qismi diskineziyasi.
  3. Kosacha qismi torayishi.
  4. Buyrak jomchasida tosh.
  5. Qo'shimcha qon tomir mayjudligi.
- 7. Buyrakning qontsentratsion va ajratuv xususiyatini aniqlash uchun qaysi sinama o'tkaziladi?**
- 1.Zimnitskiy sinamasi
  - 2.Reberg sinamasi
  3. Nicheparenko sinamasi
  - 4.Addis-Kakovskiy sinamasi
- 8.Buyrakning filtratsion xususiyatini aniqlash uchun qaysi sinama o'tkaziladi?**
1. Reberg sinamasi
  2. Zimnitskiy sinamasi
  3. Nicheparenko sinamasi
  4. Addis-Kakovskiy sinamasi
  5. Amburje sinamasi
- 9. Bolalarda siydikning solishtirma ogirligi normada nechaga teng?**
1. 1010-1028;
  2. 1024-1035;
  - 3.1050-1060;
  - 4.1005-1014;
  - 5.1003-1010;
- 10. Siydikni Nicheparenko usuli bo'yicha tekshirilganda 1 ml siydikda normada leykotsitlar qancha bo'ladi?**
1. 2000 tagacha;
  - 2.1000 tagacha;
  - 3.3000 tagacha;
  4. 4000 tagacha;
  - 5.10 000 tagacha;
- 11. 1 ml siydikda qancha mikrob aniqlanganda bakteriuriya bor deb hisoblanadi (Gold buyicha)?**
- 1.10 000 ta;
  - 2.1000 ta;
  - 3.100 000 ta;
  4. 500 ta;
  5. 5000 ta;
- 12.Siydik ajralishining ozayib qolishi:**
1. Anuriya;

2. Enurez;
3. Poliuriya;
4. Pollakiuriya;
5. Nikturiya;

**13.Tez-tez ogriqli siyish:**

1. Pollakiuriya;
2. Enurez;
3. Poliuriya;
4. Anuriya;
5. Nikturiya;

**14.Siydik pufagini mikrob- yallig'lanish jarayonlaridan himoyalovchi omillar:**

1. Barcha sanalgan omillar;
2. Siydikni muntazam va to'liq bo'shab turishi;
3. Detro'zorni anatomik va funktsional jixatdan saqlanishi;
4. Siydik pufagi epitelial qavatini butunligi;
5. Mahalliy immunologik himoyaning etarli bo'lishi (sekretor immunoglobulin A, lizotsim, interferon va boshqa moddalarni me'yorida bo'lishi).

**15.Tsistitda og'riq simptomining kuchliligi yaliglanish jarayoni tarqalishi ko'lamiga bog'liq bo'lib, (...) ham zararlangan paytda eng kuchli og'riq kuzatiladi.**

1. Leto uchburchagi;
2. Siydik nayı;
3. Tashqi siydik chiqarish kanali;
4. Pufakning shilliq qavati;
5. Pufakning shilliq osti qavati;

**16.Tsistit va uretrit- siydik pufagi va tashqi siydik chiqarish kanali shilliq va shilliq osti qavatining:**

1. Mikroqli yallig'lanish kasalligi.
2. Allergik kasalligi;
3. Yomon sifatlari o'sma kasalligi;
4. Tugma anomal kasalligi;
5. Destruktiv-yara kasalligi;

**17.Surunkali tsistitlarda esa siydik pufagi ( ...) ham o'z ichiga olgan ancha chuqur strukturali o'zgarishlar kuzatiladi.**

1. Devor muskul qavatini;
2. Leto uchburchagi;
3. Siydik nayı;
4. Tashqi siydik chiqarish kanali;
5. Pufakning shillik osti qavati;

**18.Tsistitlarning differentsiyal diagnostikasi o'tkaziladi:**

- 1.Ko'rsatilgan barcha kasalliklar bilan;
- 2.O'tkir appenditsit (atipik);
- 3.Paraproktit;
- 4.Siydik pufagi o'smasi;
- 5.Pielonefrit;

**19.Tsistitni diagnostika qilish maqsadida tekshiriladi:**

- 1.Barcha ko'rsatilgan tekshirish usullari;
- 2.UZI tekshirishi;
- 3.Ekskretor urografiya
- 4.Tsistoskopiya qilinadi.

**20. Siydik yo'llari infektsiyalari davolashda qo'llaniladi:**

1. Barcha usullar qo'llaniladi;
- 2.Yotoq rejimi, quruqissiq;
- 3.Issiq fitovannalar (zveroboy, shalfey, romashka);
- 4.Parhez, ko'psuyuqlik ichish rejimini tashkil qilish;
- 5.Antibakterial terapiya;

**21. Siydik yo'llari infektsiyalari davolashda effektiv:**

- A). Furadonin; B). Monural; V).Furagin; G) Niktroksalin;  
D). Furazolidon; E). No-shpa; J). Beladonna; Z) Papaverin  
1. A,V,G; 2.B,D,E; 3)E,J,Z;

**22. Bemorlar tuzalgach "D" nazorati o'rnatiladi:**

- 1 . O'tkir – 1 yilgacha; surunkali – 3 yilgacha;
2. O'tkir – 1 oygacha; surunkali – 1 yilgacha;
3. O'tkir – nazorat qilinmaydi; surunkali – 3 oygacha;

## **MAVZU BO'YICHA VAZIYATLI MASALALAR**

### **Masala 1**

11 yoshli bola. Shikoyatlari: tana haroratining ko'tarilishi sovuqqotish, tinimsiz terlash, tez-tez og'riqli siyishga. Siyanida tashqi siydik chiqaruv kanalida qizarish, tirqishi qizargan, shish, siyganda qattiq achishib og'rish hissi. Bola siyishdan qiynalayapti. Tana harorati 1 haftadan buyon  $37,8^{\circ}\text{C}$  kuzatilmogda. Umumiy ahvoli qoniqarli, rangi bir oz oqargan.

Qonda Hb – 84 G/l; er.-3,2 x 10.12 ; leyk.-12x10.9

ECHT 12mm/c

Siydikda - rangi loyqa, epit.hujayralar -2-3 k/m; o'zgarmagan eritrotsitlar 4-6 k/m, bakteriyalar +++; shilimshiq +++;

**Sizning xulosangiz?**

1. O'tkir tsistit
2. O'tkir glomerulonefrit
3. O'tkir pielonefrit
4. Siyidik-tosh kasalligi
- 5.O'tkir uretrit.

#### **Masala 2.**

13 yoshli qiz bola. Shikoyatlari: sovuqqotish hissiyotiga, tinimsiz terlash, qorniningt pastki, qovuq sohasida og'riq, tez-tez og'riqli siyishga. Siyanida qovugi va tashqi siydik chiqaruv kanalida qattiq achishib og'rish hissi. Qizcha siyishdan og'riqlar tufayli qiynalayapti. Tana harorati 1 haftadan buyon  $37,8\text{ }^{\circ}\text{C}$  ko'zatilmogda. Umumiy ahvoli qoniqarli, rangi bir oz oqargan. Qonda Hb – 84 G/l; er.- $3,2 \times 10^{12}$ ; leyk. $8 \times 10^9$  G/l; ECHT-9mm/s.

Siydik analizida: rangi - loyqa; oqsil – izlari; epithelial hujayralar – 2-4ta; leykotsitlar – 17-20 k/m; bakteriyalar +++; shilimshiq +++;

**Sizning xulosangiz?**

1. O'tkir tsistit
2. O'tkir glomerulonefrit
3. O'tkir pielonefrit
- 4.Siyidik-tosh kasalligi
- 5.O'tkir uretrit.

#### **Masala 3.**

Go'dak bolada buyrak faoliyatini tekshirilganda filtratsion xususiyatining pastligi ko'zatilayapti.

**Savol:** Bu nimaga bog'liq?

- 1.Buyrak filtratsion yuzasini kamligi;
- 2.Filtratsion bosimni pastligi;
- 3.Filtrlovchi membranalarni nisbatan qalinligi;
- 4.Kanalchalarni funksional etishmovchiligi;

Javob: 1,2,3

#### **Masala 4**

5 kunlik chaqaloq har siyanida yo'rgagida qizil - jigarrang do'g qolayapti. To'plangan siydik loyqa, o'zoq saqlanganda qizil-jigarrang cho'kma qoldi, siydik cho'kmasida 0-1ta eritrotsit k/m.

**Savol:** Chaqaloq siyidigidagi o'zgarishning sabablarini ko'rsating.

**Javob:**

- a. Buyrakning nordon-siydik infarkti.
- b. Fiziologik me'yor
- c. Makrogematuriya
- d. Nefrolitiaz
- e. Buyrak o'sma kasalligi

**III.O'TKIR STAFILOKOKKLI GLOMERULONEFRIT  
MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI**

- 1.O'tkir glomerulonefritga ta'rif bering.
- 2.O'tkir glomerulonefrit etiologiyasi.
- 3.Moyillik tug'diruvchi omillar.
- 4.O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit patogenezi.
- 5.O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit klassifikatsiyasi.
- 6.O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit klinikasida shishlar patogenezi.
- 7.O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit klinikasida proteinuriya patogenezi.
- 8.O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit klinikasida gematuriya patogenezi.
- 9.O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit klinikasida tsilindruriya patogenezi.
- 10.O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit klinikasida gipertoniya patogenezi.
- 11. O'tkir stafilokokkli glomerulonefritning kechishi hususiyatlari.
- 12. O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit differentsiyal diagnostikasi
- 13.O'tkir stafilokokkli glomerulonefritning asoratlari.
- 14.O'tkir stafilokokkli glomerulonefritni davolashda dietoterapiya.
- 15. O'tkir stafilokokkli glomerulonefritni medikamentoz davolash.
- 16.O'tkir stafilokokkli glomerulonefrit profilaktikasi.

**MAVZU BO'YICHA TEST NAZORATI**

**1.O'tkir GN da o'tkazildi:**

- 1.Siydik umumiyl taxlili.
- 2.Qon umumiyl taxlili.
- 3.Qon bioximik analizi.
- 4.Vena ichi urografiysi.
- 5.Tsistografiya.

**2. O'tkir glomerulonefritda infektsiyani faollashishiga tegishli emas.**

- 1. Borde – Jangu tayoqchasi tashuvchisi.
- 2.Respirator virusli infektsiya.

- 3.Surunkali tonsillit.
- 4.Teri nefritogen streptokokk A tashuvchisi
5. Sovuqqotish

**3. O'tkir glomerulonefrit ekstrarenal simptomiga tegishli emas?**

1. Gematuriya.
- 2.Ishtaxa kamayishi.
- 3.Bo'shashish.
- 4.Ko'ngil aynish.
5. Bexollik.

**3. O'tkir glomerulonefrit renal simptomiga tegishli emas?**

- 1.Qusish.
- 2.Gematuriya.
- 3.Bel sohasida og'riq.
- 4.Proteinuriya.
- 5 Oligouriya.

**4. O'tkir glomerulonefrit siyidik sindromiga tegishli emas?**

- 1.Shishlar
- 2.Proteinuriya.
- 3.Gematuriya.
- 4.Tsilindruriya.
- 5.Oligouriya.

**5.Eritrotsitar tsilindrler mavjudligi?**

- 1.Nefrit belgisi.
- 2.Siyidik infektsiyasi belgisi.
- 3.Siyidik tosh kasaligi belgisi
- 4.Tsistit belgisi.
- 5.Pielonefrit belgisi.

**6. O'tkir glomerulonefritda gipertoniya sabab bo'la olmaydi.?**

- 1.Giperkaltsiemiya
- 2.Gipergidremiya.
- 3.Gipernatriemiya
- 4.Giperkaliemiya.
- 5.Giperreninemiya.

**7. O'tkir glomerulonefritda yurak qon tomir sistemasi faoliyatini buzilishiga tegishli emas?**

- 1.Yurakchegarasi kichrayishi.
- 2.Sistolik shovqin.
- 3.Yurak tonlari bo'giqligi.
- 4.Bradikardiya.
- 5.Kardiomegaliya.

**8. Nefrotik sindromli o'tkir GN xarakteristikasi,'**

- a) proteinuriya. b) azotemiya. v) gematuriya. g) gipoproteinemiya.
- d) disproteinemiya. j) giperlipidemiya. z) gipertoniya. k) shish sindromi.
- 1) a,b,v,k; 2) b,g,d,k; 3) g,z,k;

**9. GNDa shishlar paydo bo'ldi:**

- 1.Ertalabda, ko'proq yuz soxasida;
- 2.Kunning ikkinchi yarmida oyoqlarda;
- 3.Doimiy qorin bo'shlig'ida;
- 4.Yurak haltasida;
- 5.Miya shishi;

**10. O'tkir glomerulonefrit asoratiga tegishli emas?**

- 1.Anuriya;
2. O'tkir buyrak etishmovchiligi;
- 3.Eklampsiya;
- 4.Yurak qon-tomir etishmovchiligi;
- 5.Uremik koma;

**11. O'tkir glomerulonefritda qiyosiy tashxisi o'tkazilmaydi?**

- 1.Megaloblast anemiya.
- 2.Revmatik kasallik.
- 3.Kapillyarotoksikoz.
- 4.Virus infektsiyasi persistsentsiyasi. (gepatit V, tsitomegaliya, yuqumchil mononukleoz.
- 5.Sistemali qizil yugurik.

**12.O'tkir glomerulonefrit patogenezi mexanizmi etaplarini to'gri tartibda ko'rsating?**

- a) buyrak koptokchalari bazal membranasini jaroxhatlanishi;
- b) bazal membrana kapillyarlari devorlarini o'tkazuvchanligini ortib ketishi;

- v) antigen-antitelo komplementini hosil bo'lishi;  
g) koptokcha bazal membranasi funktsiyasini buzilishi;  
d) buyrak filtratsion faoliyatining buzilishi;  
1) v,a,b,g,d; 2) a,g,d,a,b; 3) v,a,d,b,g;
- 13. Nefrotik shishini patogenezida asosiy rolni quyidagi belgilardan qaysinisi o'ynaydi?**
1. gipertoniya;
  - 2 .proteinuriya;
  3. giperkaliemiya;
  4. gipovolemiya;
- 14. Quyida ko'rsatilgan dori darmontlarning qaysi biri siy dik haydovchilar guruxiga kiradi?**
- 1.veroshpiron, gipotiazid.
  - 2.furadonin, furazolidon.
  3. rezerpin, raunatin.
  - 4.panangin, kaliy orotat.
- 15. O'tkir glomerulonefritga qaysi sindrom xos emas?**
1. distrofik;
  2. nefritik;
  3. nefrotik
  4. chegaralangan siy dik sindromi
- 16. O'tkir glomerulonefritning davomiyligi qancha davom etadi?**
1. 1 yil;
  2. 6-8 oy ;
  3. 3 oy ;
  4. 1-1,5 yil;

#### MAVZU BO'YICHA VAZIYATLI MASALALAR

##### 1.Masala.

10 yoshli bola 3 hafta avval folikulyar angina kechirgan. Ambulatoriya usulida davolangan. Ko'ruv davrida yuz sohasida, tizzada ishingirash .Teri va shilliq qavatlar rangparligi ko'zga tashlanadi.Arterial bosim 130/90.Yurak nisbiy bo'g'iqligi chegarasi kengaygan.Yurak tonlari bo'g'iq, cho'qqi turkisida sistolik shovqin eshitilayapti.  
Umumi y qon tahlilida: albuminuriya 1 g%o gacha, siy dik cho'kmasida yangi va uringan eritrotsitlar.

Umumiy qon tahlilida: gematokrit ko'rsatkichi past, ECHT-30-40 mm/s. Leykotsitoz va neytrofillez kuzatilayapti.

- 1.Sizning tashxisingiz?
- 2.Ushbu holatda yana qanday tekshirish usullari lozim?
- 3.Ushbu holatda qanday preparat yuborish ta'qiqlanadi?

**Javob:**

- 1.Utkir diffuz glomerulonefrit, nefritik sindrom bilan.
- 2.UZI, Ekskretorurografiya, Zimnitskiy, Addisa-Kakovskiy, Nechiporenko sinamasi.
- 3.Kortikosteroidlar ta'qiqlanadi.

**2.Masala.**

12 yoshli bemor. Angina kechirgandan keyin bemorda tarqalgan shish, ertalab kuchliroq, yuzida, qovoq sohasida, to'piqni ichki yuzasida ko'proq bilinadi. Diurez kamaygan.

Umumiy siyidik taxlilida: Proteinuriya 2,5-3g/s, eritrotsitlar 7-8 ko'ruv maydonida, tsilindruriya (gialinli va donador); Qonning bioximik tekshiruvida: gipoproteinemiya, disproteinemiya, xolesterin 8,0mmolG/l gacha, lipidlar 8gG/l gacha ortgan.

- 1.Sizning tashxisingiz?
- 2.Ushbu xolda qanday qo'shimcha tekshiruv zarur.
- 3.Qanday tartib va parhez ushbu holatda zarur?

**Javoblar:**

- 1.O'tkir diffuz glomerulonefrit, nefrotik sindrom bilan.
- 2.Siyidikni Zimnitskiy taxlili, UZI, Ekskretor urografiya, Addissa-Kakovskiy sinamasi, Nechiporenko sinamasi.
- 3.Tartib № 1. Pevzner buyicha: №7 parhez stoli.

**3.Masala.**

7 yoshli bola. Shikoyati yo'sq, ahvoli qoniqarli. Kayfiyati yaxshi. Tanasida shish bilinmaydi. Arterial bosim meyorida. Ichki organlarda o'zgarish bilinmaydi. Bola muktabga joylashtiralayapti. Umumiy siyidik taxlili: nisbiy zichligi: 1,030, proteinuriya - 2,5g/s, gematuriya, gialinli, eritrotsitarva donador tsilindrilar aniqlandi.

- 1.Sizning tashxisingiz?
- 2.UASHning ushbu holatdagi taktikasi?
- 3.Qanday qo'shimcha davo tadbirleri zarur.

**Javoblar:**

- 1.O'tkir glomerulonefrit, chegaralangan siyidik sindromi.
- 2.Bemorni bolalar kasalxonasi nefrologiya bo'limiga yotqizish, tekshirish va davolash.
- 3.Addiss-Kakovskiy, Zimnitskiy, Nechiporenko sinamalarini; UZI, Ekskretor urografiya tekshirishlarini o'tkazish;

#### **4.Masala.**

13 yoshli bola. 6 oy muqaddam o'tkir glomerulonefrit kechirgan.Bolalar kasalxonasi nefrologiya b o'limida 28 kun yotib davolangan.  
Ko'rvuv davrida umumiy ahvoli og'ir. Bolalar shifoxonasi nefrologiya bo'limiga yotqazildi. Bola behol, bosh og'rigidan, harorat ko'tarilishdan shikoyat qiladi.Tana harorati 39,0 daraja.Teri rangi rangpar. Arterial bosim 140/95 mm.sm.ust.ga teng, gipotenziv preparatlar bilan meyorlashmayapti. Nefrotik sindrom rivojlandi. Siyidik analizida: proteinuriya 15-25g/s, turgun gematuriya. Qonning bioximiayivi tahlili: Azotemiya, gierkreatininemiya , giperxolesterinemiya, gipoproteinemiya,  
Umumiy qontaxlili: Normoxrom anemiya.

1.Sizning tashxisingiz?

2.UASHning ushbu holatdagji taktikasi?

**Javoblar:**1.O'tkir osti yomon sifatlari glomerulonefrit.

2.Bolalar kasalxonasi nefrologiya bo'limiga yotqizish.

#### **5.Masala.**

14 yoshli bola . 2 yil muqaddam o'tkir glomerulonefritni kechirgan. Bemorda surunkali tonzillit va tishlar kariesi mavjud. Ushbu kasallik bo'yicha muntazam davolanmagan . Ko'rvuv davrida bemor behol, kuchsizlangan, ishtaxasi past. Doimo qovoq sohasida, oyoqlarda, tanasida shishlar bilinib turadi.Teri rangi oqish, quruqshagan,yupqalashgan.Arterial bosim meyoriy ko'rsatkichda.

Jigar va taloq kattalashgan. Kunlik siyidik miqdori kamaygan. Kuchli proteinuriya 10g/ldan yuqori. Azot qoldigi, xolesterin, mochevina, kreatinin meyoriy ko'rsatkichda.

1.Sizning tashxisingiz?

2.UASHning ushbu holatdagji taktikasi?

3.Qanday qo'shimcha davo tadbirlari lozim.

#### **Javoblar:**

1.Surunkali glomerulonefrit, nefrotik sindrom bilan.

2.Bemorni bolalar kasalxonasi nefrologiya bo'limiga yotqizish.

3.UZI, Ekskretor urografiya,Siydikni Zimnitskiy,Addisa-Kakovskiy , Nechiporenko bo'yicha tahlili.

#### **6.Masala.**

15 yoshli bola . 3 yil muqaddam o'tkir diffuz glomerulonefrit kechirgan. Bemor surunkali tonzillit kasalligi bo'yicha nazoratda turadi. Birinchi o'rinda bemorda kuchli va turg'un gematuriya, yuz va qovoq sohasida shish bilinadi. Siyidik cho'kmasi tekshirilganda eritrotsitdan tashqari leykotsit, gialinli va donador tsilindrlar va siydikda 1 g/l gacha oqsil; azot qoldig'i, mochevina, kreatinin, meyoriy ko'rsatkichda.

1.Sizning tashxisingiz?

2.UASHning ushbu holatdagi taktikasi.

#### **Javoblar:**

1.Surunkali glomerulonefrit, gematurik shakli.

2.Bolalar kasalxonasi nefrologiya bo'limiga yotqizish.

### **IV. SURUNKALI GLOMERULONEFRIT MAVZUSI BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI**

1. Surunkali glomerulonefrit kasalligi to'g'risida tushincha.
2. Surunkali glomerulonefritning klassifikatsiyasi.
3. Surunkali glomerulonefritning etiopatogenezi.
4. Nefrotik shakli klinikasi
5. Aralash shakli.
6. Surunkli glomerulonefritning differentsial diagnostikasi.
7. Surunkali glomerulonefrit instrumental diagnostika usullari.
8. Surunkali glomerulonefritning laborator diagnostikasi.
9. Surunkali glomerulonefritni davolash.
10. Surunkali glomerulonefritni "D" nazorat qilish.
11. Surunkali glomerulonefritning profilaktikasi.

#### **MAVZU BO'YICHA TEST NAZORATI**

##### **1Surunkali glomerulonefrit qanday kasallik ?**

- 1) koptokchalar zararlanishi bilan kechadigan destruktiv-sklerotik kasallik
- 2) asosan kosachalarning zararlanishi bilan kechadigan infektion yalliglanish kasallik
- 3) buyrak parenximasini parchalanishi bilan kechuvchi yomon sifatli yallig'lanish kasalligi

4) siyidik dimlanishi va tosh hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi

**2. Surunkali GN asoratlariga kiradi:**

1) Surunkali buyrak etishmovchiligi

2) O'tkir buyrak etishmovchiligi

3) Gipoglikemik koma

4) Buyrak tosh kasalligi

5) Gidronefroz

**3. Surunkali glomerulonefrit kasalligi klinikasida kuzatiladigan ekstrarenal belgilarni ko'rsating?**

1) tana harorati ortishi, quvvatsizlik, ishtaha pasayishi

2) siyidik rangi o'zgarishi, oligouriya, shishlar

3) ertalab yuzlarining, kechga yaqin oyoqlarning shishinqrashi

4) gipertoniya, makrogematuriya

**4. Surunkali glomerulonefrit kasalligi etiologik faktorlarini ko'rsating?**

1) barcha javoblar to'g'ri

2) dori-darmonlar terapiyasini noratsional olib borish;

3) surunkali infektsiya o'choqlarining mavjudligi;

4) persistiruvchi virusli infektsiyalar;

5) haddan ziyod antigenli yuklamalar

**5. Glomerulonefritda Pevzner bo'yicha qaysi parhez stoli buyuriladi ?**

1) 7 st

2) 2 st

3) 4 st

4) 5 st

**6. Eritrotsitar tsilindrlar mavjudligi?**

1) Nefrit belgisi.

2) Siyidik infektsiyasi belgisi.

3) Siyidik tosh kasaligi belgisi.

4) Tsistit belgisi.

**7. Nefrotik shishini patogenezida asosiy rolni quyidagi belgilardan qaysinisi o'ynaydi?**

1) proteinuriya;

2) gipertoniya

3) giperkaliemiya;

4) gipovolemiya;

**8. Surunkali glomerulonefritning asosiy asorati hisoblanadi:**

1) Azotemiya;

2) Anemiya;

3) Gipoproteinemiya;

- 4) Gipoglikemiya;
- 5) Giponatrniemiya;

**9. Surunkali glomerulonefritga moyillik tug'diruvchi faktorlarga kirmaydi:**

- 1) Barchasi kiradi;
- 2) Buyrakning genetik determinirlangan antigen tarkibi, uning hujayra membranalalari hususiyatlari, hususan, ularga bogliq gistogematogen bar'er stabilligi;
- 3) Streptokokklar, viruslarning gematogen bar'erlarni buzish qobiliyatları va «yashirin» buyrak antigenlarini qon oqimiga chiqishi;
- 4) Tug'ma va orttirilgan buyrak displaziysi;
- 5) Irsiy immunodefisitlar;

**10. Surunkali glomerulonefritning klinik shakllarining kechishiga ko'ra sinflanishiga kirmaydi:**

- 1) nefritik sindrom
- 2) gematuriya;
- 2) shish (nefrotik);
- 3) aralash;

11. SGNning oqibati yomon hisoblanadi, SBE juda erta rivojlanadi:

- 1) aralash shaklida;
- 2) gematuriya shaklida;
- 2) shish(nefrotik) shaklida;

**12. SGNning diagnostikasida quyidagi klinik-laborator tekshirishlar kompleksiga asosolanib tekshirishlar o'tkaziladi?**

- 1) Barchasi
- 2) Hv -antigenemiyaga;
- 3) Tsitomegaliyaga tekshiriladi, yoki ularning antitelolari darajasi aniqlanadi;
- 4) Hv-infektsiyaga;
- 5) Buyrak biopsiyasi qilinadi.

**13. SGNning differentsial diagnozi o'tkaziladi?**

- 1) Barcha kasalliklar bilan
- 2) Surunkali pielonefrit;
- 3) Irsiy nefrit yoki buyrak disembriogenezi;
- 4) Sistemali qizil yugurik
- 5) Siydir-kosh kasalligi; o'smalar, .

**14. SGNning differentsial diagnozi o'tkaziladi?**

- 1) Barcha kasalliklar bilan;
- 2) Buyrak tuberkulyozi;
- 3) Irsiy nefrit;
- 4) Buyrak tomirlari zararlanishi;

5) Dori terapiyasida asoratlanishlar;

**15. SGNnini medikamentoz davolashda qo'llaniladi?**

1) Glyukokortikoidlar, kurantil;

2) Pevzner bo'yicha 7 stol;

3) Yotoq rejimi;

4) Fitoterapiya;

5) Surunkali infektsiya uchoqlarini sanatsiya qilish;

**16. SGNda buyrak etishmovechiligi yoki gipertenziyaning, hatto boshlangich belgilari kuzatilsa ham, darhol qo'llash kerak:**

1) Glyuko-kortikoid, tsitostatik va antiagregantlar kompleks terapiyasi;

2) Yurak glyukozidlarini, nafas analeptiklarini;

3) Tsitostatiklarni, antisklerotik dori-darmonlarni;

4) Antibiotik va sulfanilamidlarni;

5) Gepatoprotektor va antotsidlarni;

**17. SGN chalingan bemorlar dispanser nazoratida bo'ladilar:**

1) Ular kattalar poliklinikasiga o'tgunicha olib boriladi;

2) Ular 1 yil davomida nazoratda bo'ladilar;

3) Ular 3 yil davomida nazoratda bo'ladilar;

4) Ular 5 yil davomida nazoratda bo'ladilar;

**18. Surunkali glomerulonefrit profilaktikasi quyidagicha:**

1) Profilaktikasi ishlab chiqilmagan.

2) Pevzner bo'yicha 7 stol;

3) Yotoq rejimiga amal qilish;

4) Fitoterapiyanin keng qo'llash;

5) Surunkali infektsiya o'choqlarini sanatsiya qilib yurish;

**19. Surunkali glomerulonefrit kechish davomida quyidagi asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin:**

1) Barchasi

2) Pnevmoniya;

3) Plevra shkastlanishi;

4) Otit;

5) Terining rojasimon shkastlanishi;

**20. Surunkali glomerulonefritni davolashda kurantil va indometatsinning terapevtik dozalarini ko'rsating?**

1) 10 mg/kg sutkasiga 3 marta qabul uchun; 3 mg/kg sutkasiga 3 marta qabul uchun;

2) 5 mg/kg sutkasiga 3 marta qabul uchun; 1 mg/kg sutkasiga 3 marta qabul uchun;

3) 1 mg/kg sutkasiga 3 marta qabul uchun; 0,5 mg/kg sutkasiga 3 marta qabul uchun;

## MAVZU BO'YICHA VAZIYATLI MASALALAR

### Masala 1.

12 yoshli bola. 2 yil muqaddam o'tkir glomerulonefrit diagnozi bilan nefrologiya bo'limida davolangan. Bemor poliklinikada «D» nazoratda turadi, vaqt-i-vaqt bilan mutazam davolanib turadi. Shunga qaramay bemorda surunkali tonzillit va tishlar kariesi paydo bo'ldi. Ko'ruv davrida bemor behold, kuchsizlangan, ishtaxasi past. Jismoniy rivojlanishdan bir oz orqada qolayapti: bo'y o'sishi, vazni tengdoshlaridan farq qiladi. Doimiy ravishda qovoq va yuz sohasida, tanasida shishlar bilinadi. Terida rangparlik belgilari, quruq. Arterial bosim meyoriy ko'rsatkichda. Jigar va taloq kattalashgan. Kunlik siydik miqdori kamaygan. Kuchli proteinuriya 10g/s va undan yuqori. Azot qoldigi, xolesterin, mochevina, kreatinin meyoriy ko'rsatkichda.

1.Sizning tashxisingiz?

2.UASH ushbu holatdagi taktikasi?

3.Qanday ko'shimcha davo tadbirlari lozim.

### Javoblar:

1.Surunkali glomerulonefrit, nefrotik sindrom bilan.

2.Bemorni bolalar kasalxonasi nefrologiya bo'limiga yotqizish.

3.UZI, Ekskretor urografiya, Siydikni Zimnitskiy, Addisa-Kakovskiy, Néchiporenko bo'yicha tahlili.

### Masala 2.

14 yoshli qiz bola. 3yil muqaddam o'tkir diffuz glomerulonefrit kechirgan. Bemorda surunkali tonzilit mavjud. Bemorda kuchli va turg'un gematuriya, qovoq sohasi shishgan. Siydik cho'kmasi tekshirilganda o'zgargan eritrotsitdan tashqari leykotsitlar, gialinli va donador tsilindrlar va siydikda 1g/l gacha azot qoldig'i aniqlangan; mochevina, kreatinin esa meyoriy ko'rsatkichlarda.

1.Sizning tashxisingiz?

2.UASH ushbu holatdagi taktikasi.

### Javoblar:

1.Surunkali glomerulonefrit, gematurik shakli.

2.Bolalar kasalxonasi nefrologiya bo'limiga yotqizish.

### Masala №3.

7 yoshli bola bo'limga shishga, ko'p siyishga shikoyat qilib keldi. Homila birinchi davri toksikoz bilan kechgan. Tugilgandagi ogirligi 3800gr, bo'yisi —53 sm. Respirator infektsiya bilan og'rigan. Bolalar infektsiyasi bilan og'rimagan. Nasliy kasalliklar yo'q.

2 yoshida kasal bo'lgan. O'RVI o'tkazgandan so'ng yuzida shish paydo bo'lgan. Keyinchalik oyoq - qo'llariga tarqalgan. Turar joyi bo'yicha shifoxonaga yotqazilgan. Prednizolon bilan davo yahshi naf bergan. 2 marta O'RVI dan so'ng kasallik qaytalagan. Davolash yahshi bo'lmaganligi natijasida markaziy shifoxonaning nefrologiya bo'limga yotqizildi.

Bemor umumiy ahvoli ogir. Yuzda, oyoqda tarqalgan shish, qorin bo'lislighida suyuqlik aniqlandi. Giperkortizmning belgilari yuzaga kelgan. Auskultatsiyada: nafas o'pkaning hamma nuqtalarda eshitilayapti, tarqalgan turli kalibrli nam xirillashlar eshitilayapti. Yurak chegaralari: o'ng chegerasi — to'shning o'ng qirg'og'idan 1,5 sm ichkarida, chap chegarasi —o'rta o'mrov chizigidan 2 sm tashqarida. Tonlar bo'g'iqlashgan. YuKS—128 zARB min. AB 140/105 mm.sim.ust.ga teng. Qorin kattalashgan, astsits belgilari bor. Jigar qovurga yoyida 5sm tashqarida.

Diurez 120—150 ml 1 sutkada.

**Qon umumiy tahlili:** Hb—111 g/l, leykotsitlar — $13 \times 10^9$ , t/ya —5%, s/ya-53%, eozinofillar -2%-38%, monotsitlar -2%. ECHT-32mm/soat; Siyidik umumiy tahlili: pH nordon, oqsil —3.3‰, leykotsitlar 3- 5 k/m, gialinli tsilindrlar 5- 6 ta, donador tsilindrlar 3- 4 ta.

**Qonning bioximik tahlili:** um. oqsil 35g/l, albuminlar 45%, globulinlar: dl-5%; s12-15%; b— 10%; y —25%; mochevina —6.2 mol/l, kreatin-60.0 mmoll; K - 4.5 mmol/l, Sa—1.8 mmoll.

Siyidik bioximik analizi: oqsil-760 mg/sut (norma —200), oksalat 55 mg/sut. O'tkazilgan davolar natijasida bolaning ahvoli yahshilandi.

- Vazifa: 1. Klinik tashxisni asoslang.  
2. Davolashdagi taktikangiz?  
3. Dietoterapiyani belgilang.  
4. Qanday qo'shimcha tekshirishlar o'tkazish zarur?

**Javob:**

- 1.SGN, nefrotik forma, to'lqinsimon kechishi, aktiv stadiyasi, ikkilamchi oligouriya.
- 2.Qon, siydikning umumiy va bioximiyaviy analizlarini dinamikada kuzatish.
- 3.Diurezni Zimnitskiy bo'yicha sinalmasi.
4. Davo choralarini davom ettirish va dinamikada kuzatuv.

## **SURUNKALI PIELONEFRIT MAVZU BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI.**

1. Surunkali pielonefritga ta’rif bering.
2. Surunkali pielonefritni keltirib chiqaruvchi etiologik omillar.
3. Surunkali pielonefritga moyillik tug‘diruvchi omillar.
4. Surunkali pielonefritning sinflanishi.
5. Surunkali pielonefrit klinikasi.
6. Surunkali pielonefritning differentialsial diagnostikasi.
7. Surunkali pielonefritning laborator diagnostikasi.
8. Surunkali glomerulonefritni instrumental tashxislash.
9. Surunkali pielonefritni davolash.
10. Surunkali pielonefritni dispanser nazorat qilish va profilaktikasi.

### **MAVZU BO‘YICHA NAZORAT TESTLARI**

1. Surunkali pielonefrit – bu buyrak jomecha-kosacha va tubulointerstisial to‘qimasining surunkali ( ...) kasalligi bo‘lib hisoblanadi:
  1. Mikrob- yallig‘lanishli.
  2. Infektsion kasallik.
  3. Allergik kasallik
  4. Autoimmun.
  5. Infektsion-allergik.
2. M.Ya.Studenikin klassifikatsiyasida surunkali pielonefrit kechishi bo‘yicha qanday tasniflanadi?
  - 1.Surunkali: a) retsidiylanuvchi; b) latent
  2. Birlamchi, ikkilamchi, manifest, latent.
  - 3.O‘tkir, surunkali, manifest, latent
  4. Erta va kechki
  5. Yashirin. Oshkora.
- 3.Surunkali pielonefrita buyrakdagi mikroskopik o‘zgarishlar xarakterli:
  1. Barcha sanalgan o‘zgarishlar kuzatiladi;
  2. Buyrak institsiyasida infiltrativ - sklerotik o‘zgarishlar;
  3. Buyrak tomirlari devorida yallig‘lanish - nekrotik o‘zgarishlar;
  - 4.Tomirlar devorida gialinoz, skleroz;
  5. Kanalcha epiteliyalarida distrofik va atrofik o‘zgarishlar;
4. Surunkali pielonefrita buyrakdagi o‘zgarishlar:
  1. Barcha sanalgan o‘zgarishlar xos.
  2. Buyrak usti g‘adir-budur;
  3. Buyrak kapsulasi yonbosh to‘qimalar bilan chatishib ketgan, qiyin ajraydi;

4. Buyrak jomchalari va siyidik nayi kengayib ketgan;
5. Buyrak kosachalari deformatsiyalangan;

**5. Surunkali pielonefrit retsidiv davri klinikasida kuzatiladi:**

1. Tana haroratining ko'tarilishi, qondagi yalliglanishga xos o'zgarishlar, dizuriya, siyidikda o'zgarishlar, bakteriuriya;
2. Subfebril tana harorati, teridagi sariqlik, siyidikni to'q jigarrangga kirishi;
3. Intoksikatsiya belgilari, qonda stafilokokklarning aniqlanishi;
4. Siyidikda makro- va mikrogematuriyanitopilishi, katta proteinuriya, tsilindruriya;
5. Siyidikda oksalat va fosfat tuzlarining ko'payib ketishi;

**6. Surunkali pielonefrit diagnostikasida muhim belgilar:**

1. Klinik belgilar, siyidkdagi uzgarishlar juda sust bo'ladi, ko'p yillar davomida bilinmasligi mumkin;
2. Tana haroratining juda yuqori ko'tarilishi, qondagi yalliglanishga xos kuchli o'zgarishlar, sezilarli dizuriya, siyidikda o'zgarishlar, bakteriuriya;
3. Kechirilgan o'tkir infektsiyadan bir necha kun o'tgach kasallik alomatlari yaqqol kuzatiladi;

**7. Surunkali pielonefritni differentsial diagnostika qilinadi:**

1. Barcha sanalgan kasalliklar bilan;
2. Interstsial nefrit bilan;
3. Buyrak tuberkulyozi bilan;
4. Vulvit, vulvovaginit bilan;
5. Surunkali toksik holatlar bilan;

**8. Surunkali pielonefritni diagnostikasida qo'llaniladigan laboratoriya tekshirish usullariga kiradi:**

1. Siyidik cho'kmasida "faol" (xarakatchan) leykotsitlarni – Shtengeymer-Malbin hujayralarini aniqlash;
2. Siyidik cho'kmasidan ozuqa muhitiga ekish;
3. Zimnitskiy uslubida siyidikning kontsentratsion hususiyatini tekshirish;
4. Buyrakni xromotsistoskopiyaga usulida shikastlangan buyrakda ranglangan siyidikni sekin chiqarilishi aniqlash;
5. Rentgen tekshirishlari yordamida jomcha va kosacha deformatsiyasi va kengayishini aniqlash;

**9. Surunkali pielonefritni diagnostikasida qo'llaniladigan laboratoriya tekshirish usullariga kirmaydi:**

1. Siyidikni antibiotik preparatlariga sezgirligini aniqlash;
2. Siyidikda zurayish davrida ifodalangan proteinuriyani (1-2 g/sut) aniqlash;
3. Siyidikda bakteriuriyani aniqlash;
4. Siyidikda leykotsituriyani aniqlash;
5. Siyidikda tsilindruriya va kam xollarda gematuriniya aniqlash;

**10. Siydikni miqdoriy tekshirish usuliga kiradi:**

- 1.Siydikni - Kakovskiy yoki Nechiporenko uslublarida siydik cho'kmasini tekshirish;
- 2.Siydikni antibiotik preparatlariga sezgirligini aniqlash;
3. Siydikda zurayish davrida ifodalangan proteinuriyani (1-2 g/sut) aniqlash;
- 4.Siydikda bakteriuriyani aniqlash;
- 5.Siydikda leykotsituriyani aniqlash;

**11. Surunkali pielonefritda umumiy qon analizida kuzatiladi:**

1. Qonda - gipoxromli yoki normaxromli turgun anemiya; ECHT – ko'paygan. leykotsitlar soni boshlangich davrda me'yorda yoki salgina ko'paygan, lekin keyinchalik uremiya rivojlanishi bilan keskin ko'payadi (20 000 va undan ortiq).
- 2.Qonda gipoxromli anemiya belgilari, leykotsitlar soni me'yorida;
3. Qonda giperxrom anemiya, eritrotsitlar soni o'zgarmagan, gemotokrit ko'rsatkichi yuqori;
4. Qonda gipoxrom anemiya, trombotsitlar soni kamaygan, leykotsitlar bir oz ortgan;
5. Qonda normoxromiya, eritrotsitlar 3,5-4,0 mln.; leykotsitlar  $7.500.10^9$  G/L; ECHT: 4-5mm/s.;

**12. Surunkali pielonefritni diagnostikasida qo'llaniladigan instrumental tekshirish usullariga kirmaydi:**

1. Siydik cho'kimsida shaklli elementlarni mikroskop yordamida sanash;
2. Rentgenologik tekshirishlari;
3. Ekskretor urografiya;
4. Retrogradli pielografiyani qo'llash;
5. Xromotsistoskopiya usulida shikastlangan buyrakda ranglangan siydikni sekin chiqarilishi aniqlanash.

**13. Surunkali pielonefrit asoratlariga kirmaydi:**

- 1.O'tkir buyrak etishmovchiligi;
2. Arterial gipertoniya;
3. Nefrosklerozli o'zgarishlar;
4. Surunkali buyrak etishmovchiligi;

**14. Pielonefrit tashxisida aks etishi kerak:**

1. Barchasi;
- 2.Kechishi: o'tkir yoki surunkali; retsidivlanib yoki latent;
- 3.Kelib chiqishiga ko'ra: birlamchi yoki ikkilamchi;
- 4.Kasallik davriga ko'ra: faol, qisman yoki to'liq klinik va laborator remissiya;
- 5.Buyrakning funktsional holati: buyrak funktsiyasi saqlangan, buzilgan, SBE;
7. Kasallik stadiyasiga ko'ra: kompensatsiya, SBE;

**15. Surunkali pielonefrit profilaktikasida muhim emas:**

1. Raxitning profilaktikasini o'tkazish;

- 2.Gigiena qoidalariiga amal qilish;
- 3.Infektsion kasalliklarni oldini olish;
4. Infektsion kasalliklardan so'ng siyidik analizini o'tkazib turish;
5. O'tkir siyidik infektsiyalarini adekvat davolash;

**16. Bemorlar kliniko-laborator remissiyadan sung "D" nazoratida turadi:**

1. O'tkir pielonefritda 3 yil; surunkalida – doimiy;
2. O'tkir pielonefritda 3 yil; surunkalida – 5 yil;
- 3.O'tkir va surunkali pielonefritda doimiy "D" nazoratida bo'ladilar;

### **MAVZU BO'YICHA VAZIYATLI MASALALAR.**

#### **Masala 1**

Bola 7 yoshda. 2 yildan buyon boshi tez-tez og'rib turadi, ba'zan qiziganga o'xshaydi, ammo isitmasini ulchamaydi . Ishtaxasi past, ba'zan biqinida sanchiq turadi, tez-tez siyadi, ba'zan siyidigi loyqaroq bo'ladi. Bu o'zgarishlarga ota-onasi uncha ahamiyat bermaydilar. Oilaviy poliklinikaga maktabga hujjat to'ldirish maqsadida tibbiy ko'rik o'tish uchun keldi. Poliklinika shifokori ob'ektiv ko'rikdan o'tkazdi va bir qator analizlar belgiladi. Siyidik analizida: siyidik miqdori oz; solishtirma og'irligi 1014; loyqa, katta bo'limagan proteinuriya, ko'p miqdorda leykotsitlar, epiteliyalar, bakteriyalar va shilimshiq aniqlandi.

Sizning fikringiz?

Sizning taktikangiz?

**Javob:** 1.Bolada surunkali pielonefrit; 2.Nefrologiya bo'limiga tekshiruv va statsionar davolanishga jo'natish kerak.

#### **Masala 2**

13 yoshli o'g'il bola. 10 yoshida o'tkir virusli infektsyaning og'ir shaklini kechirdi. Kasallik tuzalgach 2 hafta o'tib yana isitma ko'tarildi, ko'ngli aynib qayt qildi, bel sohasida og'riq turib siyidigi loyqalandi. Bolalar shifoxonasining nefrologiya bo'limida "O'tkir pielonefrit" diagnozi bilan davolandi, analizlar yahshilandi va unga uyg'a javob berildi. Poliklinikada 3 yil muddatga "D" nazoratiga olindi. Har yili ikki marotaba, kuz va baxorda profilaktik davo-chora olib turadi, siyidik va qon analizi topshiradi. Bola nazoratda bo'lishi va davo-choralari olib turishiga qaramay siyidik va qon analizlarida to'liq laborator remissiyaga erishib bulmayapti.

Sizning fikringiz?

Sizning taktikangiz?

**Javob:** 1. Bolada surunkali pielonefrit shakllangan.

2.Bolani nefrologiya bo'limiga to'liq tekshirish va davo choralarini olib borish uchun statsionarga jo'natish kerak.

## VI BOB

### BOLALARDA SIYDIK YO'LLARI A'ZOLARI KASALLIKLARI MAVZUSI BO'YICHA AMALIY KO'NIKMALAR:

Siydik yo'llari kasalligiga chalingan bemorlarni tekshirish rejasи.

#### 1. Anamnez yig'ishda ahamiyat berilishi kerak bo'lgan holatlar:

- Yiringli o'choqlar(omfalit, abtsedirlanuvchi pnevmoniya, terining yiringli kasalliklari va b.) bor yoki yo'qligiga;
- Siydik yo'llarining mikrob-yallig'lanishli kasalliklari ( onasida homila dorlik davrida, qarindoshlarida);
- Siydik yo'llaridagi rivojlanish nuqsonlari, vulvitlar, vulvovaginitlar, balanopostitlar;
- Nafas yo'llari, yurak qon-tomir tizimi, oshqozon ichak tizimining eksikoz bilan kechuvchi og'ir kasalliklari;
- Fon kasalliklar(raxit, anemiya, gipotrofiya va b.);
- Gijja kasalligi;
- Surunkali infektsiya o'choqlarii(surunkali tonzillit, gaymoritlar, adenoidlar va b.);
- Bemor shikoyatlari: yuqori isitma, dispепsiya simptomlari (qusish, qayt qilish, ich kelishdagi buzilishlari), siyishga soxta chaqiriqlar, siyganda qichishish yoki achishish; siydikdagи o'zgarishlar, umumiy bexollik, lanjlik, teri qoplamarining rangparlig'i, yuzdagи postozlik, bosh og'rig'i;

#### 2. Bolani ko'rish paytida ahamiyat berilishi kerak bo'lgan holatlar:

- Bolaning xushi, atrof muhit bilan kontakti, o'yinlarga qiziqishi;
- Teri qoplamarining rangi (rangparlik, ishinqiranlik);
- Shilliqqavatlar rangi(rangparlik, tildagi karash);
- Oshqozon va ichak trakti tomonidan o'zgarishlar – ishtahasining pastligi, ko'ngil aynishi, qusish, meteorizm, qabziyat;
- qorinning shakli va o'lchovlari;

- Pasternatskiy simptomining musbatligi;
  - Siyidik rangi, miqdori, tiniqligining o'zgarishi;
- 3. Palpatsiya qilinganda ahamiyat berish kerak:**
- Buyrakni paypaslanishi;
  - Paypaslanganda og'riqni kuchayishi;
- 4. Perkussiyada (bevosita va bilvosita) ahamiyat berish kerak bo'lgan holatlar:**
- Buyrak soxasidagi og'riqliknani aniqlash.
- 5. Laborator tekshirishga ahamiyat berish kerak:**
- Siyidikning umumiy taxlili – leykotsitoz, ECHT tezlashishi;
  - Siyidikni umumiy taxhili – siyidik loyqa, proteinuriya  $>1$  g/l; neytrofilli leykotsitlarni, buyrak epiteliyalarini ko'p miqdorda bo'lishi, mikrogematuriya, bakteriuriya, tsilindruriya (gialinlli, leykotsitli);
  - Buyrakni funktional tekshirish (sutkalik diurez, Zimnitskiy sinamasi);
  - Siyidik cho'kmasisidagi shaklli elementlarning miqdoriy baholanishi (Nechiporenko, Addisa-Kakovskiy, Amburje usullari);
  - Buyrakning portsial funktsiyasi (qondagi qoldik azot, mochevina, siyidikdagi kreatinni aniqlash);
  - Qondagi oqsil va oqsil fraktsiyalarini aniqlash;
  - Siyidikni ekib ko'rish;
- 6. Instrumental tekshiruv:**
- Qorin bo'shlig'inining obzor rentgenogrammasi;
  - Ekskretor urografiya;
  - Buyrak va siyidik yo'llarining obzor rentgenografiyasi;
  - Buyrak UZIси (buyrak va siyidik yo'llari o'lchamlari, loxanka va jomchalarining holati va ulchamlari; rivojlanishdagi anomaliyalari, tuz, kum va boshqalarning mavjudligi.);
  - Siyidikni ekib ko'rish;
  - Nefrolog konsultatsiyasi;

**7. Tekshirish so'ngida irlsiyat aniqlanishi lozim:**

- Bolaning ota-onasi;
- Ota yoki ona tomonidan bobosi va buvasi;
- Aka va ukalari, opa va singillari;

**BUYRAKNI BIMANUAL PALPATSIYA QILISH TEKNIKASI**

**Maqsadi:** Buyraklarni o'lchamini, xarakatchanligina va og'riqlar borligini aniqlash.

**Ko'rsatmalar:** Buyraklar patologiyasida (gidronefroz, o'sma, nefroptoz v.b.).

**Kerakli anjomlar:** Kushetka, steril rezina qo'lqop.

**Bajarish texnikasi:**

Buyrakni paypaslashda bemor vertikal holatda yoki kushetkada oyoqlari tizza bo'g'imidан bir oz bukilgan holda chalqancha yotgan bo'lishi kerak.

Shifokorni qo'li iliq bo'lган xolda rezina qo'lqop kiyadi.

Shifokor bemorni o'ng tomonida turadi va bemordan qornini bo'sh tutish so'raladi.

I qadam - chap buyrakni paypaslashda o'ng qo'l barmoqlarini bir oz bukkan xolda chap qovurg'a ravog'idan pastga qo'yadi. Bunda ko'rsatkich barmog'i XII qovurg'adan ozgina pastda qorin to'g'ri mushagi tashqi qirrasidan lateral qismida turishi kerak.

O'ng buyrakni paypaslashda qo'llarni bemorga qo'yish almashadi.

II qadam - nafas olganda teri pastga surilib teri burmasi hosil qilinadi.

III qadam - bemor nafas chiqarganda chap qo'l qoringa chuqur kiritiladi, shu vaqtida o'ng qo'l bilan buyrakni chap qo'lga yaqinlashtiriladi.

IV qadam - bemordan chuqur nafas olish so'raladi. Shu vaqtida buyrakni bir - biriga yaqinlashtirayotgan ikkala qo'l barmoqlari orasiga olinib, keyin chap qo'l pastga sirpantirilib buyrak palpatsiyasini amalga oshiradi.

Rezina qo'lqop echiladi.

*Qorin palpatsiyasi* - siyidik yo'llarida og'riqni yoki o'ta sezuvchanlikni

bor yoki yo'qligini aniqlash uchun qorinning oldingi devoridagi uning proektsiyasi bo'lgan yuqori va pastki nuqtalari bo'ylab bajariladi . Yuqori siyidik oqimi nuqtasi kindik ustidan va qorinning to'g'ri muskuli tashqi chetlari bo'ylab o'tkazilgan chiziqlar kesishgan joyda; pastkisi - bispinal chiziqni qorinning to'g'ri muskulining tashqi qirg'oqlari bo'ylab o'tkazilgan chiziqlar kesishgan joyda.

**Siydik pufagi palpatsiyasi** chov sohasida ikki qo'llab bir vaqtning o'zida bajariladi. Tekshirishdan avval siydik pufagi siyidikdan bo'shatilgan bo'lishi kerak. Bimanual palpatsiya bushagan siydik pufagida yumshoq konsistensiyali, o'rta chiziqdan lateral joyalashgan divertikulni, shuningdek tosh, o'smalarni aniqlashga yordam beradi. O'tkir va surunkali siydik tutilishida siydik pufagi ba'zan yuqori chegarasi kindikkacha etuvchi elastik va flyutuatsiyalanuvchi hosila sifatida palpatsiyalanadi. Ko'krak yoshidagi bolalarda to'lib turgan siydik pufagi normada palpatsiyalanadi.

#### PASTERNATSKIY SIMPTOMINI ANIQLASH TEKNIKASI

**Maqsad:** Buyrak kasalliklarini aniqlash.

**Ko'rsatma:** Buyrak kasalliklariga gumon bo'lganda.

**Kerakli anjomlar:** kushetka.

**Bajarish texnikasi:**

Bemor tik, o'tirgan yoki chalqancha yotgan holatda bo'lishi mumkin.

Shifokor bemorni o'ng tomonida yuziga yoki yon tomoniga qarab stulda o'tiradi.

Simptomni bemor tik yoki o'tirgan holatda aniqlashda shifokor bir qo'l kaftini bemorni bel sohasiga buyraklardan birini proektsiyasiga (qovurg'a – bel burchagiga) qo'yadi va musht qilingan ikkinchi qo'l kaftini lateral qirg'og'i bilan birinchi qo'l kafti ustiga engil uradi.

Simptomni bemor chalqancha yotgan holatda aniqlashda shifokor bir qo'lini tekshirilayotgan buyrak sohasida bel ostiga kiritadi va II-V barmoqlari bilan qisqa turtki beradi.

Pasternatskiy simptomi musbat (og'riq bo'lishi) yoki manfiy bo'lishi

mumkin. Buyrakda toshlar, glomerulonefrit, pielonefrit, o'smalar bo'lganda simptom musbat bo'ladi. Bemorda Pasternatskiy simptomni ikkala buyraklarda navbatma-navbat aniqlanadi.

#### **BEL SOHASINI PERKUSSIYA QILISH.**

Bel sohasiga urib ko'rish (Pasternatskiyning modifikatsiyalangan simptom) ni og'riq yoki nohush sezgilarini aniqlash uchun qo'llaniladi, bu sezgilar ba'zan oyoq yoki qorinning pastki yarmiga berilishi mumkin (bunda simptom musbat hisoblanadi).

**Bajarish usuli:** bel sohasiga chap qo'l kaftlari avval bir tomoniga, so'ng ikkinchi tomoniga qo'yiladi, ikkinchi qo'lning qirra tomoni bilan qisqa va uncha kuchli bo'limgan zARBalar bilan urib ko'rilibadi. Urib ko'rish simptomni buyrak va buyrak oldi to'qimalarda yalliglanishli jarayonlari (pielonefrit, paranefrit va b.), siydiq-tosh kasalliklarida musbat bo'ladi.

Perkussiya bilan chov ustida to'lib turgan siydiq pufagining yuqori chegarasini aniqlash mumkin. Bu maqsadda chap qo'lning plessimetr-barmog'ini chovga paralell qo'yib qorinning o'rta chizig'i bo'ylab kindikdan boshlab pastga qarab tovush to'mtoqlashgunicha perkussiya qilib boriladi. Ushbu usul o'tkir siydiq tutilishiga gumon bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Shuningdek, perkussiya yordamida qorin bo'shlig'idagi erkin suyuqlikni ham aniqlash mumkin.

#### **TUVAKDAN FOYDALANIB SIYDIK YIG'IS.**

Tuvakdan foydalanishning doimiy va qat'iy ko'nikmasi bola hayotining 3-chi yillardan mustahkamlanadi. Ammo, o'yinga berilishi, kuchli his-hayajon, qo'rquv kabi hissiyotlar katta yoshdagi bolalarda beixtiyor siyib qo'yishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Go'dak bolalarda siydiq yig'ish usuli quyidagicha. O'g'il bolalarda jinsiy a'zo probirkaga kirgiziladi, uning chetlari yopishqoq plastir tasmalari yordamida chov sohasi terisiga yopishtiriladi,

Probirkani ezilishi yoki sinib qolishini oldini olish uchun bolaning oyoqlari choyshabga o'raladi yoki krovat chetiga bog'lab qo'yiladi. Bundan tashqari siyidik yig'ishda erkaklar prozervatividan ham foydalanish mumkin. Bunda bola jinsiy a'zosi uning ichiga joylashtiriladi. Prozervativning yuqori halqasi ipchalar yordamida qoringa aylantirib mustahkamlanadi

Qiz bolalarda siyidik yig'ish uchun avval yuviladi. So'ng rezinali, choyshab bilan o'rab qo'yilgan (sovuj bo'lmasligi uchun) chambarakka yotqiziladi, o'rtasiga lotok yoki tovoq qo'yiladi. Bola chambarakdan tushib ketmasligi nazorat qilinadi. To'plangan siyidik toza probirkaga quyilib, laboratoriyaga jo'natiladi.

#### **SIYDIK UMUMIY TAXLILIGA SIYDIK YIG'ISH.**

1.Siyidik ajratuv sistemasini holatini baholash maqsadida umumiyl siyidik analizi baholanadi. Umumiyl siyidik taxlili uchun ertalabki siyidikni o'rta portsiyasi olinadi. Siyidikni analizga olishdan oldin qo'lni, bemorni oraliq va jinsiy a'zolari sohalarini yuvish kerak. Katta yoshdagagi bolalarda siydikning birinchi miqdorlari (5-10 ml) o'tkazib yuboriladi, va o'rta portsiyadagi miqdori avvaldan tayyorlangan idishga siydirib olinadi. Oxirgi miqdorlari ham olinmaydi.

2.Go'dak yoshdagagi bolalarda siyidik tah lilga olish uchun gigienik qoidalarga amal qilgan holda bolalar jinsiy a'zolariga steril polietilen paket leykoplastir yordamida yopishtirib qo'yiladi va shunga to'plangan siyidikdan tahlilga olinadi. Ba'zida maxsus siyidik to'plovchi moslama (mochesbornik) dan foydalanishimiz mumkin.

**UMUMIY SIYDIK TAXLILINI BAHOLASH.**

O'zbekiston Respublikasi Uz RSSV formasining

Sogliqni Saqlash vazirligi xos raqami \_\_\_\_\_ 150 \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ KGRK buyicha xos rakami \_\_\_\_\_

muassasa nomi Tibbiy xujjat shakli 210G\*x

Uz RSSV 1992 yil 16 aprelda

231- sonli buyruk bilan

tasdiqlangan

Umumi siyidik taxlili № \_\_\_\_\_

20\_\_\_ yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

Familiyasi, ismi, sharifi \_\_\_\_\_

Yoshi \_\_\_\_\_

Muassasa \_\_\_\_\_ bo'lim \_\_\_\_\_ palata \_\_\_\_\_

Fizik-kimyoviy xossalari

Miqdori \_\_\_\_\_

rangi \_\_\_\_\_

tiniqligi \_\_\_\_\_

Nisbiy zichligi \_\_\_\_\_

Reaktsiyasi \_\_\_\_\_

Oqsil \_\_\_\_\_

Glyukoza \_\_\_\_\_

Keton tanachalari \_\_\_\_\_

Bilirubin \_\_\_\_\_

Urobilinlar \_\_\_\_\_

O't kislotalari \_\_\_\_\_

Indikan \_\_\_\_\_

## **MIKROSKOPIYA**

Epiteliy;

Yassi \_\_\_\_\_

O'tuvchan \_\_\_\_\_

Buyrak \_\_\_\_\_

Leykotsitlar \_\_\_\_\_

Eritrotsitlar:

O'zgargan \_\_\_\_\_

O'zgarmagan \_\_\_\_\_

Tsilindrler

Gialin \_\_\_\_\_

Donador \_\_\_\_\_

Mumsimon \_\_\_\_\_

Epitelial \_\_\_\_\_

Leykotsitar \_\_\_\_\_

Eritrotsitlar \_\_\_\_\_

Pigment \_\_\_\_\_

Shilliq \_\_\_\_\_

Tuzlar \_\_\_\_\_

Bakteriyalar \_\_\_\_\_

200 \_\_\_\_ yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_

## ORTOSTATIK SINAMANI O'TKAZISH

Sinamani o'tkazish arafasida, kechqurun, taxminan uyqudan 1 soat avval bola siyidik pufagini bo'shatib yotadi. Erta bilan o'rnidan turgach darhol siyishi kerak, bu siyidik alohida idishga to'planadi va **yuklamagacha** deb belgilab qo'yadi. So'ng bolani tizzalatib yarim yumshoq stulga orqasiga berilgan tayoqni bukilgan tirsaklari yordamida maxkam tutib turish tavsya qilinadi. Bola shunday holatda 15-20 minut qoladi, so'ng yana siyidik pufagini boshqa idishga bo'shatadi, va bu idishni **yuklamadan keyin** deb belgilab qo'yiladi. Yuklamagacha va yuklamadan keyingi idishlardagi siyidiklar portsiyasidagi oqsillar tekshiriladi. Agar siyidikning ikkinchi portsiyasi (yuklamadan keyingi) da oqsil miqdori birinchi portsiyasi (yuklamagacha) ga qaraganda 2-3 marta ortiq chiqsa ortostatik sinalma musbat hisoblanadi.

## BUYRAKNING FUNKTSIONAL SINALMALARI

**Zimnitskiy sinamasi** – 8 bankali sinama bo'lib, buyraklarning kontsentratsion va ajratuv xususiyatlarini aniqlaydi.

**Kerakli anjomlar:** 8ta siyidik toplash uchun idish (bankalar);

**Bajarilishi:** bu sinama ertalabdan boshlanadi. Buning uchun xamshira 8 ta bankani 1-8 gacha nomerlaydi, bemorning ismi sharifi va kaysi soatlarda yig'ilishi kerakligini belgilaydi. Bemor kun davomida 8 ta bankaga belgilangan soatlarda belgilangan idishlarga (kunduzgisi 1-4: soat 6-9; 9-12, 12-15; 15-18; tungisi 5-8: soat 18-21; 21-24; 00-03; 03-06;) siyidik yig'adi. Ma'lum interval oralig'ida bemor siymasa banka bo'sh topshiriladi. Har bir bankadagi siyidik miqdori va uning nisbiy zichligi aniqlanadi. Natijalarga asoslanib umumiy siyidik miqdori, kunduzgi va tungi diurez aniqlanadi. Bundan tashqari siyidikning har bir portsiyadagi nisbiy zichligi aniqlanadi va bu buyrak kontsentratsion faoliyatini baholaydi.

Normada umumiy diurez miqdori yoshiga ko'ra: 400 - 1500 ml ni tashkil qiladi, nisbiy zichligi esa – 1008-1022 gacha bo'lishi mumkin. Nisbiy zichlikning bunday tebranishlari buyrakning normal faoliyatidan darak beradi. Kunduzgi va tungi diurez nisbati 6 yoshgacha bolalarda 1 : 1, katta yoshdagi bolalarda 2 : 1 nisbatda bo'lishi kerak.

Zimnitskiy sinamasi 7-10 kunda 1 marta o'tkazilb turiladi.

**Nechiporenko sinamasi** yashirin leykotsituriya, eritrotsituriya va tsilindruriyani aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Odatda bu sinama umummiy siyidik taxlili o'tkazgadan so'ng, ushbu tahlilda ko'rsatkichlar meyorlarida biroz o'zgarishlar aniqlanganda qilinadi. Nechiporenko sinamasi bu o'zgarishlarni to'laroq o'rGANIB, to'g'ri diagnoz qo'yishga yordam beradi. Bundan tashqari Nechiporenko sinamasi davolash natjalarini tekshirish uchun, ayniqsa remissiya davrida kasallikning laborator belgilarini kuzatib turish maqsadida o'tkaziladi.

Tekshirish uchun yangi yigilgan siydikdan 10 ml miqdori tsentrifuga qilinadi, so'ng cho'kma ustidagi suyuqlikning 9 ml pipetka yordamida olib tashlanadi va 1 ml qolgan cho'kmadagi shaklli elementlar hisoblanadi.

Normada 1 ml siydikdagi shaklli elementlar miqdori:

Eritrotsitlar – 1000 tagacha bo'lishi kerak

Leykotsitlar - 2000 tagacha bo'lishi kerak

Tsilindrlar - 20 tagacha bo'lishi kerak

Shaklli elementlar miqdorini ortishi kasallikni tasdiqlovchi laborator dalil bo'lib hisoblanadi.

**Addis-kakovskiy sinamasi.** Sinama siydikdagi shaklli elementlarning miqdorini baholash, yashirin leykotsituriya, eritrotsituriya va tsilindruriyani aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Addis-Kakovskiy sinamasida sutkalik siyidik miqdordagi shaklli elementlar va tsilindrlar miqdori aniqlanadi. Bu sinamani o'tkazish uchun bir sutkalik yoki 12 soat davomida siyidik yig'ilishi lozim. Yig'ilgan siyidik miqdoridan 10 ml olinib, tsentrifuga qilinadi, so'ng cho'kma ustidagi suyuqlikdan 9 ml pipetka yordamida olib tashlanadi va 1 ml qolgan cho'kmadagi shaklli elementlar hisoblanadi. Normada Addis-Kakovskiy sinamasida siydikdagi shaklli elementlar miqdori: eritrotsitlar – 1.000.000 taga; leykotsitlar - 2.000.000 tagacha; tsilindrlar - 20.000 tagacha bo'lishi kerak.

**Amburje sinamasi.** Bu sinama bo'yicha eritrotsitlar va leykotsitlar miqdori minutlik diurezda aniqlanadi. Buning uchun 3 soat davomida siyidik yig'iladi. Yig'ilgan siyidik miqdoridan 10 ml olinib, tsentrifuga qilinadi, so'ng cho'kma

ustidagi suyuqlikning 9 ml pipetka yordamida olib tashlanadi va qolgan cho'kmadagi shaklli elementlar xisoblanadi.

Normada 1 minutlik siydik mikdoridagi shaklli elementlar mikdori:

Eritrotsitlar – 1000 tagacha; Leykotsitlar - 1500 taga;

### **SIYDIKNING 3 (2) STAKANLI SINAMASI.**

Bu sinama bir martalik siyish jarayonida siydikni oqimidan portsiyalab yig'ish yordamida bajarilib, gematuriya siydik traktining qaysi qismida kuzatilayotganini aniqlash imkonini beradi.

Siydikning oqimidan 2 yoki 3ta idishlarga siydik yig'iladi.

Agar gematuriya uretradan bo'lsa, birinchi stakanagi portsiyada qon laxtalari bo'ladi; agar gematuriya shilliq qavatning o'tkir yallig'lanish jarayoni, tosh yoki siydik pufagining boshqa kasalliklari bilan bog'liq bo'lsa qonning ko'prog'i siydikning oxirgi portsiyasi bilan ajraladi. Siydik nayi jarohati bilan bog'liq gematuriyada ba'zan fibrin ipchalari bir-biriga yopishib chiqadi, ularning shakli nayning shaklini olib qoladi. Buyrakning diffuz kasaliklaridagi gematuriya barcha portsiyalarni bir xilda rangga bo'yaydi.

### **REBERG SINAMASI.**

Ilk bor bu sinama Reberg tomonidan filtratsiya va reabsorbsiyani aniqlash uchun kreatinin bilan o'tkazilgan. Bunda tekshiruvdag'i bola 1-2 g kreatininni iste'mol qiladi, so'ng ikki marta bir soatli siydik portsiyalari olinadi. Kreatinin iste'mol qilingandan keyin 1 soat o'tgach venadan qon olinib, undagi kreatinin miqdori aniqlanadi.

Hisob quyidagi formula bo'yicha o'tkaziladi:
$$C = \frac{UV}{P}$$
, C - maksimal tozalanish koefitsienti, U - siydikdagi kreatininning kontsentratsiyasi, V - 1 minutdagagi siydik miqdori, P - plazmadagi kreatinin kontsentratsiyasi

### **ARTERIAL QON BOSIMI O'LCHASH.**

**Arterial qon bosimi** - tomirlar devoriga tushadigan qon bosimi bo'lib, arterial bosim yurakdan otilib chiqadigan qonning miqdoriga, oqimiga, umumiy periferik tomirlarning qarshilik ko'rsatishiga, qon tomirlar devorining elastikligiga bogliq

bo'ladi. Sistolik (maksimal)q, diastolik (minimal) va puls arterial bosimi farqlanadi.

Sistolik bosim — arterial sistemada chap korincha sistolasidan keyin paydo bo'ladigan puls to'lkini maksimal ko'tariladigan vaktdagi bosimdir. Diastolik bosim esa yurak diastolasini oxirida, puls to'lkini tushgan vaktda yuzaga keladi.

Sistolik va distolik kon bosimi orasidagi fark - puls bosimi deyiladi.

Arterial kon bosimini aniklaydagan asboblardan keng tarkalganlari simobli tonometr (Riva-Rochchi apparati) va prujinali yoki elektron tonometrlar bo'ladi.

Arterial kon bosimini tovushli aniklash usuli arteriyaning manjetka bilan kisilganda tovushli fenomenlarni kayd kilishga asoslangan. Arterial bosim ma'lum soatlarda, odatda ertalab, muayyan tana vaziyatida, imkon boricha bir xil xavo xaroratida o'lchanishi maksadga muvofikrokdir.

#### **Arterial qon bosimini o'lchanish texnikasi**

**Maqsad:** Yurak-qon tomir tizimining faoliyatini yoki ularning funksional xususiyatlarini aniqlash.

**Tayyorgarlik:** onasidan bemorga avval ham shunga o'xhash muolajalar o'tkazilganmiq, natijalari qanaqa bo'lganligini aniqlang va bolaga o'zini qanday tutish kerakligini tushuntiring.

**Zarur bo'ladigan jixozlar:** tonometr (kichik yoshdagি bolalarga yoshiga xos bo'lgan maxsus manjetkalar bo'lishi kerak), fonendoskop, qogoz va qalam.

**Bajarish:** Arterial qon bosimi odatda 1-2 marta 2-4 minut oraligi bilan o'lchanadi, tinch yotgan yoki o'tirgan, qo'lini bo'shashtirgan qolatda, bemorning kaftini yuqori tomonga qaratilgan holatda.

Bemorning chap qo'liga tirsak bo'gimidan 2-3 sm yuqoriga, yurak sohasida manjetkani siqmasdan o'raladi.

Manometr naychasini manjetka bilan birlashtirib, manometrdagi shkala holatini (simob ustuni) pastda joylashganini tekshiring .Tirsak bo'gimidan elka arteriyasini topib, u erga fonendoskop qo'yiladi (fonendoskopni ohista, ya'ni o'rtacha bosish zarur, aks xolda ma'lumotlar noto'gri bo'ladi). So'ng manjetkaga

bemorning normadagi (bolaning yoshiga ko'ra normativ jadvalari mavjud) qon bosimi ko'rsatkichlaridan 20-25 mm simob ustuni ortiqroq havo yuboriladi. So'ng ventilni olib, manjetkadagi havo asta-sekin tushiriladi, simob ko'rsatkichining asta-sekin tushishini kuzatib turing. Bir vaqtning o'zida arteriyadagi tovushni eshitib, monometr ko'rsatkichlarini kuzating. Dastlabki tovushlar (tonlar) eshitilishi bilan (arterial bosimning yurak qisqarishidagi bosimi darajasi) – sistolik bosim va tonlar yo'qolishi bilan (yurak bo'shashgan vaqtdagi arterial bosim) – diastolik bosim manometr ko'rsatkichlarini belgilang. Manjetkadagi havoni butunlay chiqaring.

**Arterial bosim kuyidagicha yozib ko'yiladi:** sistolik bosim/diastolik bosim. Muolajani 2-3 marotaba 3-5 minutlik interval bilan takrorlab o'tkaziladi, olingen ma'lumotlarni taqqoslab o'rtacha ko'rsatkich yoziladi. Birinchi bor A/B o'lchayotganda ikkala qo'lda o'lchanadi va olingen ma'lumotlar solishtiriladi. Keyinchalik qon bosimi bir qo'lda tekshirilsa ham bo'laveradi.

**Mumkin bo'lgan asoratlar:** arteriya qon tomirining uzoq vaqt bosilishi natijasida, qon tomirning siqilishi va qo'lning qon bilan ta'minlanishi buzilishi hisobiga, qo'lda ogriqlar paydo bo'lishi mumkin.

Quyidagi jadvalda qon bosimining meyoriy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Bola yoshi	Arterial qon bosimi ko'rsatkichlari	
	Sistolik bosim mm simob ustunida	Diastolik bosim mm simob ustunida
3 yosh	90 — 105	48 — 62
4 yosh	93 — 110	48 — 63
5 yosh	95 — 113	48 — 66
6 yosh	95 — 114	51 — 70
7 yosh	91 — 114	53 — 71
8 — 12 yosh	92 — 116	55 — 75
13 — 15 yosh	100 — 118	60 — 70

Bir yoshgacha bolalarni sistolik arterial bosimi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi  $76+2n$   $n$  — bolaning oyi

1 yoshdan katta bolalarda  $90+2n$

$n$  — bolaning yoshi.

Diastolik bosim  $40+n$   $n$  — bolaning yoshi.

yoki  $1/3$  ni tashkil qiladi.

## **VII BOB**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

#### **Asosiy:**

1. Baranov A.A. Detskie bolezni. Uchebnik Moskva. 2004. 879 bet.
2. Shabalov N.P. Detskie bolezni. Uchebnik. Moskva. 2004. 830 bet.
3. Shabalov N.P. Pediatriya. Uchebnik. S.-Peterburg. 2000. 320 bet.
4. Isaeva L.A. Detskie bolezni. Uchebnik. Moskva. 1994. 418 bet.
5. Baranov A.A. Propedevtika detskix bolezney. Moskva. 1998. 332 bet.
6. S.M Sushko, V.I. Novikova, Petuxov Z.E. Poliklinicheskaya pediatriya. Minsk. 2000.
7. M.R.Sain, Z.G.Bro'skina Anatomiya i fiziologiya detey i podrostkov. Moskva 2000.
8. Leiferman K. Eosinophilis in atopic dermatitis // J. Allergy Clin immunol.- 1999.-Vol. 104.-(Suppl.)- P.99-108.

#### **Qo'shimcha**

9. A. Richard, Polin, Mark F.Ditmar. Sekreto' pediatrii. S.-Peterburg. 1999. 783 bet.
10. Pod red. M.V.Chichko. Spravochnik po lecheniyu detskix bolezney. Minsk. 1999 703 bet.
11. Yu.A. Belopolskiy, V.B.Oleynich Pediatriya noveyshiy spravochnik; Moskva. 2005. 590 bet.
12. Strachunskiy L.S., Belousova Yu.B., Kozlova S.N.. Prakticheskoe rukovodstvo po antiinfektsionnoy ximioterapii. Moskva 2002. bet.379
13. Studenikin M.Ya. Spravochnik pediatra. Moskva. 1997. 400 bet.
14. Ya.Yu. Illek. Diagnostika i lechenie pervichnyx nefritov u detey. Kirov. 1998.
15. Ya.Yu.Illek, M.R.Nuritdinov. Differentsialnaya diagnostika vajneyshix simptomov i sindromov bolezney pochek u detey. Tashkent.1998
15. M.S. Ignatova, E. Veltishev. Detskaya nefrologiya. S.-Peterburg. 1989. 454. bet.

16. Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olingan:

[www.medicinform.net/deti](http://www.medicinform.net/deti)

[www.medlinks.ru/speciality](http://www.medlinks.ru/speciality)

[www.pediatry.eurodoctor.ru](http://www.pediatry.eurodoctor.ru)

[www.krugosvet.ru/articles](http://www.krugosvet.ru/articles)

[www.medagent.ru/list](http://www.medagent.ru/list)

[www.pediatriya.ru](http://www.pediatriya.ru)

